Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, T-sxemasi, blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q5; Q6.

9-Mavzu. Kasb tanlashga yo'llashning umumiy masalalari

Kasb maorifi va uning mohiyati, mazmuni, shakllari. Kasb tanlashga yo'llashning psixologik mohiyati. Kasb tanlashga yo'llashda psixologik maslahatlarning roli. Kasbiy saralashning psixologik tavsifi. Kasbiy adaptatsiya bosqichlarining psixologik xususiyatlari. Kasbiy kamolot (shakllanish)ning o'ziga xosligi, uning bosqichlari va o'rganish mezonlari. Kasbiy tarbiyaning psixologik mohiyati. Kasb tanlashga yo'llashda amaliy psixologning roli va funksiyalari. Kasb tanlashda tuman, shahar tashxis markazlarining ahamiyati va vazifalari. Kasb tanlashning tashqi va ichki omillarining psixologik tavsifi. Kasb motivlarini o'rganish metodikalari va ularning mazmuni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, T-sxemasi, blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q5; Q6.

10-Mavzu. Reoriyentatsiya psixologik muammo sifatida

Reoriyentatsiya (qayta kasbga yo'llash) psixologik muammo sifatida talqin qilinishi. Reoriyentatsiya va proforiyentatsiya. Reoriyentatsiya va shaxsning xarakterologik xususiyatlarini hisobga olish. Shaxsning kasbiy imkoniyatlarini o'rganishning metodlari va metodikalari. Reoriyentatsiya vujudga kelishining obyektiv va subyektiv shart - sharoitlari. Reoriyentatsiya komillikning muhim omili, sharti sifatida. Kasb motivlari, kasbga qiziqish, kasbiy layoqat va ularni tekshirish metodlari. Mashq, trening, trenirovka, tajriba kasbiy moslashishning muhim omillari ekanligi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, T-sxemasi, blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q5; Q6.

11-Mavzu. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Kasb tanlashga individual yondashuv. Kasbga yo'llash tizimi va uning asosiy qismlari. O'quvchilarning kasb tanlashga o'rgatishda o'qituvchilarning jamoasi faoliyatining roli. Sinf rahbarining ota-onalar bilan ishlashi kasb maorifi sifatida. Yoshlar tashkilotlarining kasb tanlash jarayonida ishtiroki. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar kasbiy tasavvurlarni tarkib toptirish omili ekanligi. Maktabdan tashqari maxsus muassasalar kasb tanlash va kasbiy mahorat manbai sifatida. O'quv fanlarining kasbga yo'llash imkoniyatlari. Mehnat ta'limi tizimida profессиogrammaning o'rni. Kasbga yo'llashda mahalliy matbuot, radio, televideniye, uchrashuvlar, kinofilmlar va boshqar vositalarning ta'siri.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, T-sxemasi,*

blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q5; Q6.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ta'lim talabalarga bilimlarini yanada chuqurroq egallashga, fan bo'yicha malaka va ko'nikmalarini mustaxkamlashga yordam beradi. Mustaqil ta'limning eng asosiy sharti shundan iboratki u talabalarni o'z ustida ishlashga, mustaqil bilim olishga va o'z mahoratlarini mustaqil ravishda mukammallashtirib borishlari uchun asos yaratadi. Bu esa kelajkdada etuk, o'z ustida tinmay ish olib boruvchi kadrlarni tayyorlashga yordam beradi.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi (Kasbiy psixologiya)

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi (soatda)
				Kasb ta'limi
1.	O'zbekistonda kasbga yo'naltirishning bugungi holati.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2-hafta	2
2.	SHarq mutafakkirlarining kasbiy ta'lim va tarbiyaga oid falsafiy psixologik qarashlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	3-hafta	2
3.	Kasb psixologiyasi fanining ilmiy tadqiqot metodlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4-hafta	4
4.	Kasbga oid olib boriladigan maslahat ishlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	5-hafta	4
5.	Professiografiya to'g'risida tushuncha.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	6-hafta	4
6.	Chet elda kasb-hunarga yo'naltirish ishlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	7-hafta	4
7.	Kasbiy saralash bo'yicha yaratilgan psixologik metodikalar mazmuni.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	8 -hafta	4
8.	Kasb tanlashga yo'llashning psixologik mohiyati.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	9-hafta	2
9.	Sport sohasida kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	10-hafta	4
10.	Shaxs psixologiyasi va kasbiy shakllanish	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	11-hafta	4
Hammasi				56 soat

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullaridan psixologik trenig va interfaol metodlar, klaster metodi, aqliy hujum metodlari hamda axborot kommunikatsiya (elektron-didaktik,

mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezintatsiya) texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan.

Nazariy, amaliy va seminar mashg'ulotlari hamda mustaqil ishlar natijalari asosida belgilangan tartibda oraliq, joriy va yakuniy nazorat hamda reyting tizimiga muvofiq baholash o'tkaziladi.

Kasbiy psixologiya fani bo'yicha talabalar bilimni baholashning reyting mezonlari.

"Kasbiy psixologiya" fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabani fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi;

- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabani nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta test shaklida o'tkaziladi va o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" hamda 2 ta blokdan iborat test shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabani bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabani fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Kasbiy psixologiya" fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabani saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar

jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = V * O' / 100$

-bu erda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy JN va oraliq ON turlari bo'yicha 55 bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

- ON va YAN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YAN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u **akademik qarzdor** deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyasiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN-ballari		
		Maks	1-JN	2-JN
1	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirish darajasi.	10	0-5	0-5
2	Seminar (laboratoriya) mavzulari bo'yicha talabaning bergan og'zaki javoblari	25	0-13	0-12
Jami JN ballari:		35	18	17

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON-ballari		
		Maks	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Amaliy va nazariy mashg'ulotlaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi. Talabalarining mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirishiga maksimal 5 ball (1-ON uchun 2 ball, 2-ON uchun 3 ball) ajratiladi	5	0-2	0-3
2	1- ON "Og'zaki" savol-javob tarzida o'tkazilib, 3 ta savol beriladi va har bir savolga maksimal 5 ball; 2 – ON "Test" shaklida o'tkazilib, 30 ta test savolidan iborat	30	0-15	0-15

bo'ldi va har bir test savoliga 0,5 ballan ajratiladi			
Jami ON ballari:	35	0-17	0-18

Fan bo'yicha oraliq nazorat ikki marta o'tkazilishi nazarda tutilgan bo'lib, I - ON "Og'zaki" shaklda o'tkaziladi va unga maksimal 17 ball, II – ON "Test" shaklida o'tkazilib unga maksimal 18 ball ajratilgan.

Talabalar bilimni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

O'tkaziladigan vaqti	Nazorat turi	Mak ball	"5"	"4"	"3"	Nazorat shakli
1-4-mashg'ulotlardan so'ng	I-JN	18	15-18	13-15	10-13	Og'zaki
5-9-mashg'ulotlardan so'ng	II-JN	17	15-17	12-15	9-12	Og'zaki
4-seminar mashg'ulotidan so'ng	I-ON	17	15-17	12-15	9-12	Og'zaki
8 - seminar mashg'ulotidan so'ng	II-ON	18	15-18	13-15	10-13	Test
Jadval asosida	Ya. n	30	26-30	21-25	17-20	Yozma
	Jami	100	86-100	71-85	55-70	

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

№	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar YaN ballari	
		maks	O'zgarish oralig'i
1	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	30	0-30
Jami yakuniy nazorat bali-30			

Yakuniy nazoratda "Yozma ish" larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan. Har bir savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-10 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaniing yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi. Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaniing yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Talabalar bilimni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Nazorat turi	Mak ball	"5"		"4"		"3"	
I-JN	18	15	18	13	15	10	13
II-JN	17	15	17	12	15	9	12
I-ON	17	15	17	12	15	9	12
II-ON	18	15	18	13	15	10	13
YaN	30	26	30	21	25	17	20
Jami	100	86	100	71	85	55	70

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. T. Melcherti "Foundations of Professional Psychology" 2011.
2. M. Karimova Kasbiy psixologiya. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2013
3. Zeer E. Psixologiya professionalnogo obrazovaniya: Uchebnoe posobie dlya studentov, aspirantov, pedagogov. - M., 2006.
4. S. Jalilova, F. Xaydarov, N. Xalilova. Kasb psixologiyasi. – o‘quv qo‘llanma., T., 2010.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O‘zbekiston», 2011. – 410 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.Q. Kasb psixologiyasi. Toshkent 2003.
2. G‘oziyev E.G‘. Kasb va shaxs. Toshkent 1996.
3. G‘oziyev E.G‘. va b. Kasb psixologiya kursidan ma‘ruzalar matni. Toshkent 2000.
4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. Toshkent 2010.
5. Kasbiy psixologiya. Darslik. R.X. Dushanov, Yo.A. Farfiev. T., 2014.
6. Karimova V. Kasbiy psixologiya. T. "Fan va texnologiyalar", 2012.

INTERNET SAYTLAR

1. www.edu.uz
2. www.ziyonet.uz
3. <http://www.lib.psichology.ru>
4. <http://www.lib.psichology.rin.ru>

1-mavzu: Kasbiy psixologiyaning nazariy va konseptual asoslari.

Reja:

1. Kasbiy psixologiyaning tabiiy ilmiy asoslari.
2. Kasbiy psixologiyaning o'rganish obyekti va predmeti.
3. Kasbga yo'llash tizimi va uning asosiy qismlari

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, jamiyatimizning barcha sohalarini qatori, ma'naviy-mafkuraviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mustaqil taraqqiyot yillarida to'plangan tajriba, dunyo jamoatchiligi «o'zbek modeli» deya e'tirof etgan o'zimizga mos va o'ziga xos rivojlanish yo'li, kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarish va yangilanishlar yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi davrda iqtisodiyot hamda madaniyatni tez va uyg'un rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni va siyosiy ustqurmani takomillashtirish, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va oliy boyligi bo'lmish insonning o'zini yanada kamol toptirish manfaatlari yosh avlodlarga ta'lim va tarbiya berishga yangicha, yanada keng ko'lamda yondashishni talab qiladi. Psixologiya

Kasb psixologiyasi - bu shaxsda kasbiy maqsadlarni tanlash, kasb egallash, mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga doir qonuniyatlarni, shuningdek, shaxsning mehnatga layoqatlilik darajalarini o'rganuvchi psixologiya fanidir

Kasb – insonni jamiyat tomonidan tan olinishidir

Men yoshlarimizga, mening bolalarimga qarata, o'rganishdan hech qachon charchamanglar, deb aytmoqchiman. O'rganish, intilish hech qachon ayb sanalmaydi. Nimanidir bilmasang, uni o'rganish zarur. Avvalambor, endi hayotga kirib kelayotgan yoshlarga nima lozim? O'rganish, o'rganish va yana bir bor o'rganish kerak. Kasb o'rgangan, ilm

fani uchun eng murakkab muammolar qatoriga uning asosiy kategoriyalari bo'lgan shaxs, motivatsiya, faoliyat, muomala, ongning tavsifi, ularning takomillashuv bosqichlari, xususiyatlari, aks ettirish imkoniyatlari, hukm surish qonuniyatlari va mexanizmlari bo'yicha aniq, mezoniy, tatbiqiy fikrlarni bildirish masalalari va vazifalari kiradi. Shu munosabat bilan kasbiy psixologiya umumiy psixologiya faniga kirish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, tinglovchilarni,

avvalo, shaxs psixologiyasi, uning faoliyati va jamoadagi munosabati haqida, uni tadqiq qilish metodlari to'g'risida, ong va psixika, asosiy psixik jarayonlarning qonuniyatlari haqida tegishli bilimlardan xabardor etgan holda, ularni professional ishga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlashdan iborat aniq vazifani o'z zimmasiga oladi.

Insonlarda kasbiy maqsad, kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy shakllanish, kasb tanlash va uni o'zgartirish sabablari haqida, kasbiy rivojlanish bosqichlari haqida to'liq tasavvurni bermaydi. Ular esa o'z navbatida kasb psixologiyasining predmetini tashkil qiladi. Aynan kasb tanlash borasidagi ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, ongli kasb tanlash, kasbiy inqiroz va qiyinchiliklarni yengib o'tishda mazkur fanga doir bilimlarni bilish talab qilinadi. Shu bois, hozirgi kunda kasb psixologiyasiga doir bilimlarga zarurat sezilmoqda.

Keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra psixologiya - psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi. Shuningdek, psixologiya inson faoliyati va xulq-atvorida ob'ektiv reallikning aks etishi qonuniyatlari haqidagi fan. Psixologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va o'rganilgan nazariy manbalar, shuningdek fanlararo o'zaro integratsiya jarayonlari psixologiya tarmog'ida ko'pgina o'z predmetiga ega bulgan soxalarni ajralib chiqishiga turtki bo'ldi. Ular jumlasiga kasb psixologiyasini kiritishimiz mumkin.

Kasb psixologiyasining predmeti - shaxsning kasbiy shakllanish mexanizmi, qonuniyatlari xamda psixologik xususiyatlarini o'rganishdir.

Bundan kelib chiqqan xolda kasb psixologiyasi - bu shaxsda kasbiy maqsadlarni tanlash,

kasb egallash, mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga doir qonuniyatlarni, shuningdek, shaxsning mehnatga layoqatlilik darajalarini o'rganuvchi psixologiya fanining soxalaridan biridir, - deb aytish mumkin.

Kasb psixologiyasining ob'ekti - shaxsning kasb bilan xamkorligi yoki o'zaro bog'likligidan iborat. Kasb psixologiyasi psixologiya fanining mustaqil soxasi bulib, u o'zining tadqiqot predmeta va ob'ektiga ega. Shu jixatdan aynan u mehnat psixologiyasi, muxandislik psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlarining ob'ekti va predmetidan farqlanadi.

Kasbiy individuallikning ijtimoiy-psixologik asoslari haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalambor, bu tarkibga professional rollar va shaxsning jamiyatda egallagan professional nufuzi kiritiladi. Ushbu tarkibning boshqa bir asosiy komponenti – bu kasbiy-shaxsiy sifatlar namoyon bo'lishi hisoblanib, ular orasida ijtimoiy-psixologik xarakter kasb etadigan va shaxslararo (ijtimoiy) munosabatlar tizimida namoyon bo'ladigan: muloqotga moyillik, mas'uliyat, xayrixohlik, talabchanlik, muvozanatlilik, prinsipiiallik, o'zini o'zi nazorat qilish va boshqara olish kabi qator xislatlar ustuvorlik qiladi.

Kasb – tiriklik va tirikchilik manbai

Ma'lumki birinchi prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan ilgari surilgan yuksak

Kasb – tirik organizimdir

ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga qo'yiladigan talablar majmuining tarkibiy qismi sifatida kasbiy mahorat belgilangan.

Xar qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha kurinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan xar bir xarakat ma'lum narsaga – predmetga qartilgani uchun xam, faoliyat predmetli xarakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi.

Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli xarakatlarni aynan nimalarga yo'naltirilganligiga qarab, avvalo tashqi va ichki kasb faoliyati farqlanadi. Tashqi kasbiy faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muxit va undagi narsa va xodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi.

Hozirgi kunda yoshlarni kasb va kasbga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan barkamol avlodni kasblar buyicha ongli ravishda tanlashga tayyorlash.

Kasb psixologiyasining predmeti - shaxsning kasbiy shakllanish mexanizmi, qonuniyatlari xamda psixologik xususiyatlarini o'rganishdir

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga yo'nallash yoshlarning kasbni erkin va mustahkam

tanlashlari uchun mustaqil zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu shaxsning ma'naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya'ni birga ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayoni uzviylikda amalga oshiriladi.

K.Farrenning shaxs yashovchanlik sifatlariga quyidagi ko'rsatkichlarni kiritadi:

- Shaxs xususiyatlariga munosib kasb tanlash.
- Bajarayotgan ishga qo'yilgan talablarga yuqori darajada tayyorlik.
- Hayoti davomida talim olish va o'rganishga tayyorlik.
- Madaniyligi, o'zga kishilar qadr-qimmatini, farqlarini qabul qila bilish.
- Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilish.

Kasb bu – insonga ma'lum bir talablar qo'yuvchi faoliyat turidir

- Bir necha sohalarda kasbiy mahoratni namoyish qila olishi.
- Yangi loyihalar taqdim qilish tashabbusiga ega bo'lish.
- Ishda hamkasblar bilan hamkorlikda ishlash

ko'nikmasiga egaligi.

Kasb o'zi nima? Degan savol tugiladi.

Kasb tanlashga yo'llash (proforentatsiya) – termini: yo'naltirish, ajrata bilish, belgilash


xayotda to'g'ri yo'lni tanlash degan ma'noni bildiradi.

Kasb tanlashga yo'llash tushunchasi – o'quvchi yoshlarni ongli to'g'ri va erkin kasb tanlashga, kasblar, hunarlarning mehnat yo'lini tug'ri belgilashga qaratilgan muayyan pedagogik ishni ifoda etadi.

Kasb so'zining ma'nosi – Insonlarning hunari, faoliyat turi va xayot kechirishlari uchun manba xizmatini o'tadigan mashg'ulotni bildiradi.

Kasbga yo'naltirish ishlarini moxiyati Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashda uni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning shart-sharoitidir.

Kasbga yo'naltirish – O'quvchining o'z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida barkamol kamolotga ketishining pedagogik jarayoni bo'lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy bog'liq bo'lgan tafakkuri va hatti – harakatlarini ongli ravishda o'z-o'zini boshqaruvchidir.



1-jadval

Kasb va kasbga yo'naltirishning nazariy shart – sharoitlari deganda, kasb va kasbga yo'naltirish faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan turli xil qarashlar majmuasi, g'oyalari va tasavvurlar yig'indisidir. Bu yoshlarning shaxsiy qiziqishlari, layoqati va qobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo'llashdir. (1-jadvalga qarang)

Muammoning muhimligi, yoshlarni kasbga yo'naltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko'plab mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, shiforkorlar, iqtisodchilar, sotsiologlar va g'oyat xilma – xil sohalarida ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu borada ko'plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to'g'ri va kompleks tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi, albatta. (1-jadvalga qarang).

Shaxsda professionalizmni rivojlantirishning kompleks modeli

2-jadval

T/r	Kompetentlik olami va shaxs sifatlari	T/r	Kompetensiyalar tavsifi
Yuqori darajadagi kompetentlik			
1.	Umumiy his etish	1.	<i>O'zgarishlarni boshqarish</i> – rahbardagi tashkilotning samarali ishlashini oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy o'zgarishlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlay

			olish, tashkiliy o'zgarishlarni tatbiq qilish, homiylik qilish hamda ularning muvaffaqiyatli borishida boshqalarga yordam berish qobiliyati.
		2.	<i>Qo'l ostidagilarning imkoniyatlarini rivojlantirish</i> – rahbardagi mas'uliyatni his etish, komandada ishlash, xodimlarning imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam berish xususiyati.
2.	Tashqi shart-sharoitlar haqida xabardorlik	3.	<i>Strategik fikrlash</i> – rahbarning bozor va sanoatdagi tendensiya, mavjud va kutilayotgan (ichki va tashqi) xaridorlar, shuningdek, tashkilotning raqobatchilar bilan solishtirganda kuchli va ojiz tomonlarini ko'rib chiqqan holda korxonalar raqobatbardoshligini tahlil qila olish qobiliyati.
O'rtacha darajadagi kompetentlik			
3.	Ijodiy tafakkur	4.	<i>Istiqbolli fikrlash</i> – bu rahbardagi vaziyatning natijasi, ochilmagan qirralarini topa olish va shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatga tayyor turish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ko'rish kompetensiyasi.
		5.	<i>Tushuntiruvchi fikrlash</i> – rahbardagi yaxlit, mavhum va nazariy fikrlash yordamida samarali echimni topa bilish qobiliyati.
4.	Rejalashtirish va baho	6.	<i>Natijani mo'ljalga olish</i> – rahbarning o'zi yoki komandasi ishidan kutilayotgan natijaga butun e'tiborini qaratishi, murakkab, lekin erishsa bo'ladigan maqsadlarni oldiga qo'yishi, butun kuchini shunga sarflash, maqsadga va hatto undan ortig'iga erishish xususiyati.
5.	Fuqarolarning talab va ehtiyojlariga yo'nalganlik	7.	<i>Diagnostik ma'lumotlarni yig'ish</i> – boshqaruvchining vaziyatga aniqlik kiritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni bilish; bunday ma'lumotlarni tegishli manbalar yordamida qidirishni amalga oshira olish (savolni shunday berish kerakki, ma'lumotni bo'lishishni xohlamagan inson ham javob berganini o'zi bilmay qolsin) kompetensiyasi.
6.	Boshqaruv nazorati va o'zaro moslik	8.	<i>Maqsadning qo'yilishi</i> – rahbardagi tashkilotning biznes maqsadlariga mos keluvchi vazifalarini ishlab chiqa bilish va uni boshqalarga etkazib bera olish kompetensiyasi.
		9.	<i>Ishonchli bo'lish</i> – boshqaruvchining o'zini mas'uliyatli, ishonchga arziydigan shaxs ekanligini ko'rsata olish qobiliyati.
7.	Moliyaviy boshqaruv	10.	<i>Tadbirkorlik qobiliyati</i> – rahbarning foydali imkoniyatlarni qidirish, topish va biznes maqsadiga erishishda tavakkalchilikka tayyor turish qobiliyati.
T/r	Kompetentlik olami va shaxs sifatleri	T/r	Kompetensiyalar tavsifi
8.	Texnologiyalarni boshqarish	11.	<i>Texnika sohasidagi kompetensiya</i> – rahbarning texnika sohasidagi chuqur bilim va ko'nikmalarini ko'rsata olish qobiliyati.
		12.	<i>Yangiliklarni madaniylashtirish</i> – rahbardagi yangi, mukammal uslub, tovar, algoritim yoki texnologiyalarning ishlab chiqarilishi va kirib kelishiga homiylik qilish va qo'llab-quvvatlash qobiliyati.

9.	Xodimlarni boshqarish	13.	<i>Motivatsion qo'llab-quvvatlash</i> – rahbardagi xodimlarning o'z ishiga sadoqatini mustahkamlay olish kompetensiyasi.
Quyi darajadagi kompetentlik			
10.	Turli-tuman soha xodimlari jamoasini boshqarish	14.	<i>Xodimlarga vakolatlarni taqsimlash</i> – rahbarning o'z qo'l ostidagilarga qiyin masalalarni hal etish, munozarali savollarni echish va maqsadlar yo'lida muvaffaqiyatga erishishlari uchun tanlov erkinligini berish kompetensiyasi.
11.	Nizolarni boshqarish	15.	<i>Stresslarni boshqarish</i> – rahbarning bosim o'tkazilganda va ziddiyatli vaziyatlarda o'zini qo'lga ola bilish xususiyati.
		16.	<i>Analitik fikrlash</i> – rahbardagi mantiqiy, tizimli, ketma-ket yondashuvlardan foydalangan holda muammoni hal eta olish qobiliyati.
12.	Muzokaralarni idora etish va unga ta'sir ko'rsatish	17.	<i>Mijozga yondashuv</i> – rahbarning ichki va tashqi mijozning talabini qondirishdan manfaatdor ekanligini ko'rsata olish xususiyati.
		18.	<i>Muloqotga e'tibor</i> – rahbardagi kerakli xodimlarning ma'lumotlar bilan ta'minlanish jarayonini nazorat qilib bora olish xususiyati.
		19.	<i>Ishontiruvchi muloqot</i> – rahbardagi kerakli odamlarni ishontirish uchun ma'lumotlarni (og'zaki yoki yozma) etkazib berishni tashkil eta olish xususiyati.
13.	Komandani shakllantirish	20.	<i>Komandada ishlash ko'nikmalarini tarbiyalash</i> – komanda liderining guruhni birgalikda ishlashga o'rgatishi orqali o'z qiziqishi, ko'nikmasi va muvaffaqiyatini namoyish eta olish kompetensiyasi.
Kompetentlikning asoslari			
14.	Og'zaki fikr almashinuvi	21.	<i>Og'zaki muloqot</i> – rahbarning xodimlari bilan birgalikda faoliyat yuritayotganda va suhbat paytida o'z fikrlarini aniq ifoda eta olish qobiliyati.
15.	Yozma fikr almashinuvi	22.	<i>Yozma muloqot</i> – bu rahbardagi ish bilan bog'liq yozishmalarda fikrini tushunarli qilib yoza olish qobiliyati.
16.	Muammolarni echish	23.	<i>Vijdonlilik</i> – rahbardagi o'zining va o'zganing ishi to'liq bajarilgani, ma'lumotlar esa tekshirilganiga ishonch hosil qilish, taqdimot (prezentatsiya) va konferensiyalarga qattiq tayyorgarlik ko'rish, boshqa hamkasblar bilan birgalikda shartnomalar hamda majburiyatlar to'liq bajarilayotganini kuzatib borish kompetensiyasi.
17.	Yetakchilik	24.	<i>Tashabbuskorlik</i> – rahbardagi tegishli ko'rsatmalar olish yoki kuchli zarurat tug'ilgunga qadar nima qilish kerakligini ko'ra olish qobiliyati.
T/r	Kompetentlik olami va shaxs sifatlari	T/r	Kompetensiyalar tavsifi
18.	Shaxslararo munosabatlarga kirisha olish malakasi	25.	<i>Hamkorlik o'rnatish</i> – rahbarning ma'lumot etkazib bera oladigan, ko'maklashadigan odamlar (korxonada ichidagi va shuningdek, korxonada tashqarisidagilar) bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash kompetensiyasi.
19.	O'zini o'zi boshqarish	26.	<i>O'ziga ishonch</i> – rahbarning o'z g'oyalari va muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlariga ishonchi hamda qarama-qarshi mavqei (pozitsiya)dagi shaxs oldida mustaqil lavozimni egallashga tayyor turish xususiyati.

20.	Qayishqoqlik	27.	<i>Boshqalarni tushuna olish</i> – rahbardagi boshqalarning munosabatlari va his-tuyg'ularini oldindan bilish, seza olish, shuningdek, empatik ravishda fikrlarini boshqalarga ma'lum qilish xususiyati.
		28.	<i>Moslashuvchan, qayishqoq bo'lish</i> – bu rahbardagi ishning yangicha usullariga moslashuvchanlik, o'zining sevimli ishlash uslubini zamonaviylashtirishga tayyor turish xususiyati.
21.	Qat'iylik	29.	<i>Qat'iyatlilik</i> – bu boshqaruvchidagi murakkab qarorlarni tezlikda qabul qila olish xususiyati.
22.	Sohaga doir faoliyatdagi kompetentlik	30.	<i>Atrofdagilarga ta'sir o'tkazish</i> – rahbarning o'z g'oyalari, maqsadlari, loyihalari va qarorlariga hamfikir va qo'llab-quvvatlovchilarni topa olish qobiliyati.
		31.	<i>Mehnat sifatini boshqarish</i> – rahbardagi o'zi va qo'l ostidagilarning butun faoliyati mas'uliyatini o'z zimasi ga ola bilish, aniq maqsadlar va istiqbollarni belgilash xususiyati.

Kasb psixologiyasi shaxsning kasbiy jixatdan shakllanishini o'rganadi. Bunda shaxs rivojlanishi kasbiy shakllanishi sifatida ko'rib chiqiladi. Kasb psixologiyasi-mexnat psixologiyasining kasblarni psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan ko'yiladigan psixologik talablarni 5o'ganish xamda ilmiy taxlil qilish bilan shug'ullanuvchi bo'limidan iborat.

Mutaxassislikning turli ijtimoiy - madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarida kasbiy xulq muxim axamiyatga ega. Shaxsning psixomotor motivatsion va kognitiv sifatlariga e'tibor berilgan xolda kasbiy yutuqlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Inson va uning kasbi o'rtasidagi, shuningdek, kasbiy vazifasi va kasblar olami tuzilmasi o'rtasidagi munosabatlar taxlil qilinadi. Kasb psixologiyasi inson uchun kasbiy faoliyatning axamiyatini o'rganib, shaxsning kasbiy shakllanishini tadkik etadi, shuningdek, yoshlikda kasbiy tasavvurlarni rivojlanishini, kasbiy yetuklik determinantlarini ayniqsa, kasbga kirishish va uning xayotga bo'lgan ta'sirini o'rganadi.

Kasb psixologiyasining muxim aspektlari - bu kasbiy faoliyatning taxlili, kasbiy maksadlar, vaziyatlar, qiyinchiliklarini o'rganishi, kasbiy talablarni aniqlashdan iborat. Kasb psixologiyasining predmetining ta'rifiga asoslanib, uning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

1. Shaxsning kasbiy shakllanishi asosiy tushunchalari va tadqiqot tamoyillarini, o'zining faoliyatiga tegishli uslublarini asoslash;

2. Kasb psixologiyasi predmetiga mos bo'lgan tadqiqot usullarini ishlab chiqish va o'ziga xos uslublarini tuzish;

3. Kasblarning tavsifiy tuzilmasini psixologik taxlil qilish, kasblarni proektlash uslublari va tamoyillarini ishlab chiqish;

4. Shaxsning kasbiy shakllanishi qonuniyatlari va psixologik mexanizmlarini tadqiq etish. Bu jarayon dinamikasini determinantlovchi omillarni aniqlash, kasbiy shakllanishdagi inqirozlarni taxlil etish;

5. Mutaxassislikning kasbiy desturuksiyalarini, ya'ni shaxsning deformatsiyasi, kasbiy faoliyatga bo'lgan layoqatini pasayishi va boshqalar;

6. Shaxsning kasbiy rivojlanish monitoringni yuritish, bu borada psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish xamda mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazish;

7. Shaxsning kasbiy shakllanishiga psixologik yordam xamda insonning kasbiy xayoti davomida yordam berish, qo'llab-quvvatlash;

8. Kasbiy maslaxat, kasbiy ma'lumotning shaxsiy rivojlantiruvchi psixologik jixatlari, attestatsiyadan o'tkazish, kasbiy rivojlanish psixotexnikasi, kasbiy korreksiya va reabilitatsiya, kasbdan ketishga psixologik tayyorgarlik borasidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Kasb psixologiyasining metodologik asosi - bu shaxsning kasbiy shakllanish

konsepsiyasidir. Mazkur konsepsiyaning asosiy mohiyati shundaki, kasb tanlash jarayonida 'shaxs miqdor va sifat jihatidan rivojlanib boradi ya'ni ular o'z yo'nalishini boyitib boradi, shu orqali tajriba va salohiyat shakllanadi. Kasbiy shakllanish jarayonida inqirozlar, to'qnashuvlar, destruktiv o'zgarishlar bo'lib o'tishi mumkin. Bu jarayonning tezligi biologik va ijtimoiy omillarga, shuningdek tasodifiy xolatlarga, xayotiy muxim kasbiy voqealarga bog'lik bo'ladi.

Kasbiy shakllanish - bu shaxs rivojlanishining katta bir qismini o'z ichiga olib, u kasbiy maqsadlarning tarkib topishidan boshlab, kasbiy xayotning tugallangungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu geteroxron jarayondan optatsiya, ya'ni kasbiy ta'lim va tayyorgarlik, profadaptatsiya, professionalizm xamda maxorat bosqichlarini ajratish mumkin.

Reja

1. Kirish.

2. Kasbiy psixologiyaning tarixi.

3. Kasbiy psixologiyaning muhim va xarakterli muammolari.

Kasbiy psixologiya fani nimani o'rgatadi

Hozirgi davrda iqtisodiyot hamda madaniyatni tez va uyg'un rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni va siyosiy ustqurmani takomillashtirish, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va oliy boyligi bo'lmish insonning o'zini yanada kamol toptirish manfaatlari yosh avlodlarga ta'lim-tarbiya berishga, shuningdek huquqiy madaniyatga yangicha, yana ham keng ko'lamda yondashishni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalari va dasturlari qayta ishlab chiqildi. Shu munosabat bilan, umumiy psixologiya, bir tomondan, o'ziga xos ravishda kasbiy psixologiya faniga kirish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, talabalarni avvalo shaxs psixologiyasi, uning faoliyati va jamiyatga munosabati haqida, uni tadqiq etish usullari, asosiy psixik jarayonlarning qonuniyatlari haqida tegishli bilimlardan xabardor etgan holda, ularni o'z kasbiga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlashdan iborat aniq vazifani zimmasiga oladi. Bu bilimlarni egallamasdan turib, tinglovchilarning o'qishi va mehnat faoliyatiga, profilaktik ta'lim va tarbiya berish, unga rahbarlik qilishga layoqatli professional mutaxassisni muvaffaqiyatli tarzda voyaga etkazib bo'lmaydi.

Kasbiy psixologiyada psixikani o'rganishning muayyan ilmiy vazifalariga, o'zining aniq tadqiqot mavzuiga egadir. Psixologiya ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektlari bo'lgan sub'ektning ichki, psixik holatiga tashqi ta'sirlar natijasida ro'y beradigan o'zgarishlar jarayoni qanday kechishini o'rganadi. Psixika faolligi bilan ajralib turadi. Uning zarur jihati mayllar, eng maqbul echimni faol izlash, ehtimoli tutilgan xatti-harakatlar variantlarini xayoldan o'tkazishdan iboratdir. Psixik in'ikos aynan o'zini aks ettiradigan, sust narsa emas, balki u harakatlarning turli variantlarini izlash, tanlash, solishtirish bilan bog'liq bo'lgan shaxs faoliyatining zarur jihati hisoblanadi. Psixikaning mavjudligi izchil harakat dasturini tuzish, oldiniga ichki rejada ish bajarish (masalan, xulq-atvorning ehtimoliy variantlarini tanlash) va shundan keyingina harakat qilish imkonini beradi.

Biologik evolyusiyalar jarayonida kishi psixikasi xulq-atvorni boshqarishning alohida apparati sifatida paydo bo'lib, sifat jihatdan o'zgarib ketadi. Odamlar ijtimoiy hayot qonunlarining ta'siri ostida shaxslar bo'lib etishadi, ularning har birida ularni voyaga etkazgan tarixiy sharoitning izlari saqlanib qolgan bo'ladi. Aslini olganda, kishining xulq-atvori, xatti-harakatlari ham shaxsiy xususiyat kasb etadi.

Ta'kidlanganlarning hammasi endilikda kasbiy psixologiya fanida yuqorida berilgan ta'rifni bir qadar aniqlashtirish imkonini beradi: psixologiya voqelikning miyadagi obrazi sifatida sodir bo'luvchi psixik faktlar, qonuniyatlari va faoliyat mexanizmlari to'g'risidagi fandir. Psixikaning odamga xos bo'lgan oliy darajasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning oliy darajasi, uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib, kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan (til yordamida) doimiy muloqot qilish jarayonida shakllanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi.

Ongning tuzilishi, uning muhim psixologik ta'rif qanday? Ongning tuzilishiga berilgan birinchi ta'rif uning nomidan kelib chiqqan, ya'ni ong anglash deganidir. Ikkinchi ta'rif – «Men» va «Men emas» degan tushunchalarni anglash. Uchinchi ta'rif: odamning maqsadni ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashdir. To'rtinchi ta'rif: uning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir. Ongning yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha o'ziga xos jihatlari shakllanishi va namoyon bo'lishining muqarrar sharti til hisoblanadi.

Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdir. Ongsizlik kishining o'zini tuta olmaydigan qilib qo'yadigan ta'sirlar bilan bog'liq psixik jarayonlar, harakatlar va holatlar yig'indisidir.

Ongsizlikda anglanishdan farqli o'laroq, kishi o'zi bajarayotgan harakatlarni maqsadga muvofiq tarzda nazorat qila olmaydi, ularning natijasini baholay olishi ham amri mahol. Ongsizlikka quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin: uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko'rish); sezilmaydigan, lekin haqiqatan ham ta'sir ko'rsatadigan qo'zg'atuvchilarga «subsensory» va «subretseptiv» javob reaksiyalari; oldinlari ongli harakat bo'lib, lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga ko'ra endilikda anglanilmaydigan bo'lib qolgan harakatlar; faoliyatga undovchi, ammo maqsad hissidan anglanilmaydigan ayrim mayllar va hokazo. Ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida ro'y beradigan ba'zi bir patologik hodisalarni – alahlash, yo'q narsalarning ko'zga ko'rinishi va shu kabilarni ham kiritish mumkin. SHularga asoslanib, ongsizlikni ancha qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixiksigam tenglashtirish noto'g'ri bo'lar edi. Ongsizlik – kishining xuddi ong kabi o'ziga xos psixik ko'rinishi. U kishi miyasida borliqning etarli darajada bir xil bo'lmagan, qisman aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan.¹

Xulosa qilib aytganda, psixik aks ettirish qanday paydo bo'lgani, rivojlangani, evolyusiya pillapoyasining turli bosqichlarida qanday o'zgarib borгани, kishi ongi qanday paydo bo'lgani va shakllanganini tushunib olgandan keyingina psixikaning eng muhim qonuniyatlarini ochib berish va jiddiy psixik faktlarni aniqlash mumkin bo'ladi. SHunday qilib, kasbiy psixologiya fani psixikaning paydo bo'lishi, psixik jarayonlarning taraqqiyot qonuniyatlari va inson bilan tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadi. Odamning psixik hayoti murakkab va ko'pqirralidir. U faqat tashqi muhitning ta'sirlarigagina bog'liq bo'lib qolmay, balki yuksak nerv faoliyatidagi miya ishining murakkab nerv-fiziologik qonuniyatlariga ham bo'ysunadi. Psixik jarayonlar va shaxsning xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, hamisha bir-biri bilan turlicha bog'langan va bir-biriga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Muayyan bir vaqtda hech qachon faqat bittagina psixik jarayon ro'y bermaydi yoki shaxsning faqat bittagina xususiyati namoyon bo'lib qolmaydi. Masalan: idrok etish jarayoni sezgi jarayoni bilan ham, xayol jarayoni bilan ham, tafakkur va xotira jarayoni bilan ham chambarchas bog'langan bo'ladi (O'qishi qiyin bo'lgan xat).

Kasbiy psixologiyaning asosiy vazifasi mutaxassisning psixik faoliyati qonuniyatlarini o'rganishdir.

Kasbiy psixologiya psixik hodisalarning odam hayoti va faoliyatining ob'ektiv shart-sharoitlariga bog'liq ekanligini: masalan, hayot va tarbiya sharoitlarining ta'siri bilan o'smir xarakterining qanday vujudga kelishini, unda mehnatsevarlik, o'qishga vijdonan yondoshish va shu kabilarning qanday tarkib topishini o'rganib boradi.

Hozirgi zamon psixologiyasi etishib kelayotgan yosh avlodda keng dunyoqarashni va milliy qadriyatlarimizni tashkil topishini va ularni psixologik bilimlar bilan mustahkamlashni ta'minlaydi.

Differensial - diagnostik yo'nalish

Shaxsning kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlash omillariga, kasbga ta'sir ko'rsatuvchi individual psixologik xususiyatlarga va kasbga qo'yilgan talablarga asosiy e'tibor qaratiladi.

Psixoanalitik yo'nalish

Bu yo'nalish vakillari kasbiy rivojlanishning psixodinamik jihatlarini tahlil qilish bilan shug'ullandilar. Ular kasb tanlash va kasbiy rivojlanish asosida tabiiy ehtiyojlardan tortib kompleks psixodinamik mexanizmlar va shaxs tuzilish instansiyalarigacha bo'lgan turli xil ehtiyojlar yotadi deb hisobladilar.

Qaror qabul qilish nazariyasi

Kasb tanlash jarayonini o'rganish uchun yo'nalganlik ustanovkalarini tadqiq etishga e'tibor qaratdilar. Ularning qarashlariga ko'ra, har qanday kasbni tanlash kasbiy alternativa va qaror qabul qilishga yo'naltirilgan tizimdan iboratdir deyildi.

¹ T. Melchert. *Foundations of Professional psychology*. 2011.

Taraqqiyot nazariyasi yo'nalishi

Rivojlanish nazariyasiga asoslanib ish tutishgan. Bu yo'nalishning izlanishlari akademik psixologik xarakterga ega bo'lib, ilk izlanishlar o'spirinlarni kasb izlashi bilan bog'liq xususiyatlarini asoslashga qaratilgan edi.

Tipologik yo'nalish vakillari

Kasbiy faoliyatni tipologiyalashtirishga e'tibor qaratadilar. Ular shaxsning kompleks mo'ljali olishga yo'naltirilgan bir qator tiplarini ajratishga erishdi: 1. Realistik orientatsiya; 2. Intellektual orientatsiya; 3) Ijtimoiy orientatsiya; 4) Konvensional orientatsiya; 5) Tadbirkorlik orientatsiyasi (1-rasmga qarang).



1-rasm

Psixikaning ayrim umumiy qonunlari to'g'risida tasavvur hosil qilish bilan birga, ba'zi eng muhim qonuniyatlar yuzasidan shaxsiy mulohazalarimizni bildiramiz, chunki ular psixikani bundan keyin tadqiq etishga negiz bo'lib xizmat qiladi.

1. Optimal qaror qabul qilishda, axborotlarni ishlab chiqishda, ularni egallashda psixik jarayonlar, fiziologik organlar imkoniyatining kuchayishi.

2. Psixikaning ijtimoiylashuvi ortishi.

3. Yaxlit psixik faoliyatda konstruktorlik va ilmiy tadqiqot faoliyatlari vaznining ko'payishi.

4. Bolalarda psixik rivojlanishning tezlashuvi va uning negizida ularda ijtimoiy yetuklikning jadallashuvi.

5. Inson ontogenezida yakka shaxs psixikasida dinamik o'zgarishlarning vazni, ko'lami kengayishi.

6. Ijtimoiy turmush sharoiti madaniy va moddiy jihatlar yaxshilanishi natijasida aholining ruhiy umrboqiyli va faoliyat faolligi ko'tarilishi.

7. Ijtimoiy tizimda inson rivojlanishining sistema yaratuvchi omil sifatida jamoa rolining ortib borishi.

8. Alohida odamlar psixikasi rivojlanish yo'nalishida ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida ijtimoiy fikr rolining kuchayishi.

9. Ongning ijtimoiy faolligini rag'batlantirishda siyosiy va mafkuraviy qadriyatlar rolining

ortishi.

10. Rahbarlik faoliyati samaradorligini orttirish maqsadida rahbarga jamoaning ijtimoiy-psixologik ta'sir o'tkazish rolining mukammallashuvi.

11. Qadimgi an'analar, rasm-rusumlar rolining pasayishi tufayli yangilarining roli yuksalishi.

12. Odamlar xulq-atvorini boshqaruvning ijtimoiy-psixologik mexanizmi tarzida shaxsiy namuna (ibrat) va avtoritet (obro') rolining kuchayib borishi. Yuqoridagi psixikaning qonuniyatlari yaxlit sistema sifatida uning barcha qirralari va rang-barangligini tavsiflash imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun psixikaning qonun va qonuniyatlarini tadqiq etishda eng muhim muammo sifatida uni ta'sir o'tkazish harakati mexanizmlarini o'rganishni ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

*Psixik jarayonlar miyaning alohida hossasi bo'lib, faqat miyaning faoliyatiga bog'liq holda ro'y beradi. Lekin psixikani materiyaning mahsuli deb bilish tushunchasini vulgar materializm namoyondalari targ'ib qilgan soxta (u ham mexanistik) tushunchadan farq qilish kerak. Mexanist va vulgar materialistlar tabiatdagi barcha hodisalarni – kimyoviy, biologik, fiziologik hodisalarni, shuningdek, psixologik hodisalarni ham materiya zarrachalarining fazoda faqat mexanik suratda siljishdan iborat deb bilar edilar. Ular psixik jarayonlarni fiziologik jarayonlardan iborat bir narsa deb tushunar, psixik jarayonlar bilan fiziologik protsessning ikkovi bor narsa deb hisoblar edilar. Masalan: vulgar materializmning namoyondalari (Byuxner, Moleshott, Faxz) jigardan o't chiqib turgani singari miyadan ham fikr chiqib turadi, deb bilar edilar. Mexanistlar nazarida, psixik hodisa fiziologik hodisaning o'zi-yu, uni odam faqat ichki, sub'ektiv tomondan idrok etar emish. Dialektik materializm nuqtai nazaridan psixika, materiyaning mexanik harakati emas, balki harakatdagi materiyaning alohida hossasidir. Shuningdek, psixik protsess moddiy protsessga bog'liq, degan so'zdan psixika, ong-fiziologik jarayonlardan boshqa bir narsa emas, degan ma'no aslo chiqmaydi. Fikr, ong – voqelikning sifat jihatidan boshqacha, o'ziga xos bir hodisasidir.*²

Psixika, ong – faqat yuksak darajada tashkil topgan materiyaning hossasidir. Hayvonlar bilan odamlar organizmiga xos bo'lgan nerv sistemasi ana shunday yuksak darajada tashkil topgan materiyadir. Psixikaning bevosita moddiy substrati (asosi) – odamning bosh miyasidir. Odamning psixikasi, ongi – bosh miya funksiyasidir. Psixika, ong materiya taraqqiyotining faqat yuksak bosqichlarida paydo bo'ladi. Materiya taraqqiy qilib borgan sari turli qonuniyatlar va hossalari - mexanik, fizik, ximiyaviy, biologik va boshqa qonuniyat va hossalari paydo bo'ladi va taraqqiy qiladi, organik olam taraqqiyotining eng yuksak bosqichidagina materiyaning psixika, sezgi, ong, tafakkur, deb ataladigan alohida hossalari vujudga keladi olam taraqqiyoti tarixida psixika, ong, bo'lmagan davr o'tgan.

*Psixik hodisani, idealistlar ta'lim bergani singari, fiziologik hodisadan ajratib qo'yish yaramaganidek, psixik hodisani, vulgar materialistlari ta'lim bergani singari, fizik hodisaga tenglashtirish ham yaramaydi. Psixik hodisa bilan fiziologik hodisa bir butun bo'lib bog'langandir. Buning ma'nosi shuki, psixologik va fiziologik hodisa sifat jihatidan boshqa-boshqa hodisalardir, ammo fiziologik hodisa bo'lmasa, ya'ni nerv sistemasi ishlamasa, psixologik hodisa bo'lishi mumkin emas; shunday qilib, psixologik hodisa ikkilamchi hodisa hisoblanadi. Psixik hodisalar nechog'lik murakkab bo'lmasin, ularni moddiy nerv-fiziologik negizidan ayirib o'rganish yaramaydi. Bunday ayirish idealizmga olib borishi mumkin, xolos. Shu sababli psixikani o'rganishda psixik hayotdagi hodisa va faktlarni ilmiy asosda tushunib olish uchun psixikaning moddiy negizini, ya'ni bosh miya va uning faoliyatini, psixik jarayonlarning nerv-fiziologik mexanizmlarini bilib olish kerak.*³

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, **kompetensiya** – samarali ish jarayonining asosida yotgan insonlarning o'zgaruvchan kayfiyat va o'zini tutish holatining o'lchanishidir. Misol uchun, kasbiy

² T.Melchert. *Fondations of Professional psychology*. 2011.

³ T. Melchert. *Fondations of Professional psychology*. 2011.

yetuklik darajasidagi mutaxassisning «samarali qaror qabul qilish» kompetensiyasi quyidagi xulq turlariga **klaster** shaklida bo'linishi mumkin:

- a) zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash;
- b) mavjud alternativ imkoniyatlarni baholash;
- v) yechimni ishlab chiqish;
- g) mavjud ma'lumotlardan mantiqiy xulosalarning kelib chiqishi va hokazo.


Fikrimizcha, **kompetensiya** – bu baholanishi mumkin bo'lgan, kuzatilayotgan xatti-harakatning klasteridir. Kasbiy kompetentlikning bunday klasteri esa uch xil:

- **faoliyatni;**
- **shaxslilikni;**
- **motivasiyani** tashkil qiluvchi kompetensiyalar majmuida ko'rinadi (12-rasmga qarang).

Oxirgi yigirma yil davomida «kompetensiyalar» so'zi boshqaruv samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan barcha atamalarni o'zida jamlagan tushuncha sifatida talqin qilindi. Oxir-oqibat, bunday umumlashtirish qator chalkashlik va tushunmovchiliklarga olib keldi. Bunday tushunmovchiliklarning asosiy sababi «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarining noto'g'ri qo'llanilishi bo'lishi mumkin.

Hozirda mazkur tushunchalarning bir-biridan o'zaro farqi «**Nimaga erishish kerak?**» va «**Ularga qanday erishiladi?**» savollariga javob topish orqali ajratilmoqda. Quyidagi konsepsiyaga asosan, tushunchalarning mohiyati aniqlanadi:

Nima? – «**kompetentlik**» – bu samarali ish jarayonini aniqlaydigan natijalar, ya'ni kasb



egasi (mehnat subyekti) ning o'z funksional burch va majburiyatlarini to'liq bajarishi.

Qanday? – «**kompetensiyalar**» – bu kasb egasi (mehnat subyekti) ning o'z funksional burch va majburiyatlarini bajarish jarayonida namoyon etadigan qobiliyat, qiziqish, motivasiya kabi sifatlarini o'z ichiga oluvchi xulq-atvor modellari.

Biz tomondan o'tkazilgan dastlabki tadqiqotlar natijasiga ko'ra, *kompetentlik* – inson

2-rasm

faoliyatini uning eng yaxshi bajargan amallariga nisbatan baholashda yordam beradigan **standart**,

deb aytish mumkin. Sababi, bunday baholanish, o'z navbatida, o'zgarishlar sharoitida tashkilot (iqtisodiyot subyektlari) faoliyatini yaxlit holda ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi. Oxir oqibat, muvaffaqiyat egalari – bu tashkilot, jamiyat va muayyan shaxslar hisoblanishadi.

Umuman olganda, kompetensiya muayyan shaxs doirasida o'rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo'lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo'lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, tashkilot miqyosida esa hamkasblarni o'qitishga bo'lgan ehtiyojlarni va berilgan maslahatlar natijasida to'lmay qolgan «bo'shliq»larni to'ldirishda asqotadi. (2-rasmga qarang)

Demak, yuqoridagi to'rt bosqichli nazariya, uch bosqichli tizim, uch xil ko'rinishdagi kompetensiyalar tuzilmasida ilgari surilgan g'oyaga va yana shu sohada tadqiqotlarni olib borgan olimlar fikriga asoslanadigan bo'lsak, kompetentlik – ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun, ya'ni muayyan kishilar (guruhlar) malakasini oshirish va ish (o'qish)-faoliyatini yaxshilash, *professional* shaxs shakllanishida o'ziga xos indikator sifatida xizmat qiladi.

Reja:


1. Kasbiy psixologiyaning metodlari haqida tushuncha
2. Metodlarning klassifikatsiyasi.
3. Kasbiy psixologiyaning asosiy prinsiplari.
4. Kasbiy psixologiyaning amaliy sohalar bilan o'zaro bog'liqligi.

Kasbiy psixologiyaning metodlari psixik hodisalarni o'rganishga ob'ektiv qarashni ta'minlabgina qolmay, balki shaxsning psixik jarayonlari va xususiyatlari nima uchun va qanday yuzaga keladi va qanday rivojlanadi va qanday o'zgarib boradi degan savollarga javob bermog'i lozim.

Kasbiy psixologiyaning metodlari amaliyot bilan bog'liq ravishda olib borilishi kerak. Kasbiy psixologiya metodlariga tarixiy jihatdan yondashmoq lozim. Shu jihatdan psixologiya metodlari uning predmeti kabi tarixan anchagina o'zgarishlarga duch keldi. Psixologik tadqiqotlar predmetining alohida xususiyatga egaligi uning alohida tadqiqot metodlariga ega bo'lishi zarurligi haqidagi fikrni ilgari surmasdan qo'ymasdi. Idealistik psixologiya yagona bir metodni tavsiya eta olgan va shu metod yordamida kishi «ruhiga» kirib borishga uringan. O'zini o'zi kuzatish (introspeksiya, ya'ni ichkaridan ko'rish) ana shunday metod edi. Ilmiy psixologiyada qabul qilingan ong bilan faoliyatning birligi prinsipi psixologik tadqiqotda ob'ektiv metodning negizini tashkil etadi. Kasbiy psixologiyada tadqiqotning sub'ektiv va ob'ektiv metodlari bir-birini inkor etadi. Haqiqiy ilmiy psixologiya psixikani o'rganishning ob'ektiv metodlaridan foydalanish va fanda bundan boshqa metodlarning bo'lishi mumkin emasligini tushuntirishi kerak. Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqotga yana bir muhim talabi psixik faktlarni genetik (tarixiy) jihatdan o'rganish prinsipiga amal qilishni taqozo etadi. Genetik prinsipning mohiyati shundan iboratki, o'rganila yotgan psixik hodisaga jara yon deb qaraladi va tadqiqotchi dialektik rivojlanishning barcha holatlarini tiklashga, ular bir-birlarini qay yo'sinda almashtirishlarini ko'rish va tushunib etishga harakat qiladi, o'rganila yotgan psixik faktni uning muayyan tarixi jihatdan tasavvur etishga urinadi. Tadqiqotlarni amalga oshirishning genetik prinsipi keyingi yillarda bolalar psixologiyasida bola shaxsini bo'ylama kesimi bo'yicha o'rganish metodi (longityud) deb ataladigan metod sifatida ancha keng qo'llanilmoqda. Bu metod yordamida psixik rivojlanish davrlarga bo'lish yo'li bilan (ya'ni rivojlanishning alohida yosh bosqichlarini ta'riflash va ularni o'zaro bir- biriga taqqoslash) emas, balki bola shaxsini unga ta'lim berishning maxsus tashkil etilgan sharoitlarida qator yillar mobaynida uzoq vaqt o'rganish natijasida aniqlanadi. Kasbiy psixologiyaning asosiy metodlari quyidagilar hisoblanadi: 1) kuzatish: ichki; tashqi ; 2) eksperiment: tabiiy, laboratoriya; 3) suhbat; 4) anketa; 5) sotsiometriya; 6) faoliyat natijalarini o'rganish; 7) test; 8) biografik. Masalan, bolaning psixik taraqqiyoti o'rganilar ekan, psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini, xususiyatlarini aniqlash, uning shu tarzda psixik taraqqiy etish sabablarini bilib olish hamda sinchiklab o'rganish asosida oilaviy tarbiya va ta'lim jarayonlarini takomillashtirish uchun muayyan usullarni belgilash lozim.⁴

Psixologiyada tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil va murakkab hodisalardir. Bu hodisalar qanday metodlar bilan, ya'ni qaysi yo'llar bilan, qanday usullar bilan tekshiriladi, degan savol tug'iladi. Psixologiyada chinakkam ilmiy bilimga ega bo'lmoq uchun psixikani tekshirish metodlarini bilish va shu metodlardan foydalana bilish kerak. Har bir pedagog kishilar psixikasini tekshirish uchun loqal eng oddiy usullarni bilishi lozim.

⁴ Educational Psychology Kelvin Seifert and Rosemary Sutton Copyright © 2009 Kelvin Seifert



3-rasm

Xar bir fan kabi kasbiy psixologiyaning ham psixik (ruhiy) hayot hodisalarini chinakkamiga ilmiy asosda bilib olish uchun quyidagi talablariga amal qilish lozim: Tekshiriladigan har bir psixik hodisaga boshqa hodisalar bilan bogʻlangan deb qaralishi zarur. Masalan, psixik hodisaning uning nerv fiziologik asosdan ajratib oʻrganish yaramaydi, xotirani tafakkur, diqqat va umuman shaxsdan ajratib oʻrganish yaramaydi va hokazo. Har bir psixik hodisa va umuman shaxs vujudga kelish, taraqqiy etish va oʻzgarish jarayonida koʻzdan kechirilishi zarur. Shuning uchun, masalan, bolalar va oʻsmirlar psixikasining taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, voyaga etgan odam psixikasining yetarlicha yaxshi bilib boʻlmaydi. Masalan, odam psixikasining taraqqiy etishini oʻrgana turib, bilim olish va toʻplash jarayonida odamning bilish qobiliyatlari: xotirasi, tafakkuri va nutqi, mushohadakorligi sifat jihatidan oʻzgarishni koʻrsatib bersa boʻladi. Odam ongi uning tarixiy taraqqiyotida shakllanadi. Hozirgi mustaqillik sharoitida milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlash, yangicha tafakkur qilish va dunyo qarashni shakllantirish milliy mafkura va milliy gʻoyani shakllanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Odamning tevarak atrofdagi voqeʻlikni bilishi kuzatishdan, tajribadan boshlanadi. Shu sababli, ilmiy psixologiya ham oʻz mavzuini oʻrganishni tajribadan, psixik hayot faktlarini aniqlash, tasvir etish va tahlil qilishdan boshlashi lozim. Soʻngra, aniqlangan va tahlil qilingan faktlar asosida, psixik hayot qonuniyatlarini ochib, tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarilishi lozim. Har bir fandagi kabi psixologiyada ham tajriba, kuzatish va eksperiment shaklida qoʻllaniladi. Kuzatish va eksperimentdan tashqari, ilmiy tekshirishning boshqa mahsus medotlari: suhbat metodi, biografiya metodi, solishtirma tarixiy metod va boshqa metodlar ham qoʻllaniladi (3-rasmga qarang).

Kuzatish metodi

Psixologiyada kuzatish odamning psixik hayotini oʻrganish metodi sifatida keng suratda qoʻllaniladi.

Kuzatish metodining oʻziga xos xususiyati shuki, odamning tashqi koʻrinishi (ish-harakatlari, qanday soʻzlashishi, kishilar bilan boʻlgan munosabati, psixik holati va faoliyati) tabiiy hayot sharoitida oʻrganib boriladi.

Psixologik kuzatishning maqsadi boʻlishi shart. Psixologik kuzatish muayyan reja yoki dastur asosida olib boriladi. Odatda psixologik kuzatuv uzoq vaqtni talab qiladi. Kuzatish qancha uzoq davom etsa, kuzatuvchi shuncha koʻproq dalillar toʻplashi, uning psixologik xulosalari chuqur va ishonchliroq boʻladi.

Psixik hodisalar hayotda, ya'ni tabiiy sharoitda, odamning turli-tuman faoliyatida qanday ko'rinishda voqe bo'lsa, o'sha ko'rinishda kuzatish metodining yordami bilan o'rganiladi.

Tashqi kuzatish

Psixik hayot hodisalarini o'rganishda avvalo tashqi kuzatish metodi tadbiiq etiladi.

Kuzatishning asosiy xususiyati shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayotni sezgi organlarimiz bevosita seza oladigan, o'zimiz bevosita idrok qila oladigan faktlari aniqlanadi va tasvirlanadi. Kishining psixik hayotida: mimika, imo-ishora, nutq, turli harakatlar va umuman kishining butun xatti-harakati va faoliyatini bevosita kuzatish bimalol mumkin.

Psixik jarayonlar bilan bevosita bog'langan ba'zi bir fiziologik hodisalar turqning o'zgarishi, nafas olish, qon aylanish va shu kabilarning o'zgarishi ham tashqaridan kuzatilsa bo'ladi. Kuzatish ma'lumotlarini so'zlar bilan tasvir etish bilan qifoyalaniq qolmay, balki ko'rsatma vositalari, suratga olish, kinoga olish, tovushni yozib olish va shu kabi yo'llar bilan ham qayd qilish mumkin. Masalan, bolalar nutqini o'sib borishini kuzatish yo'li bilan tekshira olamiz. Bunda bolaning so'z boyligi qanday qilib sekin-asta orta borishini, nutqning fonetik tomonini, grammatik tuzilishini shu bola qanday bilib oqlayotganini qayd qilsa bo'ladi. Odamning tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartirish va yangidan ko'rishida duch kelgan to'sqinlikni va qiyinchilikni yengish uchun uning qanday zo'r iroda bilan sabot-matonat ko'rsatishini ham kuzatish yo'li bilan ko'zdan kechirsak va tekshirsak bo'ladi. Psixik hayot hodisalarini o'rganayotganda psixologning o'z-o'zini kuzatish metodiga ham murojaat qilib turishiga ham to'g'ri keladi.

O'z-o'zini kuzatish

Nomidan ko'rinib turibdiki, tadqiqotchi o'z-o'zini kuzatish bilan o'zidagi psixik hodisalarni tekshiradi. Bu holda tadqiqotchi psixik jarayonlar va holatlarning ichki tomoni - odamning sub'ektiv kechinmalari qanday ro'y bersa, ularni shu holda tasvir etish va aniqlab olishga intiladi. Psixolog o'z tadqiqotlarida tekshirilgan kishilarning o'z-o'zini kuzatib olgan ma'lumotlariga ham asoslanadi.

O'z-o'zini kuzatishda psixik hodisalarni (masalan, shodlik yoki qayg'u hissini, tafakkur jarayonini) ham boshdan kechirish, ham shu hodisalarni o'rganish juda qiyin ekanligi, ba'zan esa butunlay mumkin bo'lmasligi ko'rsatib o'tildi.

O'z-o'zini kuzatish metodining cheklanganligini ham uning kamchiligi deb bilish kerak. Psixolog o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan faqat o'z psixikasini o'rganadida, axir. Shunday bo'lgach, odam psixikasi haqidagi fan faqat psixologlarning o'z psixologiyasiga aylanib ketadi. Bunday psixologiya madaniy taraqqiyot jihatidan yuksak darajada turgan, o'z ixtisosiga ko'ra o'zini-o'zi kuzata oladigan va o'zini-o'zi muhokama qila oladigan kishilar psixikasi haqidagina bilim beradi. Ammo madaniy taraqqiyotning pastroq bosqichida turgan kishilar psixikasi haqidagi ta'limot ham, bolalar psixikasi haqidagi ta'limot ham psixologiyaga qo'shilishi kerak. Madaniy taraqqiyotning pastroq bosqichida turgan kishilar va bolalar esa fan nuqtai nazaridan o'z-o'zini kuzata olmasligi tabiiy. Demak, o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan odam psixik taraqqiyotining turli bosqichlari haqida bilim olib bo'lmaydi.

I.P.Pavlov o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan aniqlab olishi mumkin bo'lgan sub'ektiv psixik hodisalar haqida gapirar ekan, bunday deb yozgan edi: «Albatta, bu (sub'ektiv – P.I.) hikmatlar biz uchun birinchi darajali voqe'likdir, ular kundalik hayotimizni yo'lga soladigan, inson jamiyatining taraqqiy etishiga sabab bo'ladi. Ammo sub'ektiv holatlarga qarab yashash boshqa-yu, ularning mexanizmini chinakamiga ilmiy tahlil qilish boshqa».

O'z-o'zini kuzatish yo'li bilan sub'ektiv ravishda ko'ngildan kechadigan faktlarni aniqlash, tasvirlash mumkin, ammo ularni har tomonlama tushuntirish mumkin emas. Psixik hodisani tushuntirish – uning sababini, nerv-fiziologik asosini topish va odam yashaydigan ijtimoiy sharoit bilan bog'langanligini aniqlash demakdir, bularning hammasi esa o'z-o'zini kuzatish doirasidan tashqaridadir. Fanning vazifasi faktlarni tasvir etishdangina iborat emas, balki asosan shu faktlarni tushuntirish, ularning qonuniyatlarini kashf etishdan iborat. Ob'ektiv metoddan foydalangandagina bunga erishish mumkin.

Ammo, o'z-o'zini kuzatish metodining yuqorida aytilgan kamchiliklari bu metodni psixologiyada keraksiz, g'ayri ilmiy metod deb butunlay rad etishga asos bo'lmasligi kerak, albatta.

Bu kamchilik va qiynchiliklarning hammasi ham o'z-o'zini kuzatishda uchrashi mumkin, lekin ular hamisha, o'z-o'zini kuzatishning har qanday bo'lavermaydi. Avvalo, odam o'z-o'zini kuzatish ob'ekti bo'lolmaydi, degan da'voni asossiz deb bilish kerak. Odam ongi taraqqiy etgan bo'lsa, ma'lum psixik jarayonlarni baravariga boshdan kechirishi ham, kuzatishi ham mumkin, odamning hususiyati ham shundan iborat. Odam kuzatish bilangina qolmay, psixik jarayonlarga ta'sir o'tkazishi, turli psixik jarayonlarni yuzaga chiqarishi, o'zgartirishi, kuchaytirishi va to'xtatishi mumkin. Bu har kimga yaxshi ma'lum bo'lgan faktidir.

Tashqi va ichki kuzatishning birligi

Lekin odam psixikasini faqat o'z-o'zini kuzatish metodi bilan o'rganib bo'lmasa, faqat tashqi kuzatish yo'li bilan, ya'ni o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlari bilan bog'lanmasligi ham mumkin emas. O'z-o'zini kuzatish metodining ahamiyatini tamomila inkor qilish – odamning yuksak darajadagi bilish qobiliyatiga, ijodiy qobiliyatiga, ongiga ishonmaslik demakdir. Boshqa kishilarni kuzatishning hususiyati shundaki, tadqiqotchi shu kishilar xulq-atvorining tashqi ko'rinishlarini idrok etar ekan, ko'nglidan kechayotgan hislarini bir qadar biladi. Shu sababli psixolog tashqaridan kuzatish yo'li bilan va o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlariga tayanib, odamning turli xatti-harakatlarini tasvir etish bilangina kifoyalaniq qolmay, balki umuman psixik hayot hodisalari haqida, ularning tashqi va ichki (sub'ektiv) ko'rinishlari haqida xulosalar ham chiqarishi mumkin. Tadqiqotchi psixolog kishilar bilan muomala qilishda turmush tajribasiga va ilmiy tekshirish ishlarida yetarli amaliyotga ega bo'lganida psixik hayotning tashqi ko'rinishlarini kuzatar ekan, psixik jarayonlarning sub'ektiv suratda qanday kechishini ham ozmi-ko'pmi ocha oladi. Masalan, tafakkurni kuzatish yo'li bilan tekshirganimizda ko'z, yuz muskullaridagi xilma-xil harakatlarni va turqining o'zgarishini qayd qilibgina qolmay, balki, shu bilan birga, shu tafakkur jarayonlari qanday zabt va qanday tezlik bilan ro'y berishini ham bir qadar bila olamiz. Modomiki tafakkur jarayonlari tashqi muhitda o'z ifodasini topar ekan, tafakkurning mazmunini bila olamiz, tafakkur jarayoni qay shaklda ro'y berayotganini, masala qanday kelib chiqayotgani, masalani echish jarayoni qanday borayotganini ham kuzata olamiz.

Kuzatish metodi psixik hodisalarni faqat tasvir etish imkonini berish bilangina cheklanib qolmay, balki shu hodisalarni tushuntirish, ya'ni ularning tevarak-atrofdagi muayyan tarbiyaga, odamning faoliyat xarakteriga, organizmning umumiy ahvoliga va nerv sistemasining ishlash hususiyatlariga bog'liq ekanligini ochib tashlash imkonini ham beradi.

Odamzod faoliyatining xar xil turlarida psixikani tekshirish uchun kuzatish metodidan foydalaniladi. Kuzatish yordami bilan bolalar psixikasi ham ularning o'yin, o'qish va mehnat faoliyatida bemalol tekshirib o'rganiladi. Pedagog, ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va individual hususiyatlarini tekshirib o'rganishda ana shu metoddan foydalanadi.

Kishilarning psixik sifatleri: tashabbuskorligi, ijodiy tafakkur jarayoni, yangilikni bayon qilishi, o'z oldiga qo'ygan maqsadga etish yo'lida sabr-matnat ko'rsatishlari kuzatish yo'li bilan tekshirib o'rganiladi. Fabrika-zavod sexlarida, kolxoz dalalarida, sotsialistik xo'jalik va madaniyatimizning boshqa sohalarida ishlayotgan sovet kishilarida biz shunday sifatler namoyon bo'lishini ko'ramiz.

Psixologiyada kuzatish metodi odam hayoti va faoliyatining odatdagi sharoitidagina emas, balki shu bilan birga klinika sharoitida psixikaning kasallik oqibatida o'zgarganligini tekshirishda ham qo'llaniladi. Ayni vaqtda kasallikni tekshirish uchungina emas, shu bilan birga odamning normal ahvolidagi psixik hodisalarni yaxshiroq tushunib olish uchun ham klinik kuzatish ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Kuzatish daftarga yozib boriladi, oxirida tahlil qilinib, psixologik xarakteristika yozish bilan tugatiladi.

Ekisperiment metodi

Ekisperiment metodi maxsus asbob va apparatlar yordami bilan psixik jarayonlarning ro'yo berish vaqtini, masalan, reaksiyalarning tezligi, esda olib qolish, diqqatning ko'chishi, bo'linishi,

o'quv va mehnat malakalarini hosil bo'lish tezligini juda aniq o'lchash mumkin.

Kuzatish metodining ijobiy tomoni shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayot faktlari ularning tabiiy suratda ro'y berishida, borishida va o'zgarishida olib o'rganiladi, ya'ni haqiqatda, kishilarning kundalik turmushida qanday ro'y bersa, o'shanday holida tekshiriladi.

Ammo bu metoddan foydalanganda ba'zi bir ung'aysizlik va qiyinchiliklarni uchratishga to'g'ri keladi, masalan, bu erda tadqiqotchi psixologning tekshirishi uchun qaysi psixik hodisalarning yuzaga chiqishi kerak bo'lsa, o'sha hodisalar yuzaga chiqqan kishilarni qidirishga yoki biron kishida, ba'zan psixologning o'zida shu hodisalarning yuzaga chiqishini kutib turishga to'g'ri keladi. Eksperiment metodidan foydalanganda bu ung'aysizlik va qiyinchiliklar barham topadi yoki kamayadi. Psixologiyada eksperimentning ikki turi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment tafovut qilinadi.

Laboratoriya eksperimenti. Laboratoriya eksperimentining mohiyati shundaki, tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo'lsa o'sha vaqtda ataylab vujudga keltiradi. Bunda tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo'ladigan boshqa psixik hodisalar kompleksidan ajratib olinishi mumkin. Tekshiriladigan psixik hodisalar eksperiment davomida o'zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir suratda bog'lanishi, kuch, tezlik, hajm va boshqa shu kabi jihatlari o'lchab ko'rilishi mumkin. Bu yerda muayyan bir psixik hodisani vujudga keltirgan sharoit sun'iy yo'l bilan o'zgartirilishi, psixik hodisa davom etadigan sharoit o'zgartirilishi mumkin. Shuning uchun ham psixik hodisalarning qonuniyatlari metodi bilan tekshirishda yaxshiroq ochiladi. Eksperimental tadqiqotlar o'tkazishda mahsus metodik materiallar – narsa, rasm va so'zlar, shuningdek mahsus asboblari (masalan, xronoskop) qo'llaniladi.

Tekshiriladigan hodisalar shu material va asboblari yordami bilan vujudga keltiriladi, shuningdek, psixik hodisalarning tezligi, kuchi, hajmi va shu kabilari qayd qilinadi.

Texnika juda taraqqiy etgan hozirgi zamonda psixologik tadqiqotlar uchun (ayniqsa mehnat psixologiyasi sohasida) elektron asboblari va kibernetik metodlar, masalan, modellashtirish usuli qo'llanilmoqda. Eksperimental tadqiqotlar asosan mahsus laboratoriya va institutlarda o'tkaziladi. Ayrim psixik hodisalarni mukammal va aniq, o'rganish maqsadida psixologiyaga doir ilmiy tekshirish muassasalarida mahsus binolar, masalan, tovushni va yorug'likni o'tkazmaydigan kabinetlar, yorug'lik ta'sirini o'zgartirishga moslangan kabinetlar va shunga o'xshash xonalar quriladi. Yosh psixologiyasi bilan pedagogik psixologiyaga doir masalalar yuzasidan ko'pgina eksperimental tadqiqotlar odatda, bolalar boqchalari va maktablarda o'tkaziladi. Bu tadqiqotlarda bolalar o'rganiladi. Xotira jarayonlarini tekshirishda qo'llaniladigan quyidagi usul laboratoriya eksperimentiga misol bo'la oladi: eksperiment qilayotgan kishi tekshirilayotgan kishining oldida o'n ikki so'z qilib beradi. Tekshirilayotgan kishi ana shu eshitgan so'zlarini belgilangan vaqtdan keyin aytadi. Ana shu so'zlarning qanchalik to'liq, aniq, va tez aytib berilishi tekshirish natijalaridan bilinadi. Xuddi shunday eksperimentlar qilib, so'zlarni, raqamlarni yoki qanday bo'lmasin boshqa materialni yodlash tezligi, esda nechog'li mahkam saqlash, unutish tezligi va shu kabilarni aniqlash mumkin.

*Eksperimental metodni birinchi marta fiziolog Veber (1795–1878) va fizik Fexner (1801 – 1887) sezgilarni tekshirishda qo'llanilgan eksperimental tadqiqot usullarini Vilgelm Vundt (1832 – 1920) mukammal ishlab chiqqan. 1879 yilda V. Vundt Leypsik universiteti huzurida eksperimental psixologiya bo'yicha birinchi laboratoriyani ochgan. I.P.Pavlovning shartli refleklar metodi psixologiya uchun g'oyat samarali metoddir. Laboratoriya eksperimenti psixologiyani taraqqiy ettirishda katta ahamiyatga ega. Yuqorida aytilganidek, bu metod tekshirilishi lozim bo'lgan psixik hodisalarni qachon kerak bo'lsa, shu vaqtda vujudga keltirish va o'zgartirishga, tajribani ko'p marta takrorlash yo'li bilan shu hodisalarni sinchiklab tahlil qilishga imkon beradi.*⁵

Eksperiment metodining ikki turi mavjud: laboratoriya va tabiiy eksperiment. Laboratoriya eksperimenti maxsus tashkil etilgan laboratoriyada yoki yozib oladigan asboblari yordamida olib boriladi. Bu metodning kamchiligi – uning sun'iyligidir. Tabiiy eksperiment metodida

⁵ Educational Psychology Kelvin Seifert and Rosemary Sutton Copyright © 2009 Kelvin Seifert

sharoitning tabiiyligi saqlanishi shart.

Eksperiment metodida tekshiriluvchilar o'zlarining kuzatilib turilganligi va o'rganilayotganligini sezmasliklari lozim, aks holda ular o'zlariga xos bo'lgan hulq-atvorni o'zgartirib yuborishadi va bu bilan eksperimentning tabiiy xarakterini buzib qo'yishadi.

Suhbat metodi

Bu metod juz'iy xususiyatga ega bo'lib, u asosan tekshiriluvchining qiziqish va xavaslarini va bilish jarayonlarining ba'zi bir tomonlarini: tasavvur, xayol va tafakkurini o'rganishda qo'llaniladi.

Suhbatda ijobiy natijalarga erishish uchun quyidagi talablarga rioya qilish zarur:

Suhbatda mo'ljallangan savollar tekshirish mavzusini to'liq suratda qamrab olishi;

Savollar oldindan puxta o'ylangan va lo'nda bo'lishi, tekshiriluvchiga tushunarli va javoblarni esga tushirmaydigan vaziyatlar tanlab olinishi;

Suhbat jarayonida tadqiqotchi bilan tekshiriluvchi o'rtasida o'zaro shunday munosabatlar o'rnatiladiki, bunda tekshiriluvchi beriladigan savollarga samimiy va haqqoniy javob qaytaradi;

Suhbat natijalari aniq yozib boriladi

Suhbatni o'ziga xos tergovga aylantirib yubormaslik kerak. Suhbat samimiy, bimalol bo'lishi, tekshiriluvchi kishilarning psixik holatiga zo'r kelmasligi kerak.

Suhbat odam psixik hayotining bevosita kuzatish va eksperimentda aniqlab bo'lmaydigan protsess va hollari haqida ma'lumot olishga yordam beradigan birdan-bir metoddir, deyish mumkin. Masalan, kosmosga parvoz qilish vaqtida odamning psixik faoliyat hususiyatlari haqida bilim olmoq uchun tadqiqotchi kosmonavtlarning o'zi bilan suhbat qilishi kerak.

Suhbat metodi shaxsning individual hususiyatlarini (e'tiqodlari, havaslari, jamoaga munosabati, o'z vazifalarini tushunish) tekshirishda, shaxsning hayoti va faoliyatidagi mahsus voqealar, qahramonlik, ijodiy maqom va shunga o'xshashlarni tekshirishda qo'llaniladi.

Bu metod o'qitish va tarbiyalashning psixik asoslarini tekshirishda, masalan, bolalarning kitobxonlikka havasini, ayrim darslarga munosabatini tekshirishda, o'quvchilarning uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda xotirada qoldirish usullarini, ayrim o'quvchilarning darslarni sust o'zlashtirish sabablarini aniqlashda qo'llaniladi.

Test metodi

Test – bu qisqa muddatli topshiriq bo'lib, uning bajarilishi ba'zan psixik jarayonlar mukammalligining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Test metodi yordamida ayrim qobiliyatlarning, ko'nikmalarning, malakalarning bor yoki yo'qligini aniqlashga, u yoki bu kasb sohasida ishlash uchun layoqatlilik darajasini o'rganish mumkin.

Biografiya metodi.

Odam psixikasini tekshirish uchun ayrim kishilarning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa ularning o'zlari bergan ma'lumotlar (avtobiografiya, kundalik daftarlar, memuarlar, xatlar), shuningdek, boshqa kishilar yozib olgan biografiya ma'lumotlari (biografiyalar, esdaliklar, xatlar, xarakteristikalar va shunga o'xshashlar) katta ahamiyatga egadir.

Bu ma'lumotlar psixik faoliyat: namoyon bo'lishining kuzatish va eksperiment yo'li bilan tekshirib bo'lmaydigan turlarini, masalan, ijodiy xayol – poeziya, muzika, texnika va boshqa shu kabi sohalardagi ijodiyot yuksak jarayonlarini, ilmiy kashfiyotlarda namoyon bo'ladigan tafakkur faoliyati yuksak jarayonlarini, kuchli iroda va ma'naviy yuksak sifatlarning alohida ifodasi bo'lgan qahramonlikni, shuningdek, geniallik, talantlilik va zo'r qobiliyat kabi xislatlarni ochishga yordam beradi. Odam ongi namoyon bo'lishining ana shunday turlari to'g'risida eng atoqli kishilar bayon qilgan fikrlariga qarab, yoki o'sha shaxslarga yaqin yurgan kishilarning guvohliklariga qarab ko'pgina fikr yuritish mumkin.

Bundan tashqari, biografiyaga doir ma'lumotlar odamning individual kamolotida tarbiya, shuningdek, kishining faoliyati va o'zi ustida ishlashi qanday o'rin tutgani va qanday ahamiyat kasb etganini ham bilishga yordam beradi.

1. Reja:
2. Kasb tushunchasi – kasbiy psixologiyaning konseptual asosidir.
3. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi.
4. Kasblarni psixologik tizimlash.

Kasb tushunchasi - kasbshunoslikning asosiy konseptual bosh tushunchasi - bu kasb tushunchasidir. Kasbshunoslik adabiyotlarida kasb tushunchasining tavsifi juda ko'p. Avvalambor bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o'tkazuvchi va unga yashash uchun manba bo'lib xizmat qiluvchi mashg'ulotdir. Keyin kasb bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilarni birlashtiradi. Bu faoliyat ichida ma'lum aloqalar va axloq normalari o'rnatiladi. Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning aloxida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan.

*B.Shouning fikri buyicha "Kasb - ♦ mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir"*⁶.

E.A.Klimov ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif qo'yidagicha "Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda asosiy jismoniy va ruhiy kuch talab etiladi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritib, E.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi. Yana bir ta'rifni keltiramiz. "jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo'lib, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muxim bo'lgan natija mas'uliyatlarni etkazishni ta'minlab berishi kerak bo'ladi".

Jahon psixologiyasi fanining boy tajribasida amaliy psixologlar tayyorlash bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ijobiy, tatbiqiy ma'lumotlar muayyan darajada umumlashtirilgan.

Yigirmanchi asrning 60-yillaridan boshlab AQSh, Angliya va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlarda psixologik muammolarga juda katta e'tibor qaratila boshlandi. Hozirgi kunga kelib har bir sohada psixologlar jalb qilingan. Har bir sohada psixolog maslahatiga ehtiyoj sezilmoqda.

Nisbatan tor ta'rifni esa V.G.Makushin keltiradi, "Kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat xayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun

moddiy vositalar asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi". Mavjud ta'riflarni umulashtirib, qo'yidagilarni xulosa qilish mumkin. Kasb mehnat faoliyatining paydo bo'lgan shakllari bo'lib, ularni bajarish uchun inson albatta ma'lum bilimlar va ko'nikmalarga maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muxim kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak. "Kasb" atamasi kasbiy faoliyatning faqatgina yuqori statusli turlariga nisbatan ishlatiladi. Boshqa faoliyat turlari mutaxassisliklarga yoki ish, mashg'ulot turlariga tegishli bo'ladi. Milliy kasbshunoslikda "kasb" va "mutaxassislik" tushunchalari farqlanadi.

Kasb mutaxassislikka ko'ra kengroq tushuncha, kasbiy salohiyatida tashqari, uning muxim sifatlari - ijtimoiy - kasbiy salohiyat, kasbiy avtonomiya, o'zini nazorat qilish, guruxli mezonlar va qobiliyatlar hisoblanadi. Kasb odatda yaqin mutaxassisliklar guruhini birlashtiradi. Masalan, kasb shifokor, mutaxassisliklar - terapevt, pediatr okulist, urolog, va xokazo, kasb - muxandis, mutaxassisliklari - konstruktor, texnolog, metallurg va xokazolar. Mutaxassislik — kasbiy ta'lim, tayyorgarlik yo'li bilan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko'nikma va malakalar kompleksi bo'lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma'lum faoliyat turini bajarish uchun zaruriy hisoblanadi. Shunday qilib, mutaxassislik - kasb ichidagi kasbiy faoliyat turi bo'lib, u shaxsiy yutuqlarga yoki o'ziga xos vaziyatlar orqali umumiy natijalarga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi.

⁶ T.Melchert, Foundations of Professional Psychology 2011.

Insoniyat rivojlanishida kasbiy faoliyat turlari uning eramizgacha Misrda qadimiy Gretsiya (Yunoniston), Rim imperiyasi va boshqa rivojlangan davlatlarda ko'zda tutilgan. Bugungi kunda mehnatning paydo bo'lishi sanoat inqilobi davrida boshlandi. Keyingi, ilmiy-texnik rivojlanish kasblar ro'yxatini yangilashga va kengayishiga olib keladi AKD rasmiy ma'lumotlarida 1965 yilda alifbo tartibida 21741 ta kasbga va 400 mutaxassisliklarning ta'riflari keltirilgan. Xalqaro kasblarni tizimlash standarti bo'yicha 1988 yilda 9333 kasb ro'yxatga olingan. Yagona ta'rif malaka ma'lumotnomasi 7000 ga yaqin kasb va mutaxassisliklarni birlashtiradi. Bu maxsus xujjatlar ularning tizimli paytidagi kasbiy vaziyati aks ettiriladi. Nashrdan chiqqan ma'lumotnomalar esa korrektirovkaga muxtoj bo'ladi, chunki kasblar dunyosi doim o'zgarib turadi. Yangi kasblar paydo bo'ladi, kasblarning harakteri mehnat mazmuni yangilanib turadi, past malakali mehnat kasblari yo'qolib boradi.

Kasb nomi ko'pincha o'tgan yillarda shakllangan mehnat harakterini aks etadi. Rasmiy ma'lumot nashrlari esa mehnat resurslarining rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Masalan "farrosh" kasbning nomi urniga "interer bo'yicha texnik" nomini kiritish mumkin, shunda kasbning qadri, uning malakaviy darajasi ko'tariladi, asosiysi, ishlab chiqarish rivojlanishi tezlashadi. Ta'kidlash mumkinki, kasblar va mutaxassisliklar odatda texnologiya va mehnat vositalarining eskirib qolgan xolatini aks ettiradi. Boshqa tomondan, rasmiy nomenklaturasiz ham kadrlar siyosatini amalga oshirib bo'lmaydi, bunda qanday yo'l tutish mumkin. Aniq-ki, ko'p kasblar va mutaxassisliklar nomini o'zgartirmasa ham bo'ladi: shifokor, o'qituvchi, muxandis, muharrir, zargar, agranom va xokazo. Ularning mehnat mazmuni o'zgaradi, ammo kasbning nomi uning moxiyatini anglatadi va mehnat maxsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, o'ylaymizki aynan shu kasblar va mutaxassisliklar ma'lumotlarning rasmiy ro'yxatini tashkil etish lozim, ijtimoiy rivojlanish jarayonida yangi kasblar nomimni kiritish zaruriyati kelib chiqadi. Yangi kasblar ro'yxati kechikish bilan rasmiy ma'lumotnomalarga kiradi "Menidjer" kasbi bugungi kunda keng tarqalgan ammo rasmiy ro'yxatga kiritilmagan. 1979 yildan buyon Ekaterinburg shaxrida kasb bilim yurtlari uchun mutaxassislar tayyorlanadi - ya'ni muxandis - pedagoglar ammo rasmiy ma'lumotnomalarda bunday kasb yoki mutaxassislik mavjud emas. Bunday masalalarni ko'p keltirish mumkin. Kasbiy faoliyatning samaradorligini shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda uning ruhiyati va jismoniy sog'ligi hamda xolati, undagi mavjud sifatlarning bajarayotgan faoliyati talablariga mosligi darajasi tushuniladi. Mashxur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv xolatidir - deb hisoblangan.⁷

Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko'p darajali va ko'rinishli tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'likni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi.

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida ikkita o'zaro bogliq bo'lgan tomonlarni ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bu o'zaro bog'liqlik tomonlar psixologlar M.I.Dyachenko va A.M.Stolyarenkolar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib ular qo'yidagilardan iborat:

1. Shaxsning kasbiy faoliyatga salohiyatli tayyorligi mutaxassisning bu tayyorligi qo'yidagilardan iborat bo'ladi; komponentlar kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, ko'nikma, malakalar kasb uchun muxim hisoblangan, shaxsning sifatlari uning munosabati, mazmun va qadriyatlarini, afzalliklari hamda umuman shaxsning zarur bo'lgan kasbiy imkoniyatlari darajasi;

2. Shaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaqtdagi tayyorligi. Mutaxassisning kasbiy tayyorligining ushbu tomoni tezkorligi, o'zgaruvchanligi, har qanday xolat va sharoitda aniq masalalarni echish, mutaxassisning ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma'naviy psixologik muhitga bog'liqligi bilan ifodalanadi.

Mutaxassisning bevosita psixologik tayyorgarligi dastlabki tayyorgarlikni faollashtirish

⁷ T.Melcherti"Foundations of Professional Psychology" 2011. 18-6.

natijasi sifatida ishtirok etadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi bevosita ayni vaqtdagi tayyorligining asosi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisni oliy o'quv yurtida tayyorlash unda kasbiy faoliyat uchun etarli bo'lgan sifatlarni shakllantirish lozim. Ba'zi vaqtlarda xatto kasbiy masalalarni xal etishga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan mutaxassis ham zarur paytda kerakli faoliyat uchun tayyor bo'lmay qolishi mumkin, ya'ni kasbiy xulqi va faoliyatini ruhiy boshqarish yetarli darajada bo'lmaydi. Bunday xolatda faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi yoki samarasiz bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, mutaxassisning kasbiy tayyorligi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini kasbiy mahoratini hamda o'zini boshqarish, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirishga, imkoniyatlarini xal etishga yo'naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi. Mutaxassisning kasbiy tayyorligining asosiy va eng murakkab tomoni (psixologik tomoni) - mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu mutaxassis psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni xal etishga o'zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo'nalغانligi darajasidir.

Mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorligining asosiy tarkibiy qismlari qo'yidagilardan iborat: - yo'naltiruvchi intellektual bilish. Bu tarkibiy qismi mutaxassis shaxsining bilish soxasini o'z ichiga oladi: kasbiy idrokini, fikrlashi, tasavvur, xotirasi, diqqatini va ular birgalikda mutaxassis shaxsning kasbga intellektual tayyorligini tashkil etadi.

*Mutaxassisning motivatsion tayyorligining asoslari o'z kasbi mutaxassisligini tushuna olishi; o'zida pozitiv munosabatni tarkib toptira olishi, o'zini baholay olishi, bilish faoliyatiga qiziqishlari hisoblanadi. Oliy o'quv yurti sharoitlarida mutaxassisni tayyorlashda kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorligi talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga va ta'lim olish jarayonida o'zini rivojlantirishga mavjud motivatsion doiraning yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi. - ijrochilik. Bu tarkibiy qismi kasbiy mahoratni (bilim, malaka, ko'nikmalar) kasbiy xulq odatlari kabi muxim kasbiy sifatlarning tuplami, kasbiy qobiliyatlarni rivojlanganlik darajasi va mutaxassisning irodaviy tayyorligi uning xulqi va faoliyati davomida o'zini boshqarishga qodirligi, operatsional funksiyali tayyorgarlikni o'z ichiga oladi.*⁸

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi yadrosini shaxsning kasbiy yo'nalغانligi va kasbiy mahorati tashkil etadi. Hozirgi zamon mutaxassisining kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik mutaxassisda odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o'zaro yaqin aloqalar, xodimlar va rahbarlar bilan amaliy va shaxsiy o'zaro munosabatlarga tayyorligi va bunday o'zaro munosabatlarni o'rnatish olishga va rivojlantirishga qodirligini ko'zda tutadi. Shaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati etarlicha darajada rivojlanganligida u so'z va tildan to'g'ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo'ladi. Shaxsning nutq madaniyati uning fikrlash madaniyati rivojlanganligining ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisning shaxsiy va kasbiy kamol topishini muxim shartlaridan biri uning kasbiy nutqiy madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. Mutaxassisning kommunikativ tayyorligi unda empativlikni, xushmuomalalikni, do'stonalilikni, o'rtoqlik hissini, jamoatchilikni rivojlantirishni, kasbdoshlari bilan o'zaro aloqalar munosabatlariga tayyorligi va qodirligini, o'zaro munosabatlarda keraksiz keskinliklarni yuzaga keltirmaslikni, yuzaga kelgan qiyinchilikni to'g'ri xal eta bilishni, ishda, xodimlar, kasbdoshlari bilan munosabatlarda murosaga kelishni ko'zda tutadi. Mutaxassis faoliyati muvaffaqiyatlilikini yana bir muhim sharti uning kasbiy va shaxsiy jihatdan tayyorligi va qodirligi hisoblanadi. Bu yo'nalishda uning faolligi darajasi ishtirok etadi. Kasbiy masalalarni xal etishda ham xodimlar kasbdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda ham o'zini har tomonlama ko'rsatishga intilish iborat bo'ladi. Mutaxassisning bunday o'zini tashkil etish ko'p jihatdan uning muvaffaqiyatga erishish istagiga va intilishiga bogliq bo'ladi. Zamonaviy psixologiyada muvaffaqiyat muammosiga bag'ishlangan ko'plab ishlar mavjud bo'lib, ularda mazkur muammo amaliy va nazariy jihatdan o'rganilgan. Muvaffaqiyat deganda shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi tushuniladi. Odamning bajarayotgan ishini muvaffaqiyatlilikini xis etishi ikkita xal etuvchi vaziyatlarga bog'liq bo'ladi: haqiqiy natija va ushbu vaziyatlarda uning qiziqishlari darajasiga. Ular odam o'z faoliyatida qo'ygan maqsadlarini ifoda etish shakli sifatida ishtirok etadi. Shunga muvofiq muvaffaqiyatga

⁸ T.Melcherti "Foundations of Professional Psychology" 2011. 18-20-betlar

erishishning vositalari, shart- sharoitlari ishlab chiqilgan bo'lib u qo'yidagi formula asosida beriladi.

Kasbiy faoliyat jarayonida muvaffaqiyatga erishishda mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari muxim rol o'ynadi. Xayotiy muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'plab shaxsiy sifatlar xaqida V.Kroford o'zining "Suxbat va munozara" kitobida Konfutsiyning g'oyasiga tayanib, do'stonalik, donolik va botirlikni ko'rsatadi. Muallif odamga ishida muvaffaqiyat erishish uchun nima yetishmasligini aniqlash uchun qiziqarli metodikani ishlab chiqdi. V.Kroford xozirgi zamon mutaxassisi muvaffaqiyatga erishish uchun ko'rsatilgan 3 ta tushunchadan tashqari kasbiy mahorat ham kerakligini aytib o'tdi. Xozirgi zamonaviy tadqiqotlar muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagi asosiy shart-sharoitlarni ko'rsatadi: - mutaxassis o'ziga ishongan bo'lishi kerak; - maqsadga erishishga kuchli intilish kerak; - nimaga erishish istagini aniq bilishi kerak; - ishga pozitiv yo'nalganlik; - omad aloxida muvaffaqiyatlarni ko'ra bilish va shu paytda quvonch va baxtni xis etish zarur. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra odamning xayoti va kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarini kasblar konstruktori mutaxassisligini kiritish bilan bartaraf etish mumkin. Ular yangi kasblarni loyixalashtirish, mehnat mazmunini va maqsadini aniqlash, ma'lumot, malaka darajasi mehnat sharoiti masalalarini yangilanishlari mumkin edi.

Kasblarni psixologik tizimlash kasbga yo'naltirish ishlari uchun mo'ljallangan. Qayd etilganidek, kasblar olami juda keng bo'lib, unda 20 mingdan ortiq kasb va 40 mingga yaqin mutaxassisliklar mavjud. Ularning turli belgilariga ko'ra tizimlash mumkin. Psixologik tizimlashning xususiyati shuki, bunda ijtimoiy - iqtisodiy va texnologik belgilardan voz kechiladi. Kasblarni psixologik tizimlashi kasbiy qiziqishlar, qobiliyatlar tashxisini ta'minlab berish lozim. Shunda kasblarni guruxlarga birlashtiruvchi psixologik muammosi kelib chiqadi. Asosiysi, kasblarni tizimlash shaxsining koniktiruvchisi kasb tanlash, ya'ni kasbiy tanlovini engillashtiradi. Adabiyotlarni o'rganib chiqish, shaxs va kasb muvaffaqiyatligini ya'ni, kasbiy layoqatni hisobga oluvchi belgilarga to'xtalib o'tish imkonini beradi. Bunda kasbni talab etuvchi shaxsning psixologik tuzilmalari muvaffaqiyatlanadi. Shu belgilarga ko'ra, aniq bir faoliyatni bajara oladigan shaxslardagi kasbiy tanlovni amalga oshirishi mumkin. Bunday yondashishi ko'pgina psixologlarning tadqiqotlarida kuzatiladi. Bugungi tizimlashlarda bu belgilar nazarda tutilmaydi. Kasblarni tizimlashning muhim muammosi - bu kasbni tavsiflovchi ma'lumotlarni to'plash usullaridir. Ularga kuzatish, faoliyatini mustaqil bajarishi (mehnat metod), ishchilar bilan savol-javob, ish-joyidan kuzatuvchi hamda savol- javoblardan iborat⁹.

Chet elda qiziqishlar, shaxs qobiliyatlari va temperament xususiyatlarini hisobga olish asosida kasblarni tizimlashi keng tarqalgan. Avvalambor Dj.Xolland tomonidan 1966 yilda ishlab chiqarilgan kasblarni tizimlashishni ajratish mumkin. Uning moxiyati psixolog konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, ushbu konsepsiya shaxs nazariyasini kasb tanlash nazariyasi bilan birlashtiradi. Yo'nalishning asosiy komponentlarini o'rganish asosida Dj.Xolland shaxsning kasbga yo'naltirilgan turlarini ajratadi: realistik, intellektual, ijtimoiy, konvensional ya'ni, umumiy qabul qilish mezonda va an'analarga asoslangan ishbilarmonlik va badiiy qobiliyatlar va boshqalar. Xar bir shaxs turi ma'lum kasbiy muhitga yo'naltirilgan idealistik tur - moddiy buyumlar yaratishga texnologik jarayon va texnik qurilmalar, iqtidor - aqliy mehnatga, ijtimoiy - iqtisodiy mehnat bilan o'zaro aloqaga, konvensional aniq tuzilgan faoliyatga, ishbilarmonlik - odamlarga raxbarlik va badiiy - ijodga. Xar bir shaxs turi modeli qo'yidagi sxema buyicha tuziladi: maqsadlar, qadriyatlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, istalgan kasbiy rollar mumkin bo'lgan yutuqlar, karera va boshqalar.

Keyingi kasblarning tizimlash qobiliyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Talab etiladigan qobiliyatlar buyicha kasblarni tizimlash buyicha bir necha bor urinishlar bo'lgan. Dastlab, 1953 yilda D Paterson tomonidan taklif etilgan. Kasblar tizimlashga tuxtalib o'tamiz. U juda keng tarqalgan bo'lib, tizimlash asosini 9 ta turli qobiliyatlar tashkil etadi. Minnesota Occupationa! Rating Scale (MORS) yordamida kasbshunos psixologlar tomonidan 432 ta kasb tanlab olinib, qo'yidagi 7 ta guruxga ajratiladi. Akademik, mexanik, ijtimoiy, diniy, musiqaviy, artistlik va jismoniy guruxlardir. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish natijasida 432 kasbni 214 ta namunaga keltirildi,

⁹ T.Melcherti"Foundations of Professional Psychology" 2011. 20-21-бетлар

ulardan 137 tasi bitta kasb mutaxassislikka qolgan 77 tasi ikkitadan 18 tagacha, mutaxassislikni birlashtiradi.

Kasbning psixologik klassifikatsiyasi.

E.A. Klimov tomonidan «kasblarning to‘rt xil daraja»si taklif etilgan.


Birinchi darajaga mehnat ob‘ekti tizimini inobatga olib, **besh xil** toifadagi kasblar kiritilgan:

<p>1) inson → tabiat (I-Ta) – botanik, veterinar, bioinjener, ...;</p>	
 <p style="text-align: right;">4-rasm</p>	<p>Bu tipga mansub kishilar o‘simliklar, hayvon organizmlari, mikroorganizmlar va ularning paydo bo‘lish shart-sharoitlarini o‘rganishga yo‘nalgan bo‘ladi. Shuningdek, bu tipga mansub kasb sohiblarining mehnat faoliyati jonli va jonsiz tabiatni o‘rganish, o‘simliklar va hayvonlarni parvarish qilish, ular bilan profilaktika va davolash ishlari bilan bog‘liq bo‘lib, bo‘larga: mikrobiolog, geolog, polizchi, ornitolog, zootexnik, veterinar, ekolog, agroximik, meliorator, o‘rmonchi va boshqalar kiradi.(4-rasmga qarang)</p>
<p>2) inson → texnika (I-Te) – ishlab chiqarish stanoklarini boshqaruvchi, haydovchi, slesar, kashfiyotchi, injener, ...;</p>	
 <p style="text-align: right;">5-rasm</p>	<p>Qiziqishlar ob‘ektining asosi jonsiz texnikaga yo‘nalgan shaxslar. Ushbu tipga mansub kasb egalarining faoliyati texnik vositalarni yig‘ish, montaj qilish va tuzatish ishlariga qaratilgan bo‘lib, bo‘larga: gazoelektro payvandlovchi, tokar, injener, konstruktor, slesar, montajchi, haydovchi, mexanik, mashinist, texnolog va boshqalar kiradi. (5-rasmga qarang)</p>
<p>3) inson → inson (I-I) – psixolog, o‘qituvchi, vrach, rejissyor, ...;</p>	



Qiziqishlar ijtimoiy institutlar, sotsium (katta va kichik guruhlar)ga yo‘nalgan shaxslar. Mazkur tipga mansub kasb egalarining faoliyati shaxslararo munosabatlar tizimiga asoslangan bo‘lib, bo‘larga: vrach, hamshira, feldsher, o‘qituvchi, psixolog, sotsiolog, referent, menenjer, sotuvchi, ofitsiant, ekspeditor, yurist, izquvar, militsioner va boshqalar kiradi.(6-rasmga qarang)

4) **inson → belgilar tizimi** (I-Bt) – grafolog, arxivchi, kutubxonachi, dasturchi, ...;



7-rasm

Bu tip mansub shaxslar shug‘ullanuvchi sohalar predmeti bo‘lib, tabiiy va sun‘iy tillar, shartli belgilar, simvollar, sonlar, formulalar bo‘lib hisoblanadi. Ushbu tipdagi kasb egalarining mehnat faoliyati matnlar, sonlar, formulalar, jadvallar, chizmalarga qaratilgan bo‘lib, bo‘larga: tarjimonlar, dasturchilar, buxgalter, iqtisodchi, marketolog, geodezachi, aloqachi, soliq inspektori va boshqalar kiradi.(7-rasmga qarang)

5) **inson → badiiy obraz** (I-Bo) – badiiy tanqidchi, aktyor, musavvir, dizayner, ...



8-rasm

Bu tipga mansub shaxslar o‘z qiziqishlarini badiiy tassavurlar va dalillarga yo‘nalganligi bilan ajralishib turishadi. Ushbu toifadagi kasb egalarining mehnat faoliyati, asosan, badiiy asarlarni loyihalash, modellashtirishni yaratishga qaratilgan bo‘lib, bo‘larga: jurnalist, musavvir, modeler, bichuvchi, zargar, dizayner, arxitektor, sartarosh, pardoziy, sahna bezatuvchisi, aktyor va boshqalar kiradi.(8-rasmga qarang)

3.2. Kasblarning maqsadiga ko‘ra sinflari

Ikkinchi darajada ushbu besh tipdagi kasblar maqsadiga ko‘ra **uchta sinfga** bo‘lingan:

1. Gnostik (grek. «gnosis» – bilim) kasblar (G)

Misollar:

1) «I-Ta» tipidagilar – mevalarni qabo‘l qiluvchi – nazoratchi, choyni sinovchi;

- 2) «I-Te» tipidagi – o‘lchovchi, tayyor holdagi mashina tuzilishini nazorat qiluvchi, qishloq xo‘jalik texnikalarini tekshiruvchi-usta;
- 3) «I-I» tipidagi – sud-medsina eksperti, vrach-mehnati eksperti, sotsiolog;
- 4) «I-Bt» tipidagi – tipografiya tuzatuvchisi, yarim tayyor mahsulotlarni va tayyor poligrafiya mahsulotlarini nazorat qiluvchi, buxgalter-revizor;
- 5) «I-Bo» tipidagi – san’atshunos, muzikashunos, teatrshunos.

2. O‘zgaruvchan kasb (O‘)

Misollar:

- 1) «I-Ta» tipidagilar – sabzovot etishtiruvchi usta, hayvon boquvchi, achitqilarni etishtiruvchi apparatchi, o‘simliklarni himoya qiluvchi agronom, zootijener;
- 2) «I-Te» tipidagi – remontchi-slesar, tokar, chig‘ir stanoki operatori;
- 3) «I-I» tipidagi – o‘qituvchi, pedagog-trener, ishlab chiqarishni o‘rgatuvchi usta, injener-pedagog, ekskursvod;
- 4) «I-Bt» tipidagi – kartograf-chizmach, mashinikachi-stenograf, buxgalter;
- 5) «I-Bo» tipidagi – ko‘rgazmali gullarni etishtiruvchi, chini ishi bo‘yicha rassom, arxitektura qismlarini yopishtiruvchi.

3. Izlanuvchilik kasbi (I)

Misollar:

- 1) «I-Ta» tipidagilar – baliqchilik xo‘jaligidagi kuzatuvchi-qayd qiluvchi, o‘rmon xo‘jaligidagi kuzatuvchi-qayd qiluvchi, biolog-tadqiqotchi;
- 2) «I-Te» tipidagi – oyoq kiyimning ustki qismini bichuvchi, andoza yaratuvchi, injener-konstruktor;
- 3) «I-I» tipidagi – tarbiyachi, ishlab chiqarish tashkilotchisi, savdo tashkilotchisi;
- 4) «I-Bt» tipidagi – dasturchi, matematik;
- 5) «I-Bo» tipidagi – intererlarni loyihalovchi rassom, bastakor.

3-jadval. Kasblarning maqsadga ko‘ra klassifikatsiyalanishi

Mehnat bo‘yicha predmeti kasb tipi	Gnostik (aniqlamoq, ajratmoq)	O‘zgaruvchan (qayta ishlamoq, xizmat qilmoq)	Izlanuvchi (kashf qilmoq, o‘ylab topmoq)
Inson-tabiat	Botanik ishlab chiqarish	veterinar	bioinjener
Inson-texnika	stanoklarini boshqaruvchi	haydovchi, slesar	kashfiyotchi, injener
Inson-belgilar tizimi	Grafolog	arxivchi, kutubxonachi	dasturchi
Inson-badiiy obraz	badiiy tanqidchi	aktyor	musavvir, dizayner
Inson-inson	Psixolog	o‘qituvchi, vrach	rejissyor

Keltirilgan klassifikatsiyaga muvofiq kasb o‘rinlariga qarab, ularning kasb faoliyatiga qo‘yiladigan asosiy talablarni bilgan holda, zamonaviy va to‘ridan-to‘g‘ri o‘z kasbiy qiziqishlaringiz va qobiliyatingizni namoyon qilishingiz mumkin. (3jadvalga qarang)

3.3. Mehnat vosita quollarining asosiy belgilariga ko‘ra kasb bo‘limlari

Uchinchi darajada avvalgi darajadagi har bir kasb to‘rtta bo‘limga bo‘linadi va bunda mehnat quollari asosiy belgilar sifatida tanlab olinadi (*ammo har doim ham emas*):

1. Oo‘l mehnatiga asoslangan kasblar (O)

Misollar:

- 1) *Gnostik* kasb sinfiga ko‘ra – ximiyaviy-bakteriologik tahlil laboranti; stonok va slesar ishlari bo‘yicha nazoratchi, feldsher-laborant;
- 2) *O‘zgaruvchan* kasb sinfidagilar – veterinar feldsher, slesar, kartograf, rassom;

3) *Izlanuvchi* kasbi sinfida qul ostidagi buyumlar faqatgina yordamchi mehnat quroli sifatida bo‘lishi mumkin, masalan konstruktor qo‘lida qalam va qog‘oz kabi.

2. Mashina va qo‘l mehnati kasblari (M)

Qo‘l mehnati bilan boshqariladigan mashinalar mehnat predmetini qayta ishlash, o‘zgartirish, aralashtirish uchun yaratiladi, shuning uchun bu bo‘lim klassifikatoriga xos bo‘lgan kasb egalariga ekskavator mashinistlar, tokarlar, avtomobil haydovchilari kiradi.

3. Avtomatlashtirilgan va avtomatik tizimni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar (A)

Inkubator sexdagi operatorlar, dasturlashtirilgan stanokni boshqaruvchi operatorlar, magnit zapis operatori.

4. Mehnat vositalarining ko‘pfunksiyaliligiga bog‘liq kasblar (F)

Bu yerda mehnat vositalarining psixologik ko‘rinishi nazarda tutilgan – turli xil fikrdagi etalonlar (masalan, akrobatda – harakatlarning ketma-ketligini xayol qilish, direjyorda – ko‘rsatmali etalonlar va boshqalar).

To‘rtinchi darajada mehnat sharoitiga ko‘ra har bir guruhning o‘ziga xos quyidagi belgilari ko‘rinadi:

1. Mikromuhit, maishiy qulayliklar, «xonakilashtirilgan» sharoitlarda ishlovchilar (m): laborantlar, buxgalterlar, EHM operatorlari.

2. Har qanday ob-havo sharoitida ham ochiq havoda bo‘lish zarurati bilan bog‘liq ishlar (o): agronom, po‘lat va temirbeton konstruksiyalarni montajlovchi, davlat avtoinspeksiya nazoratchisi.

3. Noqulay shart-sharoitlar – balandlikda, suv tagida, yer ostida, yuqori hamda past temperaturada va hokazolardagi ishlar (n): antenachi-machtachi, g‘ovvos, tog‘ kombayni mashinisti, o‘t uchuruvchi.

4. Insonlarning ma‘naviy hayoti va sog‘ligi uchun javobgar bo‘ladigan, asosan qadriyatlarga yo‘naltirilgan ishlar (m): MTM tarbiyachilari, o‘qituvchilar, izquvarlar.

Xulosa qilib aytganda, ushbu to‘rtta guruhdagilar bir-birini inkor qilmaydigan, ba’zida bir yo‘nalishda ish yurituvchilardir. Ular faqatgina inson o‘zi uchun zarur bo‘lgan vositalar, belgilar asosida kasbiy farqlanishlardir.

Reja:

1. Kasbga o'qitishning rivojlanish tarixi.
2. O'quv faoliyatining psixologik mohiyati.
3. O'quv faoliyati motivlari.
4. Kasbga o'qitishning psixologik asoslari.

Hozirgi davrda kasbiy psixologiyaning muhim vazifalaridan biri - o'quv maskanidagi ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu xil yangi ta'lim dasturiga o'tish munosabati bilan bog'liqdir. Kasbiy ta'lim psixologiyasi shu bilan birga o'quvchilar shaxsining tarkib topish jarayonini turli tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganadi hamda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik asoslarini tadqiq etadi. Shuningdek, kasbga o'qitishning asosida o'qituvchi shaxsini, uning pedagogik faoliyat xususiyatlari ham o'rganiladi. Bunda o'qituvchining ta'lim-tarbiya ishlaridagi yutuqlarni ta'minlovchi sifatlariga urgu berish bilan birga, uning bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarining tarkib topishi hamda taraqqiyotining psixologik jarayonlari aniqlanadi. Kasbiy psixologiya fanini o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u boshqa fanlar singari taraqqiyotning umumiy tamoyillariga: oliy nerv faoliyati va psixofiziologiya qonunlariga, bu sohada tuplangan ilmiy ma'lumotlarga tayanib, inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, o'zgarishi yuzasidan bahs yuritadi. Ibn Rushd o'zining Abu Hamid Muhammad G'azzoliy asari-«Faylasuflarni rad etish» («Taxofut-ul-falosiya»)ga qarshi yozgan «Faylasuflarni rad etish» («Taxofut-ut-taxofut») asarida G'azzoliyning islom ortodoks kalom ta'limotini qattiq tanqid qiladi. U kishi oliy kamolotga faqat zikru sano orqali emas, balki falsafiy bilimlarni egallash orqali erishadi, deb ta'lim beradi. Ibn Rushdning bu falsafiy ta'limoti O'rta asrdagi Yaqin va O'rta Sharq



9-rasm

mamlakatlarida, keyinchalik esa uyg'onish davri Evropa mamlakatlarida falsafiy qarashlarning rivojlanishida katta rol o'ynaydi. U O'rta asr hurfikrligining eng yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi.

O'rta asrlar Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrining rivojlanishida, ayniqsa, Abu Nasr Ibn Muhammad **al-Forobiy** (870-950) faxrli o'rin tutadi. U Sirdaryo bo'yidagi Forob qishlog'ida tug'iladi va dastlabki bilimni SHosh, Samarqand va Buxoroda oladi. So'ngra Forobiy o'z bilimni davom ettirish uchun Bag'dodga boradi. Natijada, u o'z davrining yirik olimi va buyuk faylasufi bo'lib etishadi. Forobiy Bag'dodda yashab ijod qiladi, umrning so'nggi yillarini Xalab va Damashqda o'tkazib, shu erda vafot etadi.(9-rasmga qarang)

Al-Forobiy 160 dan ortiq asarlar yozgan bo'lib, bizga ularning bir qismigina etib kelgan. U yaratgan asarlarni ularning xarakteriga qarab ikki guruhga ajratish mumkin: a) qadimgi yunon tabiatshunos olimlari va faylasuflari ilmiy merosini o'rganish, tarjima qilish va sharhlashga oid asarlar. Bulardan Aristotelning

«Kategoriyalar», «Ikkinchi analitika», «Topika», «Poetika», «Ritorika», «Sofistika» va shu kabi asarlariga yozilgan sharhlarni keltirish mumkin; b) O'rta asr fanining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalariga oid risolalar. Bulardan: «Ixso-al-ulum», «Hikmat asoslari», «Aristotel «Mantiq»ining talqinlari», «Katta musiqa kitobi», «Assiyosat al-madaniy», «Mantiqqa kirish», «Vakuum haqida», «Fozil odamlar shahri» va shular kabilardir.

Forobiy falsafiy qarashlarining asosini uning dunyosining tuzilishi haqidagi panteistik ta'limoti tashkil qiladi. Bu ta'limotga ko'ra, butun mavjudot-borliq emanatsiya asosida yagona boshlang'ichdan bosqichma-bosqich vujudga kelgan. Bu oltita bosqichdan iborat bo'lish, ular o'zaro sababiyat orqali bog'langan. Bunday birinchi bosqich-birinchi sabab – bu «vujudi vojib»-o'z-o'zidan zaruriy mavjud bo'lgan yagona Olloh (as-sabab al-avval); ikkinchi bosqich-bu birinchi «vujudi mumkin» bo'lib, ular osmon jismlari, ikkinchi sababdir (as-sabab as-soniy); uchinchi bosqich-bu ikkinchi «vujudi mumkin», ya'ni faol aqlidir (al-aql al faol); to'rtinchi bosqich - to'rtinchi sabab-bu tirik mavjudotlarga xos jonxir (an-nafas), ya'ni uchinchi «vujudi mumkin»dir; beshinchi bosqich-beshinchi sabab-bu narsa va hodisalarning ko'rinishi, ya'ni shakli (as-surat)dir, ya'ni turtinchi «vujudgi mumkin»dir; nihoyat, oltinchi bosqich-oltinchi sabab-bu narsa va hodisalarning jismi, tanasi, ya'ni moddadir, bu beshinchi «vujuddi mumkin»dir. Bu bosqichlar birlari bilan sababiy bog'langandir.

Borliqning Forobiy tomonidan bunday talqin qilinishi o'sha davrda tabiiy-ilmiiy g'oyalarning yanada rivojlanishiga keng yo'l ochadi. Uning talqinidagi to'rtinchi, beshinchi va oltinchi bosqichlar osmon va er sathidagi jismlar moddiylik xossasiga ega bo'lib ular ham 6 turga bo'linadi: to'rt element osmon jismlari, minerallar, o'simliklar, aqlsiz hayvonlar va aqlli hayvonlar. Forobiyning borliq haqidagi bu ta'limotida shakl va mazmunning munosabati haqida u shaklni narsalarning qiyofasi, tuzilishi va shu kabi miqdoriy aniqlovchilarning yaxlit ko'rinishi, deb; moddani esa narsalarni tashkil qiluvchi mohiyat, asos, deb tasavvur qiladi.

Forobiyning fikricha, oltinchi bosqich modda ko'plab belgi va xususiyatlarga ega, ya'ni u sifat va miqdorga, substansiya va aksidensiyaga, imkoniyat va voqelikka, zaruriyat va tasodifga, harakat, makon va zimonga ega. Uning ta'kidlashicha: «hamma narsalar uchun umumiy jism-olamdir, olamdan tashqarida hech narsa yo'q». Jism bo'lishlik hislati mavjud hamma narsalarning xususiyatidir.

Forobiy inson, uning bilishi, ilm-fan va aql haqida ham o'zining falsafiy qarashlarini ilgari suradi. Garchi u insonni «aqlli hayvon»desa ham aqlli inson haqida shunday yozadi: «Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo'r iste'dodga ega, (ular) yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil, deydilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aqlli, deb bo'lmaydi, ularni ayyor, (muttaham), aldoqchi, degan nomlar bilan atamoq lozim»

Forobiy, borliqni insoning bila olishini qayd qilib, insonning bilishini, uning ruhiy qobiliyatlarini inson miyasi boshqaradi, barcha ruhiy «quvvatlar», jumladan bilish qobiliyati ham unga bog'liq, deydi. U o'zining «Ilm va san'atning fazilatlarini» risolasida insonning tabiatni bilishi cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, aksidensiya (al-oraz)lardan, ya'ni sifatlardan substansiyani-mohiyat (javhar)ni bilishga qarab borishini, ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishni aytadi.

Forobiy inson bilishi jarayonini ikki bosqichga bo'lib, bu bosqichlarning o'zaro bog'liqligini, aqliy bilim hissiy bilishsiz yuzaga kelmasligini alohida ta'kidlaydi. U inson bilish jarayonining bu bosqichlarini insondagi «tashqi quvvat» va «ichki quvvat»lar bilan izohlaydi. «Tashqi quvvatlar» bevosita tashqi ta'sirlar orqali sezgi a'zolarida vujudga keladigan sezgilardir. Ular 5 turli: teri-badan sezgisi, ta'm bilish sezgisi, hid bilish sezgisi, eshitish sezgisi, ko'rish sezgisi. Bularning hammasini Forobiy hissiy bilish («quvvat hissiya»), deb qaraydi. «Ichki quvvatga»ga esa u esda olib qolish (xotira), hayol (tasavvur), his-tuyg'u nutq (fikrlash) «quvvatlarini»ni kiritadi. «Ichki quvvat» deganda u insonning aqliy bilish bosqichini tushunadi. Uningcha, ilmni egallash shu «quvvatlar» orqali amalga oshadi.

Forobiy «Aql ma'nolari haqida» risolasida aql muammosini chuqur tahlil qilib, bu haqida aql, bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta'sir, ya'ni ta'lim-tarbiyaning natijasi, deydi. Uning fikricha, aql faqat insongagina xos bo'lgan ruhiy kuch bilan bog'liq qobiliyat, insonni hayvondan ajratuvchi asosiy omildir.

Forobiy o'z bilish nazariyasida Platonning g'oyalar dunyosi, g'oyalarning tug'ma bo'lishi haqidagi ta'limotga qarama-qarshi, g'oyalarning, tushunchalarning borliqdan, reallikdan olinganini,

masalan, matematik tushunchalar: nuqta, chiziq, doira va sath kabi geometrik tushunchalar real mavjud narsalarning inson miyasidagi fikri in'ikoslari ekanligini aytadi.

Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun insonlar ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnavdilar, natijada, inson jamoasi vujudga keldi». Forobiy o'z davridayoq buyuk faylasuf, Sharq mutafakkirlari orasida Aristoteldan keyingi «Ikkinchi muallim» degan nomga sazovor bo'lgan qarashlari bizning mustaqillik sharoitimizda ham muhim ahamiyatga ega.



10-rasm

O'rta asr Sharqining, xususan, Markaziy Osiyo ilk uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan yana biri Abu Rayxon Muhammad Ibn Ahmad Beruniy (973-1048)dir. U qadimiy Xorazmning poytaxti bo'lgan Kot shahrida tug'ilib o'sadi va shu erda muvaffaqiyat bilan bilim oladi. U ona tilidan tashqari, arab, sug'd, fors, suryoniy, yunon, qadimiy yahudiy tillarini, keyinroq sanskrit va hind tillarini o'rganadi. Beruniy o'z davridagi deyarli hamma ilm sohalarini egallaydi va ularga oid o'zi ham ko'plab asarlar yozadi. Natijada, u o'zidan keyingi avlodlarga katta va boy ilmiy meros – 160 dan ortiq asarlar, tarjimalar, yozishmalar qoldiradi. Beruniy fikricha, xudo va boshlang'ich modda, ya'ni materiyadan boshqa hech narsa bo'lmagan.

Borliq abadiy, u o'zgarish va taraqqiyotdadir. Materiya muayyanlik libosiga burkanadi, u faoldir, harakat tamomila materiyaga tegishli, u ruhni modda bilan bog'laydi va uni turli shakllarda kezib yurishga

majbur etadi. (12-rasmga qarang)

Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. U insonni eng sharafli borliq sifatida tushuntiradi. Inson faqat o'zi uchun yashamasligi, insonlar bir-birlariga yordam berishlari kerakligini ta'kidlaydi. Uningcha, insonlar o'rtasidagi tafovut ko'proq tashqi



11-rasm

jihatdan mavjud bo'lib, ular ichki tuzilashi va tashkil topishi jihatdan bir umumiylikka ega. Lekin inson maymunga o'xshasa ham, ular o'rtasida tub farqlar mavjud. U «Hindiston» asarida insonlarda tillarning turlicha ekanligi to'g'risida to'xtalar ekan: «Tillarning turlicha bo'lishiga sababodamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-birlaridan uzoqda yashashlaridir», -deydi

IX-XII asrlar musulmon Sharqi, xususan Markaziy Osiyo xalqlari tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarining rivojiga o'zining buyuk hissasini qo'shgan qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali Husayn Ibn Abdulloh Ibn Sino (980-1037)dir.

Abu Ali Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, so'ng Buxoroda o'qib ulg'ayadi. Bu erda u turli ustozlardan ta'lim olib, o'z davri ilmlari: matematika, mantiq, astronomiya, huquqshunoslik, fizika, kimyo, falsafa kabi

dunyoviy ilmlarni chuqur o'rganadi. Ayniqsa, u tibbiyot ilmini kuchli va zo'r qiziqish bilan egallaydi. Tabobat saboqlari uning

uchun shu qadar kuchli ta'sir qiladiki, u 16 yoshga kirganda bu soha ilmlarni nazariy o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki amaliy tibbiyot bilan shug'ullanib, tabiblik ham qila boshlaydi. Abu Ali Ibn Sino 18 yoshga to'lganda juda ko'p ilm sohalari egallagan bo'ladi. U shu davrdan boshlab o'zi ham bu sohalarga oid asarlar yarata boshlaydi. *(11-rasmga qarang)*

Abu Ali Ibn Sino o'z davrining barcha ilg'or ta'limotlarini, xususan, qadimgi Hind, Yunon, Turon nihoyat, O'rta asr arab, Uyg'onish davri Markaziy Osiyo ilmiy merosi bilan chuqur tanishadi, ularni o'z dunyoqarashida umumlashtiradi. U o'zidan oldin o'tgan Sharq olimlari, vatandoshlari: al-Xorazmiy, al-Kindiy, ar-Roziy, Forobiy asarlari bilan birga, yunon olimlari: Galen, Gippokrat, Evklid, Arximed, Pifagor, Porfiri, Platon, Aristotel asarlarini ham chuqur o'rganadi. Ayniqsa, Forobiyning asarlari uning falsafiy va ijtimoiy qarashlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan asarlari orasida 5 tomndan iborat «Al-Qonun fit tib» («Tib qonunlari») asari, 18 tomndan iborat mantiq, fizika, matematika va metafizika (Falsafa)ni to'liq o'z ichiga olgan «Kitob ash-SHifo», «Kitob an-najot», shuningdek 20 tomlik «Kitob al-Insof» («Insof kitobi»), «Donishnoma» asarlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Ibn Sino insonni tana va jondan tashkil topadi, deydi. Miya esa jonni boshqaruvchi markazdir. Uning fikricha, hasharotlar, o'simliklar, hayvonlar va insonlar qandaydir ichki kuch - jon («an-nafas»)ga egadir. Inson joni bunda eng oliy va yetuk jondir. Shuning uchun inson fikrlash hislatiga mavhum tushunchalarni o'zlashtirish, bilish mavjudotning mohiyatini tushunish, maqsadli faoliyatlarni amalga oshirish qobiliyatiga egadir. Inson aqli jonning oliy darajadagi ifodasidir. Inson mavjudot mohiyatini bilishi uning tafakkurining dunyoviy aql bilan qo'shilishi asosida vujudga keladi.

Alisher Navoiyning «Xazoyin-ul-maoniy», «Maxbub-ul-qulub» va boshqa shu singari asarlarida yetuk, barkamol insonning ahloqi, ma'naviyati, o'zgalarga munosabati, iste'dodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning karor topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Shu bilan birga o'qituvchi mexnatini xolisona baxolab: —Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi, deydi, bu orqali ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'qituvchi shaxsining markaziy shaxs sifatida ko'radi. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohazalar alohida o'rin egallaydi. Navoiy «Hamsa»sining har bir dostonida bukilmis iroda, qat'iyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg'ulari, ijodiy hayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Shuningdek, bu borada Mahmud Qoshg'ariy, Ulug'bek, Naqshbandiy, Ogahiy singari buyuk Sharq mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga, o'qituvchi, tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, ahloq-odob, fe'l-atvor, oilaviy xayot, shaxslararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini ta'kidlash mumkin.

O'quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon buluvchi uzluksiz jarayondir. Rus psixologi A.N.Leontyev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o'quv faoliyatida o'sishini ta'kidlaydi. D.B.Elkonin esa o'quv faoliyatining xususiyatlarini ko'rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o'zini namoyon bo'lish shakliga ko'ra ijtimoiyligini ta'kidlaydi. O'quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o'quvchida o'zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida, qurilgan bo'lishi darkor. Bu motivlar bevosita o'quvchi shaxsining o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

O'quv faoliyati ta'lim, o'qish va o'rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi o'quv faoliyati, o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga o'rgatish jarayonidir. Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvorning shakllarini o'zlashtirishga qaratilgan. O'qish va o'rgatish tushunchalari o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, o'rgatishga xizmat qiladi. O'quv faoliyatining besh elementi mavjud: 1. O'quv motivlari. 2. O'quv topshiriqlari. 3. O'quv harakatlari. 4. O'qituvchining nazorati. 5. O'qituvchining

baholashi.

D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, o'quv faoliyatining shakllantirilishi bu faoliyat ayrim kishilar bajarilishini asta -sekinlik bilan o'quvchining o'ziga o'qituvchining ishtirokisiz mustaqil bajarish uchun o'tkazilishidir. Ta'lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo'lib, u o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ta'lim jarayoni besh elementdan iborat: 1. Ta'limning maqsadi - nima uchun o'qitish kerak? 2. Ta'limning mazmuni - nimaga o'qitish kerak? 3. Ta'limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo'llari. 4. Ta'lim beruvchi. 5. O'quvchi.¹⁰

Ta'lim jarayonini tashkil etish: ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o'zlashtirilishi: - faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining o'zlashtirilishiga; - maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to'g'ri tanlash va foydalanishga bog'liq. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati: 1. Motivasiya. 2. Ma'lumot usullari. 3. Ma'lumotning tushunariligi. 4. Xotira. 5. Ma'lumotni qo'llash. Ta'lim va ta'lim jarayonida bolani rivojlanish muammosi psixologik markaziy masalalardan biridir.

O'quv faoliyati motivlarining paydo bo'lishi va ularni shakllantirishga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri: 1. Aqliy hatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko'nikmalarni bosqichma- bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.Ya.Galperin). P.Ya.Galperin nazariyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga: 1. Motivasiya. 2. Tushuntirish. 3. Moddiy formadagi hatti-harakatlarni bajarish. 4. Baland ovozda hatti-harakatlar va vazifalarni bajarish. 5. Bajariladigan hatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish. 6. Faoliyatni fikran bajarish kiradi. Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy turlari ajratiladi: - birinchi turda - hatti-harakatlarni o'zlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material yetarli darajada anglanilmaydi, ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib yetmaydi; - ikkinchi turda - materialni nisbatan dadil va to'la tushunilishi va material bilan bog'liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi; - uchinchi tur - tez, samarador va bexato hatti-harakatlarni o'zlashtirilishini ta'minlab beradi.

V.V.Davidov nazariyasi. Ushbu nazariya kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ilmiy tushunchalarni o'zlashtirilishini targ'ib qiladi. Bunda o'quvchilar tomonidan ta'lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini o'zlashtirilishi lozim bo'lib, bu o'z o'rnida xususiyan umumiy bilimlarga o'tilishni ta'minlaydi. Qator nazariyalar muammoli ta'lim bilan bog'liq bo'lib, L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta'limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgandir. Ta'limning psixologik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. Avvalo o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga to'xtaylik. Bu munosabat diqqatda, his-tuyg'ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, texnik va EXM vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash xolatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqati o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish hamda ularni takrorlash kerak. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi. O'qitishning emosionalligi ta'limning muvaffaqiyatlilikini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emosional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hiech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni

¹⁰ G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. -T. O'qituvchi. 2010 y. 63 - b

o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o'quvchilarning psixik xolatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. O'quvchilar emosional ruhdagi materialni durustroq o'zlashtirib oladilar.

O'tkazilgan tajribalarda o'quvchilar hiech qanday his-tuyg'u uyg'otmaydigan materialga qaraganda, emosional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko'rsatadi. O'qituvchi o'quv jarayonining emosional tomoni haqida g'amxo'rlik qilishi kerak.

Bu o'rinda o'quvchi-o'smirlarning o'qishga bo'lgan motivasiyasini uyg'otish maqsadga muvofiqdir. Hali hiech qancha bo'lgani yo'q, Barbara Fuller ismli o'qituvchi boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilarga umumiy bilimni o'rgatdi va uning darslaridan biri o'rgimchak va hashorotlar haqida edi. U darsining bir qismi sifatida o'quvchilardan o'zlarining uylaridan yoki xonalaridan hashorot va o'rgimchaklarni qidirishini buyurgan. Ular tirik mavjudotlarni maktabga olib kelishdi, o'zlarining jurnallaridagi savollarga javob berishdi, so'ng o'zlarining topilmalari haqida auditoriyaga qisqacha og'zaki ma'lumot berishdi. Baholash halol tarzda bo'lgandek tuyuldi, lekin, Barbara o'quvchilarning darsga turli xil yo'llar bilan javob berganini aniqladi. Quyida Barbaraning talabalarni qanday javob berganini tasvirlagani keltirilgan:

“Yesimda Joze boshlashni kutib turolmadi va baholashni tugashini ham kutib turolmadi. Har kuni u 25 xil turdagi o'rgimchak va hashorotlarni olib keldi. Har kuni u hashorotlarning rasmlarini o'zining jurnaliga chizdi va ular haqida izoh yozdi. Oxirida u 3-kurslar ichida eng yaxshi og'zaki namoyish ko'rsatdi. U buni “Ular bizlardan oshib ketdi” deb atadi. Qaniydi men uni ko'rganimda, u juda bosiq va zavqqa to'lgan edi.

Shundan so'ng hatto uni qiziqirmasa ham hamma narsada eng yaxshi bo'lishni istaydigan qiz – Lindsey chiqdi. U ishni ozgina sekin – bir qancha hashorot va bittagina o'rgimchak olib kelgan holda boshladi. Lekin u boshqalarning nimalar va qanchadan olib kelayotganiga ko'z tashladi. U Jozening qancha hashorot olib kelayotganini ko'rib, oyoqlarini qo'liga olib, Jozening darajasiga yetishishga kirishdi. U Joze olib kelganidek turli xil hashorot olib kelish o'rniga, ko'pdan-ko'p bir xil hashorot – deyarli 20 ta o'lgan uy pashshalarini olib keldi, huddi men eslaganimdek! Uning prezintatsiyasi yaxshi edi – unga yomon baho qo'yolmasdim, lekin u Jozenikidek yaratuvchan yoki farosatli emas edi. O'ylashimcha u uning materiallariga nisbatan ko'proq baholandi.

U yerda shuningdek umidsizlanayotgan Tobias bor edi. U ishini zo'rg'a bajargan. Men uni boshqalarning hashorotlar kolleksiyasini va jurnallarini ko'rayotganini payqadim. U aldamayotgan edi, men ishonaman. Shunchaki u ishining darajasi qanday ekanligi va yutqazmaslik uchun nima qilish kerakligini aniqladi. U aksariyat o'quvchilarga nisbatan kamroq hashorot olib kelgan edi. Shuningdek u jurnalidagi savollarga qisqacha javob bergan edi va eng qisqa og'zaki ma'lumot berdi.

Nihoyat Zoyey. U ancha shoshqaloq edi! Men uni ustidan na kulishni, na yig'lashni bilmasdim. U topshiriqni bajarishga qarshilik qilmadi, lekin boshqa o'quvchilar bilan muloqot qilishni xohladi. Shuningdek u osongina chalg'itildi va ishini namoyish qilayotgan vaqtda jurnalidagi ma'lumotlarni aytishni esidan chiqarib qo'ydi. Mana uni nima saqlab qoldi – mana uni yuqori ball olishiga sabab bo'ldi – shuki u ishini 2 ta qiz bilan o'zaro fikr almashib tugatdi. Qolgan 2 ta qiz topshiriqni juda ajoyib tayyorlagan – ajoyib hashorotlar to'plami, jurnaliga yaxshi ma'lumotlar yozilgan va og'zaki prezintatsiyasi ham qiziqarli edi. Shuning uchun Zoyey ular bilan suhbat qurishga urinsa, suhbat qanday yo'l bilan bo'lsa ham tugallandi. U qizlarga uning fikrini qo'llab-quvvatlagani uchun rahmat aytdi. Zoyey ularning yordamisiz nima qilardi, bilmadim”.

Barbaraning xotirasi ma'lum qilishicha, o'quvchilar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishda turli xil nazariya va urinishlarni ko'rsatishdi – shaxsiy fikrlar va urinishlar qaysiki energiyalarini turli xil yo'llar bilan yo'naltirilgan.¹¹

Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta'limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, xajmi esa g'oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirishi lozim. Ijoiy

¹¹ Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 8-10 бетлар

tuyg'ular o'quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan beg'araz munozara paydo bo'ladi, bahslashiladi, befarq qaragan yoki undan ham beshbattar, salbiy munosabatda bo'lishgan ishga esa hech qanday xafsala bo'lmaydi. Jamiyatimizdagi mehnat - ijod, quvonch manbai. O'quv maskani o'quvchilarida o'quv mehnatiga ijodiy munosabat uyg'otib, mehnatning xaqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko'maklashishi kerak.

Qadimda greklar juda ajoyib iborani qo'llaydilar: "Talaba -to'ldirilib turilishi kerak bo'lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo'lgan mash'aldir". Bu fikrning tagida chuqur ma'no bor. Zero, o'qituvchi biz yuqorida ta'kidlab o'tgan ta'lim metodlari muammoli ta'lim, qisman izlanish metodi va tadqiqot metodlaridan keng qo'llanishi kerak. Ta'lim jarayonini bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish bo'lib, yuqorida aytib o'tgan metodlardan foydalanish uchqunlardan katta mash'allar paydo bo'lishini ta'minlab beradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilishga qiziqishlari g'oyat katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, qiziqish o'quvchilarning emosional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo'nalishidir. Ma'lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o'quvchilarning ta'lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida o'z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. qiziqishlar orqali o'quvchilarda ta'limga aktiv munosabat namoyon bo'ladi. Psixologiyada qiziqish - bu shaxsning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qiziqishlar o'quvchilar hayotida katta rol o'ynaydi. Ular o'quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar - motivlaridir. Qiziqishlar ta'lim maskanlari o'quvchisiga fan asoslarini durustroq o'zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o'sishiga, bilim doirasining kengayishiga imkon beradi. O'qituvchilarning vazifasi o'quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o'zi bilan shug'ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta'sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug'ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir. O'quvchilarning muayyan maqsadni ko'zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni yenga olishida, ishdan chalg'itadigan narsalar bilan shug'ullanishdan o'zini tiya olishida, unda o'qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo'ladigan iroda ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, iroda bu shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yo'lida ma'lum bir qarorga kelish tezligi va uni o'z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir.

Ta'lim jarayonida o'quv materialiga bo'lgan diqqatning barqaror bo'lishida irodaviy zur berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ta'limda iroda o'quvchida o'quv maskani va uyda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga tayyor turishda namoyon bo'ladi. O'quv materialini o'rganish - eslab qolish va o'quvchining irodaviy zo'r berishganiga bog'liq. Iroda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarida - masalani yechishga, quyilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishida namoyon bo'ladi. Ular o'quvchilarda ko'nikma va malakalarni hosil qilishda ham tarkib topadi. Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o'quvchilar tomonidan berilgan materialning o'zlashtirilishi ko'p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bog'liqdir. Irodaviy aktivlik ta'limning zarur shartidir. Ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonining o'zi o'quvchilardan irodaviy o'stirish omillaridan biridir. Bunda o'quvchilarning kundalik rejimi, o'qish va okilona dam olishni bir-biri bilan to'g'ri almashtirib turish katta rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida bilish jarayonlarini shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim. Zero bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo'lib, unda jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, abstrakt tafakkurdan amaliyotga o'tiladi, ana shundan so'ng obyektiv haqiqat bilib olinadi. Binobarin, biz birinchi navbatda ko'rib chiqishimiz lozim bo'lgan narsa o'quv materialini idrok qilish jarayonidir. Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta'sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo'lishi bo'lib, idrok etish jarayoni ta'limda turli formalarda o'qituvchining og'zaki xikoya qilishida, suxbat o'tkazishda, leksiya o'qishida, ko'rgazmali qurollar ko'rsatish, ekskursiyalar o'tkazish, axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchining o'ziga darsliklar hamda boshqa qo'llanmalarni o'qitish tarzida o'tishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda

muhimdir. Chunki, fazoni, vaqtni va harakatlarni idrok etishda ham yosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo'ladi.

Biz bu energiyalarini motivasiya termini yoki bazida o'rganish uchun motivasiya deb ataymiz. Ko'rib turganimizdek, motivasiyadagi turli-tumanliklar sinfxonalardagi tafovutning muhim sababi avvalgi bilimlarni, qobiliyatni, o'qishdagi rivojlanishni farqlashda taqqoslanuvchi ahamiyat kasb etadi. Maktabdagi o'qish vaqti kelganida, aksariyat hollarda, o'quvchilarning motivasiyasi muhim rol o'ynaydi, chunki o'quvchilarning oddiy darsda ishtirok etishlarini o'zlari xohlashlari kafolatlanmagan (albatta). Bu o'quvchilarning yosh odamlarni maktabga borishini talab qiluvchi jamiyatda yashashlarining belgisidir.

Zamonaviy ta'lim majburiy bo'lar ekan, o'qituvchilar o'quvchilarning o'qish uchun motivasiya hosil qilishga ishonirish mas'uliyatini oladilar. Qanday qilib bo'lsa ham o'qituvchilar o'quvchilarning qilishi shart bo'lgan ishlarini xohlab bajarishga ko'ndirishlari shart. Tushunish va o'quvchilarning o'qish borasida motivasiyalariga ta'sir ko'rsatish bu bobning eng asosiy maqsadidir. Baxtimizga, ko'rib turganimizdek, o'quvchilarning tanlovini, orzu-havasini va urinishlarini hurmat qilishni amalga oshirish uchun yo'llar bor. Motivasiyaning o'ziga o'xshab uning nazariyalari ham turli-tumanlikka to'la. Farqlardagi tafovutlarni ajratish uchun, quyidagi asosiy motivlar nazariyasini ko'rib chiqamiz.

- (1)-maqsadni belgilovchi motivlar;
- (2)-qiziqish motivlari;
- (3)- muvaffaqiyat eltuvchi yoki qochuvchi motivlari;
- (4)- ishonch motivlari;
- (5)- irodaviy motivlar deb ataymiz.¹²

Ta'lim olish jarayoni insondagi motivlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning mohiyati - inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchada ifodalanadi. Motivasiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik tashkilotchilik, qo'llab- quvvatlash kiradi. Ta'lim jarayonida o'qish motivlari "nima uchun?", "nimaga?", "qanday maqsad bilan?" kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan, o'quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. O'quv faoliyatida o'quv motivlar o'quvchilar tomonidan tanlanib, ular o'quvchining maqsadi, qiziqishi, kelajak rejalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda o'quv motivlari turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi.

O'quv faoliyati motivasiyasining manbalari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: 1. Ichki manbalar. Ular insoniy tug'ma yoki orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi tug'ma informasiyaga bo'lgan ehtiyojdir. Orttilgan ehtiyojlar esa gnostik va ijtimoiy ijobiy ehtiyojlar hisoblanadi. 2. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Talabalar ularning birinchisi bo'lib, jamiyatning shaxsdan talab qiladigan doimiy xulq-atvor bildiradi. Bog'cha, o'quv maskani, oila boladan juda ko'p ishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Ijtimoiy kutish har birimizdan ma'lum bilimlar, ko'nikmalar darajasini bo'lishi, zarurligini jamiyat kutishini bildiradi. Masalan, bir yoshli bola yurishi kerak, 7 yoshdan u o'qishi kerak, 15 yoshdan u kasb tanlashi kerak deb hisoblaymiz. Imkoniyatlar - shaxs faoliyatini belgilovchi obyektiv shart-sharoitlardir. Masalan, bolaning undan boy kutubxona uni kitob o'qishga undaydi. 3. Shaxsiy manbalar: bu shaxsning qadriyatlarini sistemasi ustanovkalari g'oyalaridir. Bu manbalar har bir shaxs faoliyatida u yoki bu darajada mavjud. Ularning barchasi faoliyatning ketishiga ta'sir etib ta'lim jarayonining motivasiyasini tashkil etadi. V.A.Kruteskiy o'spirinlarda uchraydigan motivlarning quyidagilarni alohida ifodalaydi: a) Biror o'quv faniga qiziqish; b) Vatanga foyda keltirish istagi; v) Shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish; g) Oilaviy an'analarga rioya qilish; d) Do'st-birodarlarga ergashish; ye) Moddiy ta'minlash va hokazolar.

¹² Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 10-13 betlar

6-MAVZU PROFESSIOGRAFIYANING MOXIYATI

Reja:

1. **Professiografiya haqida tushuncha.**
2. **Professiogrammaning psixologik jihatlari**
3. **Diagnostik profессиografiyalash.**

1920 yillarning ikkinchi yarmida rus psixotexniklari tez suratlarda kasbiy faoliyatning tamoyil va usullarini ishlab chiqdilar. Shu tadqiqotlarni umumlashtirishi natijasida psixotexnikada maxsus yondoshuv profессиografiyani shakllanishiga olib keldi. Bu yondashuvning moxiyati - "kasblar tasviri" umuman olganda profессиografiyani urganish, kasbning psixologik tavsifi va loyihalashtirishini o'z ichiga oladi.

Professiografiya deganda kasblar va ularning bir – biridan farqlanuvchi ixtisosliklar tomonidan inson oldiga quyiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi.

1. *Kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi;*

Psixogramma - kasbning psixologik portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bulgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo'ladi.

2. *Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati;*

3. *Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi;*

4. *Kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi; yoshlarda uning ijtimoiy mavqeyi (nufuzi), jamoaning o'ziga xos xususiyatlari, vertikal va gorizontal*

bo'yicha shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari;

5. *Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko'nikmalar ko'laminin pedagogik tavsifi (maxsus mezonlar orqali kasbiy mahorat aniqlanadi);*

6. *Pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir – choralarning umumiy tavsifi;*

7. *Mehnat sharoitining gigiyenik tavsifnomasi;*

8. *Kasb bo'yicha mehnat qilishga tibbiy jihatdan ta'qiqlanuvchi omillar izchilligi;*

9. *Kasbga psixologik nomutanosiblik, yoki kasbiy yaroqsizlik;*

10. *O'zini o'zi faollashtirish va identifikasiyalash.*

Professiografiyada ma'lum mexnat jarayonini tashkil etuvchi obyektlar belgilari, mexnat subyekti, mexnat predmeta vazifalari, vositalari va sharoitlari o'rganiladi.

Professiografiyaning asosiy tamoyillaridan biri kasbiy faoliyatni o'rganishda differensial yondashuv tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyilning moxiyati profессиografiyaning aniq amaliy masalalarini yechishga buysunishidir. Masalan, kasbiy konsultasiya va kasbiy tanlov uchun shunday kasbiy muxim belgilarni ajratish kerakki, ular sinovdagilarning kasbiy layoqatiga ko'ra farqlanishi lozim. Malaka darajasini aniqlash uchun mexnat vazifalari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikma tavsifi muxim ahamiyatga ega. Kasbiy toliqishni o'rganish uchun shunday belgilardan foydalanildiki, ular yordamida kasbiy toliqishning keltirib chiqaradigan omillarini aniqlaydi. Shunday qilib, profессиografiyaning differensial tamoyili kasbning urganish usullarini uning tavsif, mazmuni, shuningdek, qo'llanilish soxasi ya'ni profессиografiyaning xususiyatlari uning maqsadlari bilan belgilanadi. Maqsadlari quyidagi faoliyat soxalari bilan boglangan bulishi mumkin: 1) Ishchilar attestasiyasi. 2) Yangi kasblar mutaxassisliklarni loyihalashtirish. 3) Optantlar profkonsultasiyasi va mutaxassislar tanlovi. 4) Kasbiy ta'lim malaka tayyorgarligi va malaka oshirishni takomill ashtirish. 5) Shaxs kasbiy rivojlanishi buyicha ilmiy tadqiqotlar.

Professiografiya natijalari profессиogrammada aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchi huquq va majburiyatlari, muhim kasbiy sifatlari shuningdek, sog'ligiga qarshi ko'rsatmalarni uz ichiga oladi.

Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi - psixogramma bo'lib, u mutaxassisning motivasion, iroda va emosional sohasining tavsifi xisoblanadi. Psixogramma - kasbning psixologik

portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bo'lgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo'ladi. Professiografik tadqiqot metodlari. Kasbning ilmiy ta'siri, mexnatning (mexnat xulqi) tashqi ya'ni psixik jarayonlar qirishini ya'ni, mexnat subyekting ichki vositalariga bulgan integral psixologik tuzilmalarini nazarda tutadi.

Professiografiyada turli-tuman usullar qo'llaniladi:

- 1) Ijtimoiy (surovnomalar, savollar kiritilgan kuzatuv);
- 2) Psixologik (suxbat kuzatuv tajriba va ulardan kelib chiquvchi intervyu, shaxsiy surovnomalar testlar, tajribalar, psixobiografiyalar, faoliyat maxsulini urganish metodi);
- 3) Fiziologik (EKG. KER qonda arterial bosimni o'lchash antropometrik va texnik ma'lumotlar);

4) Texnologik jarayonlar ta'siri va boshqa usullar xilma - xilligidan vaqt, kuch va vaziyatlarni minimalligi bilan profesiogramma tadqiqotdagi savollarga javob beruvchi usullarni tanlash lozim. Usullar kompleksini ishlab chiqishda tizimni tashkil etuvchi omil tadqiqot maqsadi muxim rol o'ynaydi. Psixografiyalarni kasbga yunaltirish uchun ishlab chiqayotganda kasbning umumiy professiografik va ijtimoiy-psixologik ta'siriga katta e'tibor beriladi. Mexnat sharoitlaridan texnik, texnologik va ijtimoiy psixologik sharoitlari ancha chuqurroq urganiladi. Tadqiqotlarning muxim yunalishi bu shaxsning qobiliyatlari, psixofiziologik xususiyatlarini baxolashdir.

Professiogrammalarning kasbga yo'naltirish va kasbiy tanlov maqsadida ishlab chiqishda psixodiagnostik tadqiqotlar juda muxim xisoblanadi. Qolgan tadqiqotlar o'quv - kasb muassasalarida talabalar, o'quvchilarni o'qishga qabul qilinadigan shaxslar ishlashi lozim bulgan sharoitlarni aniqlash uchun ahamiyatga ega. Ammo ular xam muxim xisoblanadi, chunki aniq majburiyatlarni va mexnat sharoitlarini bilmasdan, kasbga yunaltirish, kasbiy yunalganligini tashkillashtirish va kasbga nisbatan layoqatini aniqlab bulmaydi. Professiografik tadqiqotlarning keyingi yunalishi – toliqish, monotoniya boshqa yomon holatlarni oldini olish, travmatizm bilan ko'zning qurish kasalligi va uning pasayishi maqsadida mehnat sharoitlari va tartibini o'rganishdir. Tadqiqotlarning asosiy maqsadi - mexnat sharoitlar va tartibini o'rganishi va shu bilan birga normal va patologik xolatlar, shuningdek, shaxsning kasbiy muxim va faoliyatiga bulgan reaksiyasini tashxis qiladi. Bu kompleksga professiografik usullardan gigiyenik, tabiiy, psixologik va fiziologik usullar kiradi. Usullarni tanlashda kasbning to'liq o'rganilishi nazarda tutilishi kerak. Bunda professiografik tadqiqotlar yunalishlarida quyidagi professiografiya chizmasidan foydalanish tavsiya etiladi: 1) Ishlab chiqarish jarayoni bilan umumiy tanishuv uning o'rganish va tasviri. 2) Ish o'rinlarini tasvirlash, ish o'rnidagilarning faoliyatini psixologik mo'lyali; 3) Ish-xarakterlarining psixologik, fiziologik va antropometrik taxlili. 4) Mexnat jarayonining taxlili. 5) Ish kunining sur'ati xronometraj. 6) Faoliyatning individualligini o'rganish. 7) Xatoli xarakterlar taxlili. 8) Sanitariya - gigiyenik mexnat sharoitlarini baxolash. 9) Bir smena, hafta, uzoq davr manbaida ish qobiliyatini dinamikasi. Professiografiyalar turli mazmuniga ega. Bu ular nima maqsadlarda tuzilganligiga bog'liq. Professiografik adabiyotlarni o'rganib va tizimli taxlil tamoyiliga tayangan xolda umumlashgan profesiogramma chizmasi ishlab chiqilgan.

Rasmiylashgan professiogramma sxemasi: Kasbning ijtimoiy va kasbiy tavsifi:

- 1) **Kasb yoki mutaxassislikning rasmiy qabul qilingan nomenklaturasi bo'yicha nomi.**
- 2) **Taksanomatik ma'lumotlar: shakli, turi, sinfi, guruxi, mutaxassisligi.**
- 3) *Ish joyi nomi.*
- 4) **Kasbning shu soxa bo'yicha kasbiy guruxidagi o'rni.**
- 5) **Lavozim bo'yicha ish xaqqi va uni baxolash.**
- 6) *Asosiy malaka va lavozim majburiyatlari.*
- 7) *Zaruriy ma'lumot.*
- 8) **Malaka diapazoni (razryadlar, sinflar va xokazo) shuningdek, ma'muriy, kasbiy, ilmiy rivojlanish istiqbollari.**
- 9) *Muammolarning asosiy xususiyatlari: doimiy yoki keng yoki tor doyra ishlarini bilan muammoli turi (tor kasbiy taklif buyuruvchilar, mijozlar bilan odamlarga xizmat ko'rsatish sharoitiga va qo'l ostidagilarning raxbarlarga nisbatan va xokazo)*
- 10) **Kasbiy layoqat tufayli diskvalifikasiya hollarini alohida kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat**

davridagi tavsifi.

11) *Mexnat faoliyati asosiy xususiyatlarining qisqacha tavsifi (yosh jixatdan cheklash va boshqa xolatlar)*

Psixogramma:

A) Umumiy mexnat tavsifi: 1. Ish kuni va sur'ati. 2. Mexnat dinamik omillarining tasviri va baxolashi (ishga layoqat, toliqish, ishonchlilik, xatosizlik va boshqalar). 3. Mexnat sharoitlarini ish jarayonining dinamik jarayonlariga ta'siri. 4. Ish joyi va mexnat xarakatlarining psixologik tavsifi. 5. Xato xarakatlarining psixologik taxlili.

V) Emosional - iroda sohasiga qo'yiladigan talablar: 1. Ustun keluvchi emosional xolatlar tavsifi. 2. Mexnat asab - psixik zo'riqishning o'ziga xos darajasi. 3. Maxsus talablar. 4. Iroda va uning xususiyatlari.

G) Mehnat jarayonida tipik psixologik jarayonlar: 1. Monotoniya va toliqish. 2. Mehnat jarayonida somatik psixologik holatlar. 3. Shu kasbga xos bo'lgan shuningdek e'tiborli -e'tiborsiz holatlar.

D) Muxim kasblar ansambli (asosiy sifatlar): 1. Shaxsning umumiy va spetsifik yunalishi tuzilmasi, kengligi, faolligi, bardoshlilik. 2. Ijtimoiy kasbiy mas'uliyat. 3. Optimizm. 4. Shaxsning istalmagan yoki istalgan xususiyati sifatida ishontirish xususiyati. 5. Shaxsning ma'naviy psixologik bardoshlilik. 6. Xarakter xususiyatlari (ijtimoiy faollik, prinsiplilik, katiyatlilik, mustakillik, rostgo'ylik, mardlik, tashabbuskorlik, tartiblilik, jamoatchilik, optimizm, pessimizm).

E) Chegaralash va qarshi ko'rsatmalar: 1. Xatolar oqibati va mexnat xavfsizligiga quyiladigan talablar. 2. Kasbga layoqatsizlik tavsifi. 3. Jinsi, yoshi jixatdan chegaralash. 4. Kasbiy zararlar va imtiyozlar. 5. Shaxsning ijobiy deformasiyalari:

Diagnostik professiografiyalash mehnat samaradorligining pastligi maxsulot sifatining pastligi, avariya holati, travmatizm, kadrlar qo'nimsizligi sabablarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Diagnostik professiografiyalash quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi. 1. Faoliyat mazmuni: 1) Mexnat predmet va masalalari. 2) Ish natijalari sifatiga quyiladigan talablar. 2. Mexnat qurollari: 1) Ish turi va tartibi. 2) Boshqarish organlari. 3) Ish joyini tashkil etish. 3. Mexnat subyektining faoliyati: 1) Xarakter turlari va ularning tavsifi. 2) Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri. 3) Kasb faoliyatiga xalaqit beruvchi omillar. 4) Mexnat jarayonida uchraydigan xatolar, brak, travmalar turi. 4. Mexnat sub'yektining faoliyati: 1) Ishchilarning o'zaro aloqalari tuzilmasi. 2) Ishni rejalashtirish va nazorat. 5. Kasbning mexnat subyektini shaxsiy psixologik va psixofiziologik sifatlariga qo'yiladigan talablar. 6. Mexnat sub'yektini faoliyatining past samaradorligi sabablarini tashxisi. 7. Kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha amaliy - eksperimental tekshiruv. Diagnostik professiografiyalash empirik ma'lumotlarni yig'ish usullari orqali amalga oshiriladi.

Prognostik professiografiyalash kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha asoslangan tavsiyalarni berish maqsadida qo'llaniladi. 1. Kasbning umumiy tavsifi: 1) Kasb rivojlanishi tarixi va istiqbollari. 2) Kasbiy faoliyatni bajarilishining ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlari. 3) Kasbiy muxit. 2. Kasbiy dala va mazmuni va jixati: 1) Kasbiy dala tavsifi. 2) Kasbiy bilimni aniqlovchi omillar. 3) Kasbiy bilimni rivojlanishi prognozi. 3. Kasbiy ta'lim malaka oshirish: 1) Kasbiy ta'lim darajasi. 2) Kasbiy tayyorgarlik. 3) Malaka oshirish. 4. Ishchining kasbiy moyilligi: 1) Mutaxassislik soxasining kengligi. 2) Asosiy malakalar darajasi. 3) Mutaxassislik va kasbiy o'zgartirish imkoniyati. 5. Kasb istiqbolini baxolash: 1) Shaxsning kasbiy - psixologik potentsiali. 2) Ishchining kasbiy faolligi. 3) Kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish karyera.

Prognostik professiografiyalash genetik usullarni, shuningdek modellashtiruvchi eksperimentlarni qo'llaydi. Metodik professiografiyalash psixologga mexnat subyektining xolati va muxim kasbiy sifatlarni o'rganish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot maqsadi va vazifalariga ko'ra metodik professiografiyalash sxemasi xam o'zgaradi.

Masalan, kasbiy mexnat va xordiq tartibi, kasbiy toliqish, befarqlik, passivlikka bo'lgan ta'sirini o'rganishda shunday sxema qo'llaniladi.

1. **Mexnat sub'yektini faoliyatining mazmuni:**

2. Xarakterlar turi va ularning tavsifi.
3. Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri.
4. Emosional korinishlar.
5. Ish joyidagi noqulaylik turlari.
6. Faoliyat jarayonida paydo buladigan xatolar, brak travma turlari.

2. Mexnat sharoitlari:

- **Sanitariya - gigiyenik muxit (xavo darajasi, chang, namgarlik va boshqa).**
- **Jismoniy muxitning yoritilganligi, shovqin.**
- **Ish tartibi.**
- **Xaq to'lash va rag'bat shakli.**

4-jadval

Mutaxassisning kasbiy maxoratini o'rganishda professiografiyalashning quyidagi sxemasi qo'llaniladi. 1. Faoliyat mazmuni: 1) Ishchilar malakasiga quyiladigan talablar (kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, sifatlar va qobiliyatlar). 2) Ishchilarning xuquq va majburiyatlari. 2. Mexnatni tashkillashtirish: 1) Malaka oshirish. 2) Kasbiy psixologik potensial. 3) Ijodiy qobiliyatlar. 3. Mexnat subyekti faoliyati: 1) Xarhatlar turi ularning tavsifi. 2) Ishni rejalashtirish va uni nazorat qilish. 3) Faoliyat individualligining xususiyatlari. Ta'limga yunaltirilgan professiografiyalash - asosiga kasb subyektligi xaqidagi goya quyiladi: kasb egasi, faoliyatning xaqiqiy sub'yekta bulib, unga bir qator maxsus belgilar xos. Bu professiografiyalashning mualliflari uning mazmun - moxiyati va loyixalashtirish texnologiyalarini o'rganib chiqishdi.

“Kasb pasporti” bloki kasb va mutaxassisliklar nomining modifikasiyasi, kasbiy yo'nalish, kasb maqsadi, ta'lim darajasi xaqida qisqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. “Kasbning asosiy obyekti” (soxasi) bloki kasb turi xaqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. “Inson - tabiat”, “inson - inson”, “inson - texnika”, “inson - belgilar tizimi”, “inson badiiy obraz” va boshqalar. Bu blok mazmuni boshqa professiografiyalash bloklarining asosi xisoblanadi. “Kasbiy predmetli saloxiyat” bloki ko'p tizimli ta'lim sifatida kasbiy muxim tavsifini o'z ichiga oladi. Mutaxassis kasbi qaysi soxaga tegishli ekanini, qaysi asosiy obyektlarga yo'naltirilgan, bu ob'yektlar qanday ob'yektlar, bu soxada mexnat natijasi yoki mexnat maxsuli qanday axamiyatga egaligi xaqidagi ma'lumotga ega bo'lishi lozim. “Ijtimoiy kasbiy saloxiyat” blokida shaxs obyektining quyidagi yo'nalishlari aks etadi. Fikrlash potensialining rivojlanishi. Shaxsni o'zini nazorat eta olish va rivojlantirish imkoniyatlari. Shaxsning muvaffaqiyat strategiyasiga yo'naltirilganligi. Shaxsning bozor iqqisodiyoti sharoitida bardoshligi. Professiografiyada ekologik, xuquqiy va iqtisodiy madaniyat masalalari xam nazarda tutiladi. Maxsus psixofiziologik talablar bloki - ishchining kasbiy faoliyati jixatdan psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi. Bunga tibbiy ko'rsatmalar, jinsiga, yoshga bulgan va sanitariya- gigiyenik talablar kiradi.

Professiogrammaning psixologik jihatlari



O'qishga munosabat va intellektual sifatlar: bilimlarning chuqurligi, turli o'quv fanlarini o'zlashtirishning intellektual (aqliy) imkoniyatlari, salohiyatlilik va qiziquvchanlik, ijodiy faoliyatga qobillik, ma'naviy qiziqishlarning ko'lami, fikrni bayon qila olish uquvi, o'qiganlilik, ma'lumotlilik.



Ishbilarmonlik xislatlari: tashkilotchilik qobiliyati, mehnatsevarlik, so'ziga sodiqlik, o'ziga tanqidiylik, prinsipiiallik, qiyinchilikni yengish uquvi, tashabbuskorlik, amaliyotchilik, do'stlar orasida nufuzga egalik.

Kasb tanlashga yo'naltirilgan uchburchak shaxsning qiziqishi, mayli, xohishi, o'zini o'zi baholashi, nufuzi kabilarga oid materiallarni o'zida mujassamlashtiradi.

O'quvchilarni professiogramma bilan tanishtirishda bosh maqsad qoyidagi tarkibiy qismlari

a) asosiy mehnat qurollari – kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr – xayoli – xuddi shu qurollarga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

b) asosiy mehnat operasialari: mehnat quroli bilan qanday faoliyatni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini aniqlash va qaysi sohalarida ishlatish mumkin ekanligini bilish; ishlab chiqarish jarayonidagi operasialarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish; operasialarning yangi variantlarini qidirish va kashf qilish uchun harakat qilish;

v) asosiy qurollar va vositalar: qo'l aslahalaridan – slesar, xirurg, skripkachi, g'ijjakchi, kamon chaluvchi kabi kasb egalari foydalanadi;

g) mehnat sharoitlari: kasb tanlovchini o'rab turgan tabiiy muhit va sharoitlar, kishilar va hokazo.

Kasbiy kamolotning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini o'rgangan olim, **D.N. Arziqulov**, bo'lg'usi kasb egasining shaxsiy fazilatlariga alohida e'tiborni qaratar ekan, ular ma'lum ma'noda motivasion omil ekanligini ta'kidlaydi hamda shaxsiy va kasbiy xususiyatlarni bir-biridan o'zaro farqlaydi. Olim, shaxsiy xususiyatlar va kasbiy faoliyatning motivatsion asoslari tarkibini quyidagi:¹³

- *muloqotmandlik;*
- *emosional barqarorlik;*
- *dominantlikka (yetakchilikka) intilish;*
- *ijtimoiy yetuklik (onglilik);*
- *ijtimoiy dadillik;*
- *ishonuvchanlik;*
- *mustaqillik;*
- *ishonch;*
- ***o'zini o'zi nazorat qilish;***
- ***qo'zg'aluvchanlik;***
- *asabiy taranglik;*
- *muvaffaqiyatga intilish;*
- ***mag'lubiyatdan qochish;***
- *yutuqqa ehtiyoj;*
- *ekstra-introvertlilik;*
- ***nevrotizm; o'zini o'zi baholash;***
- ***global o'zini o'zi baholash (integral «Men») kabi 18 xil shaxs sifatleri tashkil etadi,***

deb hisoblaydi.

- *Shuningdek, kasbiy sifatlar tarkibini:*
- *odamlarning ishonchiga kira bilish;*
- *safarbarlik;*
- ***o'z mehnatini hisobga olish;***
- *iqtisodiy baholash;*
- *kuzatuvchanlik;*
- ***qat'iyatlilik;***
- *chidam;*
- *uddaburonlik;*
- *turli xil va murakkab texnikadan foydalana bilish;*
- ***uzoqni ko'ra bilishlik;***
- *tartiblilik;*
- *jamoada qulay sharoitni yaratish uquvi;*
- *tashabbuskorlik;*

¹³Арзикулов Д.Н. Касбий камолотнинг ўзига хос психологик хусусиятлари: Психол. фан. номзоди ... дис.: 19.00.07. – Т.: ХТХМОМИ, 2002. – 142 б.

amaliy mehnatga moyillik kabi 14 xil sifatlar tashkil qiladi, deb qayd etadi.

Kasb tanlashga yo'naltirish davlatning tadbiri – choralari tizimidan iborat bo'lib inson tomonidan tanlanadi qoyidagi shakllarda amalga oshiriladi maktabda kasbiy ma'lumotlar berish;

kasb – hunar maorifi bilan shug'ullanish:

radio, televideniye, kino, matbuotda tashviqot qilish;

kasb yuzasidan maslahatlar;

kasbga saralash (qobiliyatiga binoan);

kasbga moslashish (adaptasiyalash).

Kasbning mazmunini va mohiyatini tushunmaslik ularda tanlagan kasbga munosabatining salbiylashishiga olib keladi. Bunday holatning oldini olish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

O'quv materiallarini, umuman ta'limni hayot bilan bog'lash.

Ma'lumotlarni o'zlashtirishda shaxsiy faollikni shakllantirish.

O'tgan bosqichdagi faoliyatdan qoniqish va kelgusi faoliyat uchun ijobiy zamin hozirlash.

Istiqbol rejani muvofiqlashtirish va kursning yuqorilashuviga qarab buni takomillashtirib borish.

O'quv-metodik qiyinchilik bilan shaxsiy nomurosasizlik belgilari o'rtasidagi uzviylikni yo'qotish.

Kasbiy faoliyat hayotning muhim qismi bo'lib, ishdagi muvaffaqiyatlar o'ziga ishonishga yordam berishligini inobatga olish.

Professiogramma oldiga qoyidagi talablarni quyish maqsadga muvofiq:

1. Ishning qanday nomlanishi va uning nimalardan tuzilishi
2. Ishning maqsadi, samaradorligi xususida ma'lumotlar;
3. Mehnat quroli sifatida nimalar qo'llanilishi;
4. Mehnat predmetining tarkiblari va ularning o'ziga xos jabhalari;
5. Mehnat faoliyati qaysi usullar yordami bilan bajarilishi;
6. Nimalarning negizida ish (mehnat, faoliyat; amalga oshirilishi);
7. Mehnat mahsullarini baholash mezonlari;
8. Ishning qanday ixtisoslik talab qilishi xususiyatlari.
9. Ish qanday vositalar yordami bilan bajarilish imkoniyati va uning motivirovkasi.
10. Ishning bajarilish shart va sharoitlari;
11. Mehnatni (faoliyatni) tashkil qilish shakllari;
12. Mehnatning kooperasiyasi (Kim?, Nima?, Kim bilan hamkorlikda?);
13. Mehnatning jadalligi (intensivligi) to'g'risida ma'lumotlar;
14. Mehnat faoliyatida mas'uliyatning va xavf – xatarning qaysi daqiqalari (holatlari) uchrashi;
15. Mehnat uning subyektiga qanday foyda, naf keltirishi (ish haqi, mukofot, ma'naviy ozuqa, imtiyoz, ijtimoiy moyillik, altruizm xislati, maqtov, jamoatchilik bahosi va boshqalar);
16. Ish yoki faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra qanday talablarga va cheklanishlarga ega ekanligi.

7-mavzu Kasbiy faoliyat psixodiagnostikasi

Reja:

1. **Psixodiagnostika haqida tushuncha.**
2. **Psixodiagnostikaning tarixi.**
3. **Psixodiagnostika – professional faoliyatdagi maxsus soha sifatida.**
4. **Psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillari.**

Psixodiagnostika nima?

Psixodiagnostika so'zini asl mohiyati "psixologik tashxis qo'yish" yoki kishining mavjud psixologik holati va xususiyati haqida qaror qabul qilishni anglatadi.

Psixodiagnostika – amaliy jihatdan deyarli psixologning barcha faoliyat doiralarida, ya'ni psixologik-pedagogik tadqiqotlarda muallif yoki ishtirokchi sifatida qatnashayotganda, psixologik maslahat hamda psixologik korreksion ishlarni amalga oshirayotgan jarayonda qo'llanadi. Ammo ko'pincha amaliy psixologning ishlarida psixodiagnostika – faoliyatning alohida mustaqil turi sifatida namoyon bo'ladi. Uning maqsadi psixologik tashxis qo'yish, ya'ni kishini mavjud psixologik holatini baholash orqali ifodalanadi.

"Psixodiagnostika" atamasi **"psixologik tashxis qo'yish"** degan ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holatida to'liq yoki biror bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir, bunda "tashxis" shaxsning taraqqiyot ko'rsatkichi va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holat va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iboratdir. «Psixodiagnostika» atamasi ilk bor **Rorshaxning «Psixodiagnostika»** asarining chop etilishidan so'ng psixiatriyada tarqalgan bo'lib, u tez orada tibbiyotdan tashqarida ham keng miqyosda ommalasha boshlandi. «Diagnoz», yani «tashxis» esa shaxs rivojlanishidagi har qanday og'ishlarni, hattoki uning holat va xususiyatlarini aniq taraqqiyot darajasini aniqlash, demakdir.

Psixodiagnostika — bu maxsus bilimlar sohasi bo'lib, individ yoki guruhni psixologik taraqqiyot ko'rsatkichlarini, holat va xususiyatlarini baholash uchun metodika va metodologiyalar nazariyasi ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Psixodiagnostika baholash ob'yekti, psixologiya fani o'rganayotgan har qanday jarayon bo'lishi mumkin. Masalan, o'zaro hamkorlik qilayotgan shaxslarning

bir-biri bilan kechayotgan xatti-harakati va muloqotida yuzaga keladigan, alohida bir odam sezgisidan boshlab, murakkab ijtimoiy- psixologik jarayon bilan tugatish mumkin.

Vizual psixodiagnostik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo'yishning 3 bosqichi farqlanadi:

Simptomatik diagnozda

mavjud har qanday EHM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotda olingan natijalar qayta ishlanadi;

Etiologik diagnozda (kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligina emas, balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi;

Tipologik diagnozda sinaluvchi shaxsning tushida olingan natijalarning ahamiyati va o'rni aniqlanadi.

Psixodiagnostika fanining nazariy vazifalari quyidagilardan iborat:

— psixik ko'rinishlar tabiati va ularni ilmiy jihatdan prinsipial baholashning imkon darajasini aniqlashtirish;

— hozirgi paytda psixologik ko'rinishlarning miqdorini baholash va uning ilmiy asoslanganlik holatini o'rganish;

— psixodiagnostik usul va uslublarning asosiy metodologik talablari nimalardan iboratligini aniqlash;

Psixodiagnostika — bu maxsus bilimlar sohasi bo'lib, individ yoki guruhni psixologik taraqqiyot ko'rsatkichlarini, holat va xususiyatlarini baholash uchun metodika va metodologiyalar nazariyasi ishlab chiqish bilan bog'liqdir.

- psixodiagnostik tadqiqotning shart-sharoitlari, natijalarni qayta ishlash hamda ularni interpretasiya usullarining ishonchliligi nimalarga asoslangan;
- test va psixodiagnostik metodlarning tuzilishi hamda ilmiylikni tekshirishning asosiy muolajalarini nimalar tashkil qiladi.¹⁴

Psixodiagnostikaning nazariy asoslari psixologiya fanining turli jabhalari, jumladan, umumiy, differensial, tibbiy, yosh davrlari psixologiyasi kabi sohalarga asoslanadi. Uning metodik usullariga esa, individual-psixologik xususiyatlar-ni o'rganish, olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilishning aniq yo'l-yo'riqlari kiradi. Psixodiagnostika sohasidagi nazariy metodik ishlarning yo'nalishlari avvalambor psixologik amaliyot talablari asosida belgilanadi. Ushbu talablarga muvofiq usullarning maxsus kompleksi shakllanadi.

Psixodiagnostik faoliyat jarayonini metodikalar oprobasiyasi, talablar yo'riqnomasini ishlab chiqish, tadqiqotlarni o'tkazishdagi qonun-qoidalarni yaratish, natijalar tahlilining usullarini shakllantirish hamda ma'lum metodlarning imkoniyat va cheklanishlarini muhokama qilish tashkil etadi.

Diagnostik faoliyat o'z maqsadiga ko'ra tashxis (diagnoz) yo'nalishining turli ko'rinishlariga egadir. Qo'yilgan tashxis o'rganilayotgan xususiyatlarni shakllantirishga yoki korreksion ishlarni tashkil etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar orqali ifodalanadi.

Psixodiagnostika psixologiyani ilmiy va amaliy jabhalaridan tashqari, uning boshqa sohalarida ham keng qamrovda qo'llaniladi. Masalan, tibbiy psixologiya, patopsixologiya, injenerlik psixologiyasi, mehnat psixologiyasi kabi insonning psixologik xususiyatlarini bilish talab qilinadigan barcha sohalarida foydalaniladi.

Ilmiy va amaliy psixodiagnostika yuqorida qayd etilgan barcha holatlarda ham o'ziga xos muhim vazifalarni hal etadi. Ularga quyidagilar kiradi:

Insondagi mavjud biror psixologik xususiyat yoki xulq-atvori holatini aniqlash;

Mazkur xususiyatning shakllanganligi, ya'ni uning miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlarda namoyon bo'lishi darajasini o'rganish;

Zarur bo'lgan holdagina shaxsning tashxis qilinayotgan xulq-atvoridagi psixologik xususiyatlarini ochib berish;

O'rganilayotgan xususiyatlarning shakllanganlik darajasini taqqosiy ishlanmasini yaratish.

Amaliy psixodiagnostikada sanab o'tilgan vazifalarning har biri alohida yoki kompleks tarzda olib borilayotgan tadqiqot maqsadiga muvofiq amalga oshiriladi.

Demak, psixodiagnostika psixologdan professional faoliyati jarayonida maxsus tayyorgarlik talab qiluvchi murakkab sohadir. Psixolog (tashxischi) egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar shunchalik keng va murakkabki, uning o'zlashtirilishi bilan psixodiagnostikani professional psixolog faoliyatining negizi sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'ladi. Haqiqatdan ham amaliy psixologlarni malakali mutaxassis etib tayyorlash ahamiyatga molik omildir.

Psixodiagnostika – professional faoliyatdagi maxsus soha sifatida

Psixologiya fanida "psixologik tashxis qo'yish" so'zining ikki xil tushunchasi mavjud.

Birinchisi, "Psixodiagnostika" – amaliyotda turli psixodiagnostik usullardan foydalanish mumkin bo'lgan psixologik bilimlar doirasini ifodalab, u o'z ichiga tashxis jarayonini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadigan quyidagi qator masalalarni qamrab oladi:

- Psixologik xususiyatlar tabiati va ularni ilmiy baholash imkoniyatlarining mavjudligi qanday?
- Psixologik xususiyatlarni aniqlash jarayonida va miqdoriy baholash vaqtdagi umumiy bo'lgan ilmiy asoslar holati qay tarzda?
- Hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan psixodiagnostik usullar qabul qilingan umum-ilmiy, metodologik talablarga qanchalik mos keladi?
- Psixodiagnostikaning turli usullariga qo'yiladigan metodologik talablar nimalardan iborat?

¹⁴ T.Melcherti"Foundations of Professional Psychology" 2011. 115-117-betlar

- Psixodagnostik metodlarning ilmiyligini tekshirish va ularni yaratish jarayonlari qanday amalga oshadi?

Ikkinchisi, “Psixodiagnostika” – psixologik tashxisning amaliy jihatini bilan bog’liq bo’lgan psixologning maxsus faoliyat doirasini o’z ichiga qamrab oladi.

- Psixologning psixodiagnostik metodlarni muvaffaqiyatli va malakali o’zlashtirilishidagi ayrim amaliy shart-sharoitlarni yaratish hamda ularga rioya qilish zarurati;

- Psixodiagnostik doirada faoliyat ko’rsatadigan psixologni amaliy jihatdan tayyorlash hamda uning kompetentligini baholashda dastur, metod va usullarni ishlab chiqish masalalari tashkil etadi.

Yuqoridagi nazariy va amaliy masalalar bir-biri bilan o’zaro chambarchas bog’liq bo’lib, ushbu sohadi yetuk mutaxassis bo’lish uchun psixolog, psixodiagnostikaning har ikkala asoslari bilan yaxshi qurollangan bo’lishi kerak. Faqatgina nazariy, amaliy yoki barcha metodlarni ilmiy asoslarini tushuna bilmasdan mutaxassis sifatida ushbu sohada professionalizmga erishib bo’lmaydi.

Psixodiagnostika – psixologik fan sohasi bo’lganligi bois, u yoki bu darajadagi psixologiya tarmoqlari bilan o’zaro bog’liq bo’ladi. Ma’lum ma’noda, o’z mustaqilligiga qaramay, psixodiagnostika umumpsixologik nazariyaning rivojlanishiga ham bog’liqdir. Biroq tadqiqotlarning shunday yo’nalishlari mavjudki, ular bilan psixodiagnostika ko’proq aloqada bo’ladi. Xorij va mahalliy adabiyotlarda bu tushunchaning boshqalarga nisbatan o’xshashligi mavjud bo’lganligi sababli, aynan shu muammo to’g’risida ushbu mavzuda fikr yuritiladi.

Psixodiagnostika fanining amaliy vazifalari psixolog faoliyatining maxsus sohasiga taalluqli bo’lib, amaliy psixologik tashxis qo’yish bilan bog’liqdir. Bunda muammo, nafaqat, nazariy jihatdan, balki psixodiagnostik tadqiqotni tashkil qilish va o’tkazishning amaliy jabhalarini qamrab oladi hamda quyidagi vazifalardan iboratdir:

1. Psixologiya psixodiagnostga mutaxassis sifatida qo’yiladigan kasbiy talablarni aniqlashtirish;

2. Psixolog haqiqatdan ham u yoki bu psixodiagnostik metodlarni mutaxassis sifatida muvaffaqiyatli o’zlashtirib olgani haqida minimal amaliy shartlar, ya’ni kafolat sifatida;

3. Psixodiagnostika sohasida o’z ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun psixologning o’zida mujassamlashtirishi shart bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar;

4. Psixologning psixodiagnostika sohasida malakali mutaxassis ekanligini hamda amaliy jihatdan tayyorgarligini baholash mezonlarini hamda dasturlarini ishlab chikish.

Chet el adabiyotlarida ta’kidlanishicha individual farq nazariyasining muammosi, ya’ni maxsus soha tadqiqotlarini ustuvorligi – differentsial psixologiyadir.

XIX–XX asrlarda mashhur nemis psixologi bu tushunchani “Psixik funksiya va uning xossalardagi mavjud farq” to’g’risidagi fikrni ifodalash uchun kiritgan. *V.Shtern* davridan beri differentsial psixologiya tushunchasida unchalik ko’p narsa o’zgarmadi. U ayni paytda ham tarqoq holda inson (shaxs) ning psixik holati va xossasini o’rganish bilan shug’ullanadi.

Differentsial psixologiya predmetini tashkil etuvchi manbalar to’g’risida so’z borganda, hamma tadqiqotchilar bir ovozdan test metodi asoschilari *F.Galton*, *J.Kettell*, *A.Bine* va boshqa olimlarning dalillarini qabul qilishdi. Psixodiagnostika va differentsial psixologiya sohalarining tadqiqotlar mavzusi bir-biriga o’xshash. Lekin soha vakillari ularni:

- o’ziga xos farqlikni o’lchashga mo’ljallangan;

- farqlashning kelib chiqish sabablarini anglab yetishga qaratilgan sifatida bo’lib o’rganishadi.

Zamonaviy psixologiyada psixodiagnostikaga “fan va tajriba o’rtasidagi ko’prik” misoli qaraladi.

Hozirda, psixologik nazariyadan ajratilgan psixodiagnostika inqirozga yuz tutadi deyish noto’g’ri, albatta. Bunga psixodiagnostikaning kelib chiqish tarixi yorqin tasdiq bo’la oladi. Ma’lumki, tashxisning muvaffaqiyati (o’lchov va bahosi), avvalambor, hodisalarni

o'lchash nazariyasini ishlab chiqish darajasi orqali aniqlanadi.

Bu holat aqliy qobiliyat (intellekt)ni o'lchash jarayonida yaqqol ifodasini topgan. Shu bois, samarador testlarning paydo bo'lishida nazariy ta savurning o'rnini almashtirish ehtiyoji tug'iladi.

Baho – turli usullar orqali qo'lga kiritilgan natijalarning, xususan, intervyu, psixologik testlar, fiziologik yoki psixofiziologik o'lchovlar, apparaturalar holatining kuzatilishidir.

Test qilish – psixologik xarakteristikani o'lchash demakdir. Psixologik baho berish uzoq tarixiy davrga borib taqaladi. Masalan, qadimgi Xitoyda chinovniklarni tanlab olish tizimiga asoslangan. Ma'lumotlarga qaraganda psixologik baho – psixologik testlashga qaraganda kengroq tushunchadir. Baholash faqatgina test orqali o'tkazilmaydi. Ayni paytda psixologik baholash va boshqarish mazmuni tahlil qilinadigan bo'lsa, ko'p holda testlashning sinonimi sifatida e'tirof etilib, psixologik o'lchovning hamma spektrlarini o'z ichiga qamrab olmoqda. Natijada, testlar (standartlashgan muolajalar)dan tashqari tashxis etish jarayoni rivojlandi. Bu esa psixologik baho tushunchasining psixodiagnostika predmetiga yaqinligi zaruratini keltirib chiqardi.

Genri Gerbert Goddard

U 1866 yilda sharqiy Vassalboroda katta fermerlar oilasida tug'ilgan. Xeverford kollejini bitirgan (1887 y.). Shu kollejda matematika yo'nalishi bo'yicha magistrlik darajasini olgan (1889 y.).

Goddard psixologiya sohasidagi faoliyatini 1896 yildan Klark universitetida boshlagan va shu universitetda u doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1899 y.). Pensilvaniyada psixologiya va pedagogikadan dars bergan. 1902 yili Vayndlenda maxsus maktabda ishlab yurgan vaqtda, hamkasblari bilan birgalikda «Aqli zaiflar Veylend klubi»ga asos solgan.

Bu klubni asosiy vazifasi psixik rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarga har tomonlama yordam berishdan iborat bo'lgan. 1908 yildan Bine testlarini o'rgana boshlagan va keyinchalik, undan intellektual to'liq rivojlanmaslikni turli xil darajasini diagnostika hamda klassifikasiya qilishda foydalangan. 1910 yili birinchilardan bo'lib Bine testlarini umumiy o'rta ta'lim maktabi sharoitida ishlatgan. Bundan tashqari u mazkur testni Amerikaga kirib keluvchi immigrantrlarni o'rganish jarayonida ham qo'llagan. 1917 yili harbiy xizmatga chaqiriluvchilar intellektini aniqlashda ishlatiladigan testni yaratuvchi amerikalik yetakchi psixologni biri bo'lgan. 1918 yil Ogayodagi yoshlarni o'rganuvchi byuroni boshlig'i hamda 1922 yili Ogayo universitetini professori lavozimida ishlagan. 1927 yilda u o'zining aqli zaiflikka doir bo'lgan ko'pgina xulosalari xatoligini tan olgan. Shunga qaramasdan, *Goddard* izlanishlarining testga doirlari, intellekt psixodiagnostikasini rivojlanishida ahamiyati katta bo'lgan. *Genri Gerbert Goddard* 1957 yilda vafot etgan.



12-
ras
m

Lyuis Medison Termen


1877 yil Indianada fermerlar oilasida tug'ilgan. Indianadagi Denvill markaziy kollejida ta'lim olgan va o'qituvchilik kasbini egallagan. Indiana Universitetidan bakalavr va magistr darajasini olgan. 1903 yil Klark universiteti doktoranturasiga o'qishga kirib, doktorlik dissertatsiyasini «Psixologik test» (1905) mavzusida yoqlaydi. 1906 yildan boshlab Los-Anjelosdagi pedagogika kollejining professori bo'lgan. To'rt yil o'tganidan so'ng u Stenforddagi universitetga o'qituvchilik lavozimiga taklif qilinib, Bine shkalasini modifikasiyalash bilan shug'ullanadi. Birinchi jahon urushi davrida armiyada qo'llaniladigan testlarni qayta ishlash jarayonida qatnashgan. 1922 yilda Stenford universiteti psixologiya fakultetiga dekan, 1923 yildan Amerika psixologlari assosiasiyasining prezidenti lavozimlariga tayinlangan. U intellektni aniqlash testini ilmiy darajagacha olib chiqqan yagona mutaxassis. Buyuk amerikalik psixolog 1956 yil Kaliforniyada vafot etgan.(12-rasmga qarang)



13-
ras
m

Rishar Meyli

1900 yil Shveysariyada tug'ilib, Berlinda o'qigan. *Kurt Levin* uni «Geshtalt psixologiyasi» bilan tanishtirgan. Mashhur olim *Klaypered* taklifi bilan Institut Russoga kelgan va psixologik diagnostika bo'yicha hamda qisman intellektni o'rganish bilan ham shug'ullangan. Psixodiagnostika bo'yicha 1936, 1951, 1978 yillarda chop etilgan mashhur kitoblarning avtori. Institutni 6 yil boshqargandan so'ng Vernsk Universitetida professor lavozimida ishlay boshlagan. 1930 yildan intellekt omilini o'rganish bilan shug'ullangan. Oxirgi izlanishlari asosida (1981) intellekt bo'yicha to'rtta fundamental omil borligini va ular olti yoshda turg'in holatda paydo bo'lishini aniqlagan. O'zining longityud tekshirishlarini (1959) xarakterlangan qirralarning birlamchi elementlarini topishga bag'ishlagan. 1963 yil intellektga atrof-muhitni ta'siri haqidagi tekshirishlari natijasi chop etilgan. Bundan tashqari u intellekt bilan o'qishda jarayonidagi muvaffaqiyatga erishishlarning o'zaro bog'liqligi muammosini ochishga harakat qilgan. U 1984 yil vafot etgan.(13-rasmga qarang)



14-rasm

Florens Laura Gudinaf

1886 yil AQShda tug'ilgan. Doktorlik unvonini *L.Termen* rahbarligida Stenford Univesitetida 1924 yil olgan. Shundan so'ng uning psixologiya mutaxassisi sifatidagi karerasi Minnesots Univesitetida boshlanadi. U yerda bolalar tomonidan chizilgan rasmlarni tahliliga asoslangan intellektni o'lchash shkalasini chop etgan. Test katta mashhurlik keltirib o'z mavqeini ko'p yillar davomida saqlab turgan.1950 yilga kelib, *Deyl Xarris* bu testga ma'lum ma'nodagi o'zgarishlar va qo'shimchalarni kiritgan (*Gudinaf – Xarris* nomi bilan mashhur rasm testi). *Gudinaf*ning boshqa izlanishlari bolalarni ijtimoiy va emosinal rivojlanishini o'rganishga qaratilgan. 1947 yil kasalligi tufayli mehnat ta'tiliga chiqishga majbur bo'lganligiga qaramasdan, unga mashhurlik olib kelgan kitoblarning chiqishi davom etgan. U 1959 yil vafot etgan.(14-rasmga qarang)




15-rasm

Arnold Lyusius Gezell

1880 yil Viskonsin shtatining kichik shaharchasida tug'ilgan. Shu shtatning universitetida bakalavr darajasini olgan. Klark univesitetida doktorlik dissertatsiyasini tayyorlagan (1906). Keyinchalik ikkinchi doktorlik darajasini tibbiyot ixtisosligi bo'yicha Yel universitetida olgan (1915). Turli AQSh universitetlarida o'qituvchi lavozimida ishlagan. Los-Anjelos pedagogika institutida faoliyat yuritgan vaqtida L.Termen bilan hamkorlik qilgan. Psixologik test o'tkazish bilan shug'ullangan va uning xulosasiga ko'ra, bolalarni rivojlanishini ilk yosh davrlarida aniqlash zarurligini ta'kidlagan. Bu tekshirishlar unga nafaqat psixologlar orasida, balki shifokorlar va pedogoglar orasida ham katta shuhrat keltirgan. U 1961 yil vafot etgan.(17-rasmga qarang)

Robert Session Vudvorts

1869 yil Belchertaun (Massachusets shtati)da tug'ilgan. Amxerst universitetidan 1819 yili bakalavr darajasiga ega



16-rasm

bo'lgan. Keyinchalik buyuk amerikalik psixolog Vilyam Jem bilan Garvard universitetida tahsil olgan (bakalavr – 1896, magistr – 1897). Kolumbiya universitetida D.Kattell rahbarligida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1899). R. Vudvorts Kolumbiya universitetida asosiy ilmiy foaliyatini yuritgan bo'lib, u nafaqaga chiqqunga qadar shu yerda ishlagan (1942). 1914 yilda u Amerika psixologlar assosiasiyasini prezidenti etib tayinlangan. Bu olimning asosiy qiziqishlari umumiy va eksperimental psixologiya jabhalariga qaratilgan. U tomondan 1938 yil yozilgan «Tatbiqiy psixologiya» kitobi hozirgi kunda ham klassik adabiyot durdonasi hisoblanadi. U o'zining o'limiga qadar faol ravishda ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan. 1962 yil vafot etgan.(16-rasmga qarang)

Kichik edvard Kella Strong

1884 yil Nyu-York shtatining Sirakuza shahrida tug'ilgan. Biologiya bo'yicha bakalavrlik darajasini Kaliforniya universitetida olgan (1906). Uch yildan so'ng magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1911 yilda Kolumbiya universiteti psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan.

Keyinchalik Neshvildagi Georg kollejida professor bo'lib ishlagan. 1917 yil armiya safida xizmat qilgan. U yerda ham harbiy shaxslarni saralash va o'qitish masalalari bilan shug'ullangan. Urush tugaganidan so'ng Karneg institutida professor lavozimida faoliyat yuritgan. Professional ta'lim departamentini boshqargan (1919). 1921 yilda ta'lim olish yuzasidan tekshirishlar bo'yicha Byuro boshlig'i bo'lgan. Uning tekshirishlari tom ma'noda Amerika psixologiyasining rivojlanishiga asos bo'lgan. Keyinchalik Stenford universiteti qoshidagi biznes maktabda psixologiya fanidan professor sifatida ishlagan (1927). Uning ismi o'zi ishlab chiqqan «Professional qiziqishlar blanklari» bilan sinonim bo'lib tarixda qolgan (1927). 1943 yil ta'tilga chiqsa-da, ilmiy izlanishlashni to'xtatmagan. 1955 yilda yoshlarda professional qiziqishlarga bag'ishlangan kitobini nashr qilinishi bunga guvohlik beradi. U 1963 yil vafot etgan.

German Rorshax



17-rasm

1884 yil Syurixda tug'ilgan. Tibbiyot yo'nalishini tanlab Neyburg, Syurix, Berlin va Berna universitetlarida o'qigan. O'qishining birinchi yillaridayoq psixiatriyaga qiziqqan va Bleyler qo'l ostida tahsil olgan. 1912 yil gallyusinasiyalarga bag'ishlangan tadqiqotlari uchun ilmiy darajaga ega bo'lgan. Rorshax Shveysariya psixiatrik klinikalarida mehnat qilgan. Qisqa umrining asosiy bo'lagi Rossiya bilan bog'liq, ya'ni uning turmush o'rtog'i rossiyalik Olga bo'lgan. Rorshaxni ilmiy qarashlari shakllanishida Freyd va Yunglarning fikrlari alohida ahamiyat kasb etgan. U psixotahlillarni kattalashtirgan holda nevrologik tekshirishlar o'tkazgan. O'z ilmiy faoliyati davrida diniy muammolarga katta qiziqish bilan qaragan. Qabul qilishning o'ziga xosligini o'rganishda amorf (o'zgarmas, qotgan) tasvirlarni, dog'larni qo'llagan (1911–1917). Rorshax ikki yildan so'ng bunga bag'ishlangan kitobini yozib tugatadi. «Psixodiagnostika» kitobi unga katta shuhrat keltirgan va butun dunyoga tanitgan. Bu kitobni u katta qiyinchiliklar bilan 1920 yilda chop etadi. 1922 yil peritonitdan vafot etgan.(17-rasmga qarang)

Trumen Li Kelli

1884 yil tug'ilgan. Matematika bo'yicha bakalavr (1909) va psixologiyadan magistr

darajalarini (1911) Illinois universitetida olgan. Psixologiyani Kolumbiya universitetida *Torndayk* va *Vudvorts* qo'l ostida o'rgangan. Doktorlik dissertatsiyasi ta'lim olishda intellektni o'lchash bilan bog'liq

bo'lib, uni 1914 yilda himoya qilgan. Stenford universitetida professor assistenti, keyinchalik, psixologiya fanidan professor lavozimida (1920–1931) faoliyat yuritgan. Termen bilan hamkorlikda xalq ta'limi testlarini yaratishda ishtirok etgan. 1924 yil «Statistik metodlar» kitobini yozgan, keyinchalik «Ta'limda o'lchashning interpretatsiyasi» monografiyasi chiqqan (1927). Mashhur kitobi «Insonlar tafakkurining chorrahasi»da (1928) bo'lib, unda intellektga boshqa omillar ta'sir qilishini yoritib bergan. 1931 yil Gadvard universitetining professori bo'lib ishlagan. 1950 yil mehnat ta'tiliga chiqqan va 1961 yilda vafot etgan.

P sixodiagnostikaning miqdoriy metodlarini yaratilishi XIX asr ikkinchi yarmida, nemis psixologi *V.Vund* rahbarligi ostida yaratilgan birinchi tajribaviy psixologik laboratoriyaning faoliyati bilan asoslanadi. Bu laboratoriyada psixodiagnostik tahlillar qilish maqsadida turli xil asbob-uskunalardan foydalanar edilar.

Shuningdek, ushbu davrda psixik va fizik holatlar o'rtasidagi miqdoriy bog'lanishlar mavjudligini izohlagan psixofizik qonunning yaratilishi, psixodiagnostika usullarining yaratilish jarayonini tezlashtirib yubordi. Asosiy psixofizik qonun psixologik holatlarni o'lchash imkoniyatini ochdi va bu yangilik sezgini o'lchash uchun subektiv shkalaning yaratilishiga sabab bo'ldi. Mazkur qonunga muvofiq, asosiy o'lchash obekti bo'lib, inson sezgilari hisoblandi. Shu bois, XX asr oxirlarigacha amaliy psixodiagnostika sezgi jarayonlarini o'lchash bilan chegaralandi, xolos.

Insonning psixik jarayonlari, xususiyatlari va holatlarini o'rganishga daxldor psixodiagnostikaning zamonaviy metodlari esa XIX asr oxirlari va XX boshlarida yuzaga kela boshladi.

Zamonaviy psixologiyada malakali psixologlar yordamida miqdoriy psixodiagnostik metodlarga asoslanadigan ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning ayrim sohalari tez rivojlanib bormoqda. Biroq endi matematik statistikani psixologiyada emas, balki, biologiya, iqtisodiyot kabi fanlarda ham qo'llay boshladilar.

Ma'lum vaqtdan so'ng esa psixik holatlarning miqdoriy psixodiagnostikasi uchun maxsus usullar yaratilishi yuzaga keldi. Masalan, faktorli tahlil shular jumlasidan bo'lib, u birinchi bor shaxs xislatlarini va aqliy rivojlanishni psixodiagnostika qilishda ishlatildi.

Hayotiy va pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, diagnostik faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan pedagog, ba'zi hollarda amaliyotchi-psixolog ishni o'zida mavjud metodikalardan kelib chiqib, shu metodika yordamida tadqiqot, tekshirish o'tkazish, ma'lumot yig'ishdan boshlaydi. Keyin esa olingan natijalarni hayotga moslashtirishga harakat qilib, o'z ishining amaliy ahamiyatini ko'rsatishga harakat qilinadi. Bunda ish uslubining asosiy kamchiligi shundaki, ba'zida juda mukammal, o'ta ilmiy, amaliy asoslangan metodikalar aniq pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalariga mos kelmasligi, ulardan yiroqligi sababli kutilgan natija bermaydi. Pedagogning diagnostik faoliyatining samaradorligi, muvaffaqiyati tanlangan va qo'llanilgan metodikaning "noyobligi" bilan emas balki bu metodikaning shu muhitga, shu davrda o'rganilayotgan aniq maqsadga, vazifaga mosligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham har qanday diagnostik faoliyat nimani yoki kimni, qaysi maqsadlarda o'rganish, olingan natijalardan qanday foydalanishimizni anglashdan boshlanishi shart. Boshqacha qilib aytganda, pedagogning diagnostik faoliyati quyida ko'rsatilgan bosqichlarda, ketma-ket olib borilishi kerak.¹⁵

Psixodiagnostika va psixometriya.

Diagnostik xatolar to'g'risidagi to'liq tahlil qilingan fikrlar, asosan, taniqli mutaxassis *Z.Pleviskiy (Plewiska)* asarlarida bayon qilingan. U o'z qarashlarida "diagnostik xatolar"ni quyidagi ikkita asosiy guruhga bo'lgan:

¹⁵ T.Melcherti"Foundations of Professional Psychology" 2011. 135-145-betlar

- ✚ *ma'lumot yig'ish bilan bog'liq bo'lgan xatolar;*
- ✚ *ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xatolar.*

Birinchi guruh xatolarga quyidagilar kiradi:

✓ *Kuzatishdagi xatoliklar* (masalan; tashxis uchun muhim bo'lgan shaxsning shakllanishidagi chiziqlarga nisbatan "ko'rlik").

✓ *Ro'yxatga olishdagi xatoliklar* (masalan; bayonnomadagi emotsionallik psixologni tekshiriluvchiga bo'lgan munosabatiga bog'liq).

✓ *Asbob-uskunalar xatosi* – apparatlardan foydalanishni bilmaslik va o'lchovchi texnikada interpretasion hamda texnik jihatdan nosozlik oqibatida yuzaga keladi.

Ikkinchi guruh, ya'ni ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida kelib chiqadigan asosiy xatoliklar quyidagilardan iborat:

✓ *"Birinchi hayratlanish" effekti* – dastlabgi birinchi ma'lumotni qiymatidan ortiq ravishda baholashga bog'liq xatolikdir.

✓ *Atribusiya xatosi* – tekshiriluvchida mavjud bo'lmagan omillarni hisobga olish yoki noturg'un xususiyatlarni turg'un, deb baholash natijasida kelib chiqadi.

✓ *Yolg'on sabablar xatosi.*

✓ *Bilish radikalizmi* – ishchi farazlarga nisbatan yuqori baholash an'anasining mavjudligi va yaxshi iboralarni qidirishga bo'lgan xohishning yo'qligi.

✓ *Bilish konservativizmi* – farazlarni o'ta ehtiyotkorlik bilan shakllantirish.

Psixodiagnostik faoliyat jarayonida kuzatiladigan xatolar yoki klassifikasiyaning ahamiyatga ega bo'lish darajasi aniq emas. Bu xatolarning sodir bo'lishi xohlagan vaqtda yuz berish ehtimoli mavjud. Shu bois, psixodiagnostik o'ziga xoslik aniq uslubiy holatlarga, jumladan, testlarga va nazariy jihatdan o'tkazilgan tekshirishlarga taalluqlidir.

Psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillari.

Psixologik testlar va so'rovnomalardan to'g'ri foydalanish maqsadida bir qator ehtiyot choralarining mavjudligi, ularni amaliyotda qo'llash samarasini oshiradi. Diagnostik metodlarni qo'llanilishi va yoyilishi har bir mamlakatning axloqiy standartlari yoki professional axloq kodeksiga bo'ysunishi kerak. Psixolog (tashxischi)ning professional axloqiy kodeksi zamidida insoniyat manfaatiga xizmat qiluvchi fanning shakllanishi orqali ayrim individlarning muvaffaqiyati va huquqlarini himoya qilishdek qadriyatlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Psixodiagnostika sohasi bilan uzviy bog'langan, hozirgi G'arb va Amerika psixologiyasi fanida ma'lum yechimga ega bo'lgan quyidagi asosiy axloqiy muammolar mavjud:

✚ Diagnostik metodlarni qo'llaydigan mutaxassis malakasining darajasi

Diagnostik metodlarni malakali tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilishi talabi, ularni noto'g'ri ishlatilishidan mijozni himoyalashdagi birinchi qadam hisoblanadi. Albatta, zarur malaka diagnostik metodlar yo'riqnomasidan kelib chiqqan holda o'zgarib boradi. Masalan, individual intellekt testlari shaxsiy so'rovnoma va testlardan o'quv va professional faoliyatdagi muvaffaqiyatni testlash jarayoniga nisbatan maxsus psixologik tayyorgarlikni talab qiladi.

Yaxshi malakaga ega bo'lgan psixolog (tashxischi) shunday metodikalarni tanlay bilishi kerakki, bu shaxsiy maqsad uchun o'tkazilayotgan diagnostik jarayonga ham, tekshirilayotgan konkret kishi uchun ham mos tushsin. Shuningdek, u tanlangan metodikalarga aloqador ilmiy adabiyotlarni o'rgangan hamda texnik ko'rsatkichlar hisoblangan norma, validlik va ishonchlilik xarakteristikalarini yaxshi o'zlashtira olgan bo'lishi kerak. Ma'lumki, qo'lga kiritilgan tashxis natijalari, uni o'tkazishdagi turli vaziyatlarga nisbatan og'uvchanlik xususiyatini namoyish etadi. Shuning uchun psixodiagnost xulosalarni tekshiriluvchiga aloqador qator qo'shimcha ma'lumotlar asosidagina diagnostik baholashdan so'ng bayon etadi. Eng muhimi, olingan natijalari asosidagi noto'g'ri tahlillar kelib chiqmasligi uchun u psixologik bilimlardan yetarlicha xabardor bo'lishi kerak. Agar psixologik diagnostik soha boshqa mutaxassislari bo'lmagan kishilar tomonidan olib borilsa, imkon boricha jarayonga malakali psixologning ham ishtiroki kerak. Chunki u tadqiqotni samarali olib borishdagi zarur sharoitlarni yaratib bera oladi va olingan natijalarni to'g'ri tahlil

qilishda ko'maklashadi.

Diagnostik metodlarni qo'llash

Diagnostik metodlarni qo'llash huquqi ma'lum malakaga ega bo'lgan mutaxassislariga beriladi. Hozirda esa, bu huquqdan boshqa soha vakillari ham foydalanmoqda. Amerikalik psixologlar fikriga ko'ra, metodikalarga ega bo'lish uchun mutaxassis (psixolog) yoki uning to'g'ri qo'llanilishi uchun ma'suliyatni o'ziga olgan kishilargina imzolari bo'lgan taqdirda foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. G'arbiy Yevropa psixolog (tashxischi)larining axloq qoidalarida diagnostik metodlarni tarqatilishini cheklash taklif etilgan. Bu cheklanishlar mohiyatan ikki xil mazmunga ega:

- ▶ *metodikalar mohiyatini oshkor etmaslik;*
- ▶ *metodikalardan noo'rin foydalanishning oldi olish.*

Shuningdek, boshqa qo'shimcha professional ma'suliyat cheklashlar mualliflar tomonidan yaratilayotgan yangi metodikalarning sotilishi bilan bog'liq. Chunki, ularni kishilarda qo'llash uchun taqdim etishda yetarli darajadagi obektiv asoslar bo'lishi kerak. Shu bois, diagnostik metodlarni yaratuvchi (muallif)lar zimmasidagi ma'suliyatga uzluksiz ravishda metodikalarning eskirib qolishini oldish olish, tekshirish va standartlashtirish jarayonlarini amalga oshirish kiradi. Amerikada metodikalar va ularning asosiy qismlarini gazeta, jurnal hamda risolalarda keng miqyosda yoritish yoki o'z-o'zini baholash uchun nashr qilish man etiladi. Mashhur mutaxassis *A.Anastazi*, bunday vaziyatlar nafaqat metodikalarning samarasizligini, balki, kishi psixikasiga salbiy ta'sir qilishdek katta xatolarga olib kelishini alohida ta'kidlab o'tadi.

Yana bir G'arbda keng tarqalgan, ammo professional talablarga javob bermaydigan faoliyat turi sirtqi xat orqali testlashtirishdir. Ma'lumki, yuborilgan test blanklari orqali mijozning qobiliyatlar yoki shaxs xususiyatlarini aniqlashga oid testlarni bajarish jarayonini to'g'ri amalga oshirilgan, deb baholab bo'lmaydi. Chunki testlashtirishni nazoratsiz amalga oshirish va qo'shimcha psixologik ma'lumotlarni inobatga olmaslik ijobiy natijaga qaraganda ko'proq salbiy oqibatlarini yuzaga keltirib chiqarish mumkin.

Tadqiqot natijalarini sir saqlashning ta'minlanganligi

Shaxsiy testlarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan savollar shaxsga daxldor ma'lumotlarga ega bo'lish omil orqali izohlanadi. Diagnostlar uchun bu, subektning shaxsiy, emotsional, motivasion xususiyatlarini o'rganishdagi testlar mazmuni hamda baholangan natijalarini mijoz uchun ma'lum qilinmagan va anglanmagan holatda namoyon bo'lishi kerakligi nozik masala hisoblanadi. Buning uchun kishilar biron-bir tadqiqotda aldangan holatda ishtirok etishlari mumkin emas. Shu bois, qo'llaniladigan psixodiagnostik metodlarning foydalanish maqsadi va usullarini chuqur anglay bilishning o'zi yetarli darajada ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlar va qo'llaniladigan barcha testlar deyarli shaxsning ichki sir-asrorlar bayon etish imkoniyatiga ega. Bu borada, faqat professional mutaxassisgina vaziyatni inobatga olib o'z ma'suliyatiga suyangan ravishda tadqiqot olib borishi hamda xulosa chiqarishi talab qilinadi.

Konfidensiallik

Ma'lumotlarni sir saqlash kabi konfidensiallik muammosi ham barcha psixodiagnostlar diqqat markazida turgan masalalardan biridir. Bu masala negizida: "Diagnostik natijalarga kimning huquqi bor?", – degan savol doimo ko'ndalang turadi. Shu bois, *bir tomonda*, testning asl mohiyatini bayon etmaslik va uning baholarini noto'g'ri talqin qilish xavfini mavjudligi bo'lsa, *ikkinchi tomonda*, mijoz uchun tadqiqot natijalarini bilishning obektiv zarurati turadi.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilish

Psixologlar tadqiqot natijalaridan mazmunli va yaroqli holda foydalanish uchun, ularni mijozga qay tarzda ma'lum qilish usullarini izlash bilan mashg'uldirlar. Ma'lumki, olingan ma'lumotlarni shundayligicha uzatish mumkin emas. Uni psixologik axloq kodeksiga nazarda tutilgan talablardan kelib chiqqan holda amalga oshirish zarur. Test ma'lumotlarini qanday ko'rinishda uzatishdan qat'iy nazar (majlis sharoitidami, xat orqalimi, yozma ravishdami), uning eng muhim shartlaridan biri, axborotni sonlar shaklida emas, balki bajarilganlik darajasini psixologik tahlil qilish yo'li bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

8-Mavzu: Kasbiy faoliyat darajalari va ularni aniqlash vo'llari

Reja.

1. **Kasbiy faoliyat jarayonida shaxs taraqqiyoti.**
2. **Shaxsning kasbiy kamoloti.**
3. **Mehnat sub'ekting kasbiy shakllanish omillari.**
4. **Mehnat jarayonida kasbiy yetuklik darajalari.**
5. **Kasbiy sifatlar va kasbiy identifikatsiya muammosi.**

Kasbiy faoliyatni turli darajada o'zlashtirgan mutaxassislar xaqidagi tasavvurlar, qolaversa, kasbiy shakllanish mezonlarining tavsifi keltirib o'tilgan. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz ravishda rivojlantirish extiyoji va turli ishlab chiqarish sohalarida ko'p yillik ish staji bilan faoliyat yuritayotgan shaxsning o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirmasligi shaxsni xar tomonlama kasbiy faoliyatda o'zini namoyon qilishi muammosini yuzaga keltirdi. Bu muammolarni xal qilmasdan turib kelgusi kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatli sifatli ta'limni va rejalashtirishni amalga oshirish mumkin emas. Bu muammoning amaliy axamiyati uni turli fan doiralar qatorida psixologiya doirasida xam o'rganishni muximligini kursatib berdi. Kasbiy shakllanish jarayonini o'rganishdagi qiyinchiliklar qobiliyatlar va kasbiy qobiliyatlarning ishni bajarishning muayyan bir usuliga asoslangan normativ faoliyatga yo'naltirilganligidadir. Shuning uchun xam kasbiy etuklik darajasi ajratib kursatilmaydi, balki faqatgina yosh xususiyati va mutaxassis sifatida yuritilayotgan vaqt inobatga olinadi.

Shaxsning kasbiy faoliyat darajalari masalasi ko'pgina mualliflar tomonidan tadqiq qilingan. Bu inson taraqqiyotida tez-tez uchraydigan jarayondir. Ko'pincha mutaxassis shaxsining to'la tahlil qilish tushib qoladi, shaxsning kasbiy shakllanish bosqichi esa xayot yuli bosqichi bilan muvofiq tarzda kurib chiqiladi. Shuning uchun vaqt doirasida qat'iy chegaralanib qoladi. Ijtimoiy soxalarda faoliyat yurituvchi shaxsning kasbiy shakllanishini urganishda insonning imkoniyatlarini tuliq ochib beruvchi sub'ekt va ijtimoiy muxit orasidagi turli ijtimoiy aloqalar tipiga axamiyat berish muximdir. Xar bir ijtimoiy aloqalarning yana odamovilik va muloqotchanlik kabi kichik tiplarga bo'linishi biz uchun muxim axamiyatga egadir. Birinchi tipda sub'ekt o'zini "topgan", o'zida va faoliyatida o'zini o'zgartirishni xoxlamasligi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi tip esa sub'ektning o'zini o'zi "qidirishi" bilan izoxlanadi. Bu o'tish, oraliq xolat xisoblanadi.

Individ (yoki jamiyat) bir shaklni tark etib jamiyatning boshqa yuqori darajasiga erishadi. Garmonik aloqalar uchun sub'ekt yaxlit shaxs sifatida namoyon buladi, u sub'ektpredmet tartibi - rolli niqob sharti bilan belgilanadi. Bu yerda inson "Taraqqiyotning absolyut xarakati xolatida" bo'ladi.

Keyinchalik shaxsni kasbiy shakllanishi borasidagi qarashlarga S.L.Rubinshteyn ishlari asos bo'lib xizmat qildi. S.L.Rubinshteyn insonning xayotga munosabatini ifodalovchi ikki usulni ajratib kursatgan. Birinchi usul - bu insondagi barcha munosabatlar to'liq emas, balki aloxida xodisalariga munosabat doirasiga kiruvchi xayotdir. Bunday munosabatda inson xayot sub'ekti xisoblanmaydi, shu bilan birga undan aloxida xam bo'lmaydi. Bu yerda xayotning o'zi "tabiiy jarayon sifatida" namoyon bo'ladi, inson xayot tarzi bilan uni to'ldiradi. Bu usul insonning xayoti o'zidan o'zi kechadigan xayot-avtomat aloqalariga kiruvchi xususiyat sifatida tavsiflanadi. Ikkinchi usul ichki refleksiyaning namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, u "xayotning bu uzluksiz jarayonini to'xtatib qo'yishi, o'zib quyishi mumkin va insonning g'oyalar dunyosidan chiqarib yuboradi. Inson g'oyalar dunyosidan tashqaridagi pozitsiyani egallaydi...". Bunday refleksiyaning namoyon bo'lishi xayotiy qadriyatlar tizimini aniqlash bilan bog'liqdir. S.L.Rubinshteyn aynan shu xolat bilan voqelikning yangi usuliga o'tish imkoniyatini bog'laydi.

Bevosita aloqalarni uzish va ularni yangi negizlar asosida tiklash ikkinchi usulga o'tish bilan yakunlanadi. Shu vaqtdan boshlab "ruhiy buzilishlikka, ahloqiy skeptizmga, ahloqiy beqarorlikka yoki boshqa - yangi anglangan sharoitda ahloqiy inson xayotini qurishga yo'l ochila boshlaydi". Sanab o'tilgan fenomenlar yangi usulning mavjudligini tavsiflamaydi, balki, shaxs ilgari gidek yashash imkoniyati yo'q bo'lgan vaziyatda qolganda o'zining betqaror "Men" tizimini buzilishlardan saqab qola olmasligini anglatadi. Bu vaziyat ba'zida "o'zini safarbar etish" xolati deb nomlanadi.

Bu shunday holatki, bunda shaxs muayyan bir bosqichni bosib o'tgan, lekin yuqoriroq darajaga erishmagan. Birinchi chiziq o'zining natijasiga ko'ra ikkita imkoniyatga ega. Ulardan biri - bu keyingi bosqichga (ijtimoiy intilishlar modusiga) o'tish. Ikkinchisi - bu bosqichda izlanish va "to'xtab qolish"dan bosh tortishdir. Shaxsning kasbiy shakllanishini boshqa vektori inson allaqachon o'zini "topganligi", uning o'zini va o'z faoliyatini o'zgartirishni istamasligi bilan yakunlanadi. Shaxs faoliyatga nisbatan o'z extiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida qaraydi.

Shu bilan bir vaqtda, shaxsni faoliyatga jalb qilinganligi, uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga bulgan ustanovkalari, sub'ektning mexnat jarayoniga shaxsning psixologik xususiyatlari orqali aniqlanuvchi yuqori imkoniyatlarni tadbiiq qilish malakasi va mazmuniga moslashishi, ko'nikishiga intilishi bilan bog'liqdir.

Kasbiy faoliyat san'at darajasigacha ko'tariladi va shaxsning zaruriy ishtiroki natijasiga ko'ra predmetli yoki to'liq predmetli ko'rinishlarga ajratiladi. Shunga muvofiq tarzda, hech qanday faoliyat motivga ega emas, chunki hech qanday motivning o'zi yo'q, faqatgina muayyan faoliyatga egalik qila olinsa bo'ldi. Bu bosqichda xam boshqalar singari ikkita chiziqni ajratib ko'rsatish mumkin, ulardan biri kasbiy faoliyatni endi o'zlashtirayotgan insonlarga xosdir.

Bu muammoni o'rganishning muhim nuqtasi "professional (mutaxassis) ", "professionalizatsiya (kasbiy shakllanish) ", "professionalizm", "kompetentlik", "malaka" va "kasbiy yetuklik" tushunchalari xisoblanadi. Ma'lumki, oxirgi tushuncha ("kasbiy yetuklik") mehnat sub'ektining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanib, u mutaxassisning shakllanish (professionalizatsiya) jarayoni va uning natijasi ("professionalizm", "kompetentlik", "malaka") sifatida namoyon bo'ladi. "Kasbiy yetuklik" tushunchasining moxiyati qator jaxon psixologlarining (Derkach, 2002; Zazikin, 1998; Zeer, 2003; Noskova, 2000; Povarenkov, 1999; Rean, 2003; Tolochek, 2005) tadqiqotlarida o'rganilgan.

Yetuklik - bu shaxs rivojlanishining shunday darajasiki, bunda shaxs o'zining fuqarolik, oilaviy, kasbiy va boshqa majburiyatlarini to'liq bajarishga qodir bo'ladi, qolaversa, jamiyatning aniq soxalarida va mexnat faoliyatida samarali ishtirok etadi. "...taraqqiyotni taxlil qilish bu jarayonning ega murakkab va ziddiyatli ekanini ko'rsatmoqda: inson organizmining turli tizimlaridagi taraqqiyotning yuqori darajaga erishishi uchun turlicha vaqt sarflanganligi sababli uning psixikasi o'ta sodda va juda murakkabdir xamda uning evolyusiyasini boshlanishidagi geteroxronlik va kechishidagi tezlikning noadekvatligi kuzatiladi".

Madaniyat insonlarning bir-biridan farq qiladigan hayot yo'lini qonunlashtiradigan harakatlar, ishonchlar va xulq-atvorlarning yagona bir tizimidir. Ba'zida bu atama artistik, intellektual va hayotning ilmiy faoliyatini nazarda tutishiga qaramasdan, men bu erda uni hayot yo'lini karakterlovchi umumiy hamma narsani nazarda tutadigan simfoniy konsektlaridek yaxshi basketbol o'yinlari, qimmat restoran sifatida Mc_Donald'sni atama sifatida ishlataman. Bu umumiy sezish madaniyati umumiy til, tarixi bir bo'lgan etnik so'zi bilan deyarli sinonim. Madaniyat o'ziga xos bayram yoki urf-odatlariga o'xshab o'zining aniq elementlariga ega, lekin shuningdek autsayderlar ahamiyat ham berilmaydigan xususiyatlari ham bor. Qachonki sinfxona o'quvchilarni turli xil etnik gruppalardan va ko'plab madaniyatlardan o'ziga jalb qilganda, o'quvchilar unda kata farq borligini aniqlaydilar. O'qituvchilar o'quvchilarning odatiy harakatlari, ishonishlar, xulq-atvorlari bir-birlarinikidan qanday farq qilinishi, hamda asosiysi o'qituvchilarnikidan qanday farq qilinishini tushunib olishlari lozim. Lekin tushunishning bunday usuli murakkabdir. Bu mavzuni tashkillashtirishda, ularni madaniyatning jamiyat va psixologiya yo'nalishlaridagi farqlar bilan tillardagi farqlarni qanday bog'lashlaridagi farqlarga qarab bir necha ko'rinishlarda tahlil qilaman'

Manba:

¹ *Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 75-80 betlar*

Muayyan bir shaxsning etuklik darajasi uning individual xususiyatlari va ularning ijtimoiy muxit talablari, tarakkiyot sharoitlari bilan muvofiklik darajasiga bog'likdir. Etuk shaxs kuyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: axlokiy va ijtimoiy, mustakillik, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, xarakterning qat'iyligi, bag'rikenglik, ishonchlilik, samimiylik, xaqqoniylik va boshqalar. O.G.Noskovaning ta'kidlashicha, amerikalik psixolog K.Arjiris yetuk shaxsni infantil, yetuk bo'lmagan shaxsdan farklashning 7 ta mezonlarini ajratib ko'rsatgan.

Yetuklik davridagi shaxsning emotsional soxasi serqirraligi bilan ajralib turadi, ularda kayfiyatning tez o'zgarishi kuzatiladi. Yoshlik davriga kelib ijobiy emotsiya va xissiyotlarni yuzaga keltiruvchi oilaviy xayotning barkarorlashuvi, ruxiy va jismoniy potensialning to'lik namoyon bo'lishi, Xayotiy va kasbiy rejalarning amalga oshirish xodisasi sodir bo'la boshlaydi. Shu bilan bir vaqtda, ularning o'z-o'ziga xaddan ortiq yuqori yoki past baxo berishlari, depressiya, o'zining ijtimoiy va mexnat mavqeidan qoniqmaslik xissi, stressga barqarorlikni pasayib ketishi bilan kuzatiladi.

A.A.Rean xam mualliflar bilan birga qator olimlarning va o'zining izlanishlari natijalari asosida 40-60 yoshlarga kelib shaxsda psixofiziologik funksiyalarning susayishi kuzatiladi, lekin bu kognitiv soxasida aks etmaydi va ish qobiliyatini susaytirmaydi, degan xulosaga keladi. Ayrim qobiliyatlar, ayniqsa, faoliyatning turli shakllari bilan bog'liq qobiliyatlar taraqqiy etishda davom etadi va intellektning rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda shaxs donishmandga aylanadi - uning dunyoqarashi kengayadi, xar qanday xodisalarni chuqur va xar tomonlama o'ylab ko'radi, u yoki bu vaziyatning rivojlanishini bashorat qilishi, voqealarni kechishini nazorat qilishi va turli masalalarni ijodiy xal qilishi mumkin. Mualliflarning ta'kidlashicha, bu davrda shaxs intellektual taraqqiyotining xususiyatlari ko'p xollarda uning shaxsiy xarakteri, xayotiy ustanovkalari, rejalari va qadriyatlarini tizimiga bog'liq bo'ladi.

Mualliflarning ta'kidlashlaricha, motivatsiya tuzilishida qisqa vaqt ichida va to'liq shaklda rejalashtirilgan natijalarga erishish istagining kuchi negizida kuzgatuvchi extiyojlarni qondirishga yo'nalganlik yotadi. Xarakatlarni faollashtiruvchi asosiy motivlar - ijodiy potensialni amalga oshirishga intilish, o'zining bilim, tajriba, faoliyat natijalarini kelgusi avlodlarga yetkazish, o'zining va yaqinlarining xavfsizligini ta'minlash, o'zining ijtimoiy va kasbiy mavqeni tartibga keltirish, xayotiy rejalarni amalga oshirishda yaqinlariga yordam berish, keksalik davrida tinch va farovon xayot kechirishga tayyorlanish va boshqalar xisoblanadi. Bu yosh davri uchun xayotga o'zgacha nazar bilan qarash va chuqur mushoxada qilish, shaxsiy, oilaviy va kasbiy soxalarda avvap qabul qilingan qadriyatlar tizimini qayta chiqish kabi xususiyatlar xosdir.

Majburiy xayotiy va kasbiy uzgarishlar fakatgina stressni rivojlanishiga zamin xozirlabgina kolmasdan, balki avval kabul kilingan xayotiy rejalalar va motivlarning uzgarishi, qolaversa ulardan voz kechishga olib kelishi mumkin. Yetuklik davrida "Men"-konsepsiyasi shaxsning uzi va atrof-muxit xaqidagi yangi tasavvurlari bilan boyidi. "Men"-konsepsiyasi shaxsning konseptual negizini boyishi natijasida rivojlanadi. Uning asosida axloqiy normalar, xuquq va shaxsiy qadriyatlar negizida shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi yotadi. Shaxsga nisbatan realistik, ongli munosabati uning shaxsiy "Men"iga yo'naltirilgan emotsiyalarni boshqarish imkonini beradi. O'z-o'ziga baxo berish umumiy xarakterga ega bo'lib, ularning "proeksiyasi" turli vaziyatlarda namoyon bo'ladi. "Men obrazi" ijtimoiy rollarni qabul qilish va shaxsiy mavqeni tiklash bilan bog'liq ravishda boshqa shaxslarning (bolalar, ukuvchilar va boshkalarining) Taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirilgan buladi. Yetuklik davrida yetakchi faoliyat mexnat xisoblanadi.

Kasbiy faoliyatda orttirilgan tajriba muxim axamiyatga ega. Muloqot va shaxslararo munosabatlarning axamiyatini kuchaytiruvchi oraliq va boshqaruvchi funksiyalar bilan bog'liq xolda kasbiy xulq-atvorning yangi shakllari rivojlanadi va namoyon bo'ladi. Faoliyat soxasining doirasi kengayadi, yangi xulq-atvor strategiyalari yuzaga keladi, shaxsiy mexnat jarayoni va uning natijalariga xamda boshqa mutaxassislariga nisbatan mas'uliyatlilik xissi ortadi. Oilaviy xayotdagi barqarorlik, maqsadga muvofiqlik bilan tavsiflanib, bolalarga va qariyalarga yordam berishga bo'lgan extiyoj kuchayadi. Mexnat yuklamasining kattaligi, funksional zaxiralarning susayishi va

unga nisbatan e'tibor xamda vaqtning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklashga sarflanishi natijasida shaxsda dam olishni tashkil qilinishi biroz cheklanadi. Demak, yetuklik davrining o'ziga xos tomonlari mexnat faoliyatining muxim ta'sir darajasi, xayotiy va mexnat motivlarining shakllanishi va amalga oshishi, adekvat "Men" - konsepsiyasining tarkib topishi, shaxsiy imkoniyatlarning shaxsiy maqsad va rejalar bilan muvofiqligi, ma'naviy- mazmuniy ustanovkalarining amalga oshishi bilan shartlangan shaxs tuzilishining turli komponentlarini progressiv rivojlanishida aks etadi. Qolaversa, bu davrda me'yoriy inqirozlar va shaxs deformatsiyasi kuzatiladi, bu esa shaxs taraqqiyotining pozitiv tendensiyasi bo'zilganligidan, xattoki, shaxs tuzilishidagi ayrim komponentlarning namoyon bo'lishi va xolatiga xamda shaxs xulq-atvoriga salbiy ta'sir qilayotganidan dalolat berishi mumkin.

Turli yosh davrlarida shaxs psixik taraqqiyoti shaxs tuzilishining u yoki bu komponentlarining uziga xos sifatleri va bu jarayonning namoyon bo'lishini ayrim qonuniyatlari bilan cheklanib qolmasdan, aynan:

❖ Turli psixik funksiyalar va xususiyatlarning taraqqiyotini nomuvofikligi (ular uzlarining yuksalish chukkisi, barkarorlik va inkiroz boskichlariga ega), shu bilan birga taraqqiy etganlik kanchalik past bo'lsa, ikkilanish shunchalik kuchli bo'ladi;

❖ Shaxs xayot-faoliyati va psixik faoliyat funksiyalari xamda ta'lim tizimini roli va tuzilishining o'ziga xosligi orqali aniqlanuvchi shaxsning alohida komponentlarini shakllanishining turli vaqtlarda sodir bo'lishi- geteroxronlik fazasi;

❖ Psixik faollik tizimini barqarorligini ta'minlovchi, vaqtga bog'liq bo'lmagan holda namoyon bo'luvchi rivojlanishning alohida bosqichlarini

Kasbiy yetuklikni mutaxassis shaxsining shakllanishi va mexnat sub'ektining kasbiy shakllanishi jarayoni sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon mexnat faoliyatini boshqarish va amalga oshirish bilan bog'liq, lekin u faqatgina operatsional soxa taraqqiyoti, bilim, kunikma va malakalarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmaydi, balki S.L.Rubinshteyn, B.G.Ananov, B.F.Lomov, A.N.Leontev va boshqalarning tadqiqotlarini guvohlik berishicha, shaxs ijtimoiy xulq-atvorini psixik boshqarishning funksional tizimini shakllanishi bilan bog'liq. Bu jarayonda shaxsning kasbiy kamolotini asosiy qonuniyatlari xaqidagi tasavvurlarning taraqqiyoti va turli omillar ta'sirida uning dinamikasini boshqarish muxim rol o'ynaydi, buning natijasida shaxs o'zini kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida anglay boshlaydi va kasbining ijtimoiy axamiyatlilik darajasini tushunadi.

Ko'rsatib o'tilgan sub'ektiv modellarning roli qator tadqiqotlarda o'z aksini topgan bo'lib, ular: "stereotiplashgan kasbiy namunalar shaxs tajribasining to'liq integratsiyasiga yo'l qo'ymaydi, bu vaziyatda kasbiy shakllanish shaxs taraqqiyoti uchun to'siq bo'lib xizmat qilishi xam mumkin", degan g'oyani tasdiqlaydilar. Faqatgina individuallashtirilgan, qolaversa, shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olgan xolda yaratilgan kasbiy namunagina shaxs taraqqiyoti uchun xizmat qilishi mumkin, chunki ular muayyan bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bilan muvofiq bo'ladi. O'zini o'zi anglash va shaxsning kasbiy shakllanishi muammosi bu jarayonda sub'ektlarning turli kasbiy tajribaga ega ekanliklari, barqaror qadriyatlar tizimi, shakllangan shaxs tuzilishi, xayotiy pozitsiyani amalga oshirishda ijtimoiy, kasbiy va iqtisodiy sharoitlarni aniqlash bilan aloqadorlikda yangi qirralarga ega bo'ldi. Professiogeneznining markaziy nuktasida mexnat sub'ektining kasbiy shakllanishi va uni bir necha aspektlarini keng kulamda kurib chikish maksadga muvofikdir: Birinchidan, shaxs taraqqiyoti sifatida - bu muayyan mexnat sub'ektining faollik darajasiga bog'lik va etakchi faoliyat xarakteriga asoslangan xolda aniq bir yosh davrida namoyon bo'ladi. Bu umumiy sezish madaniyati umumiy til, tarixi bir bo'lgan etnik so'zi bilan deyarli sinonim. Madaniyat o'ziga xos bayram yoki urf-odatlariga o'xshab o'zining aniq elementlariga ega, lekin shuningdek autsayderlar ahamiyat ham bermaydigan xususiyatlari ham bor. Qachonki sinfxona o'quvchilarni turli xil etnik gruppalardan va ko'plab madaniyatlardan o'ziga jalb qilganda, o'quvchilar unda katta farq borligini aniqlaydilar. O'qituvchilar o'quvchilarning odatiy harakatlari, ishonishlari, xulq-atvorlari bir-birlaridan qanday farq qilinishini, hamda asosiysi o'qituvchilikidan qanday farq qilishini tushunib olishlari lozim. Lekin, tushunishning bunday usuli murakkabdir. Bu mavzuni tashkillashtirishda, men ular madaniyatning jamiyat va psixologiya

yoʻnalishlaridagi farqlar bilan tillardagi farqlarni qanday bogʻlashlaridagi farqlarga qarab birnecha koʻrinishlarda tahlil qilaman¹⁶

Kasbiy shakllanganlik darajasini aniqlash uchun shaxsning sifat va miqdor jihatidan kasbiy tayyorgarlik darajasini, faoliyat samaradorligini, ish qobiliyatini, kasbiy yaroqliligini, oʻz ustida ishlashining muvafaqqiyatlilikini aks ettiruvchi mutaxassisning “malakasi” tushunchasi qoʻllaniladi. Bu tavsifnomalar aniq kasbiy faoliyatning muayyan bir shaxs xususiyatlariga (kasbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa) qoʻyadigan normativ talablari bilan mutanosibdir. Yuqori kasbiy malaka, mehnat subyekti yetukligini shakllanishining va namoyon boʻlishining muhim sharti hisoblanadi, vaholanki, ayrim vaziyatlarda kasbiy yetuklik yetarli darajada boʻlmasa ham shaxs qator mehnat funksiyalarini malakali darajada bajarishi mumkin. Koʻp qoʻllaniluvchi “komponentlik” tushunchasi kasbiy shakllanish va kasbiy yetuklikni baholovchi meʼyor boʻlib, hali aniq taʼrifga ega emas. U mehnat subʼektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subʼektning aniq faoliyatning oʻziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qoʻllaniladi. Umuman olganda, bu tushuncha shaxsning qandaydir xayotiy vaziyatlarda, ijtimoiy va kasbiy faoliyatda avtoritarligi, shu soxa boʻyicha tushuncha xamda bilimlarga egaligi bilan tavsiflanadi. A.K.Markovanning fikricha, muayyan bir shaxsning kompetentligi uning kasbiy shakllanishiga qaraganda koʻproq uchraydigan tavsifnomasidir. Bunga koʻra, kasbiy kompetentlikning xilma-xil turlarini ajratish mumkin: maxsus (mehnat jarayonini amalga oshirishda), ijtimoiy (xamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishda), shaxsiy (oʻzini oʻzi boshqarish va takomillashtirish malakalariga egalik) va boshqalar. Ayrim mualliflar kasbiy muloqotdagi, mutaxassis shaxsining rivojlanishidagi kompetentlikni xam ajratib koʻrsatadilar.

Kompetentlikning tarkibiy qismlari qatoriga kognitiv, emotsional, irodaviy sifatlardan tashqari oʻziga ishonch (oʻzining kasbiy bilimlariga, liderlik qobiliyatiga va b); qaror qabul qilish va uning ijrosini boshqarish malakasiga ega boʻlish; qiziqarli umumiy maqsadlarni qidirish, anglash va qaytarma aloqani qoʻllashdagi samarali faoliyat; oʻzini oʻzi boshqarish, oʻzini oʻzi takomillashtirish qobiliyatlariga ega boʻlish; oʻzini oʻzi nazorat qilish, moslashganlik, murakkab muammolarni xal qilishga tayyorlik va tavakkalchilikka moyillik, katʼiyatlilik, kasbiy masʼuliyatlilik va boshqalarni kiritishimiz mumkin. E.F.Zeerning taʼkidlashicha, kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chogida kompetentlikning turli koʻrinishlari intefatsiyalashib borishini va ularning kasbiy muxim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini koʻrsatdi. Aytish joizki, kompetentlikning asosiy darajalari kasbiy tayyorgarlik va tajriba, oʻzini oʻzi anglash, oʻz kuchiga ishonish, oʻzga insonlar tomonidan koʻrsatilgan kamchiliklarni toʻgʻri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlari kiradi. Taxmin qilish mumkinki, mehnat subʼektining sanab utilgan professionallashuv koʻrsatkichlari, mutaxassis bulish (malaka, kompetentlik) va subʼektning kasbiy yetukligi orasida oʻzaro aloqa va oʻzaro taʼsir mavjud. Biroq, bu qarashlarga L.I.Ansiferova tomonidan shaxsning faoliyat bilan xamoxang rivojlanishining optimalligi va aniqligi bilan bogliq ayrim oʻzgartirishlarni kiritdi, unga koʻra xar qanday faoliyat shaxsni shakllantirmaydi va har qanday taraqqiyot shaxs taraqqiyoti bilan bir narsa emasdir. Shaxs rivojlanishi va extiyojlarining faoliyatda namoyon bulishi subʼektning mehnat jarayoni va uning natijasidan qoniqqanligi bilan bogʻliq, qiyinchiliklarni yengishga intilishi va murakkab masalalarni xal qilishdagi muvaffaqiyat, mehnat jarayonida oʻz imkoniyatlarini namoyon qilish istagi - ularning barchasi yuqori professionallikka va kasbiy yetuklikka erishishning garovidir. Shaxs professionallashuvi dinamik jarayon boʻlib, xar bir bosqich oʻziga yarasha rivojlanish darajasini bosib oʻtadi. Shaxsning faoliyatda oʻz kasbiy potensialini amalga oshirishi aynan shu vaziyatga shaxs psixologik toʻzilishini moslashishidagi oʻzaro taʼsirini boshqarish negizida yuz beradi.

¹⁶ Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 75-80 бетлар

Reja.

- 1.Kasbiy va individual izlanishda o'zlikni anglash.**
- 2.Kasbiy anglanganlik belgilashda o'qituvchining strategiyalari.**
- 3.Kasbiy o'zlikni anglashdagi ziddiyatlar.**

Shaxs kasbiy shaqllanishining sermahsulligi va anglay olishining muhim omili uning kasbiy mehnatda ma'no topishidadir, o'z kasbiy hayotini loyixalashtirish, ma'suliyat bilan kasb mutaxassislik va ish-joyini tanlash borasida qaror qabul qilishdadir. Albatta, bu muhim kasbiy muammolar shaxs oldida butun xayoti davomida paydo bo'laveradi. Shaxs esa doimo o'zgarib rivojlanib turadi. Demak, uning rivojlanishini turli bosqichlarida kasbiy anglash muammolari turlicha xal etiladi. Kasblar olamida o'z o'rnini to'g'ri tanlash, o'z ijtimoiy kasbiy rolini kasbiy mexnatga jamoaga va o'ziga bo'lgan munosabatini anglay olishi inson xayotining muxim komponentlari bo'lib koladi. Goxida kishi kasbdan o'zoklashib, undan og'irlik seza boshlaydi unda o'z kasbiy xolatidan konikmaslik xissi paydo bo'ladi. Shuningdek, insonlarda majburiy xolatda kasb (mutaxassislik)ni va ish joyini almashtirish xollari goxida uchrab turadi. Ta'kidlash mumkinki, shaxs oldida doimo undan kasbga bo'lgan munosabatni aniqlash, gohida o'z kasbiy yutuqlarini tahlil etish, kasb tanlovi yoki uni almashtirish qarorini qabul qilish, karyerani aniqlash korreksiyalash boshqa kasbga xos bo'lgan masalalarni xal etishni talab etadi. Kasbshunoslikda barcha bu muammolar kompleksi kasbiy aniklanish deb tushuniladi.

Kasbiy anglash bo'yicha Ye.A.Klimovning fikricha, oson va qisqa muddatli hisoblangan kasb tanlovi aslida "lahzali kelishuv - butun kelgusi hayot" formulasi asosida amalga oshiriladi. Shaxsda rivojlanish yo'llaridan avval turli mexnat sohalariga ma'lum munosabat, ko'p kasblar haqida tasavvur va o'z imkoniyatlarini baxolash, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda to'g'ri yo'l tutishi kasb tanlovining "zaxira variantlari" va navbatdagi kasbiy anglash ichki tayyorgarlikka xos bo'lgan boshqa ko'p narsalar xaqida tasavvur shakllangan bo'ladi. Ye.A.Klimovning fikrini mantiqiy jixatdan umumlashtirib quyidagicha ta'kidlash mumkin. Kasbiy anglash kasbiy tanlovining bir laxzali akti bulib qolmaydi va tanlangan mutaxassislik buyicha kasbiy tayyorgarlik yakuni bilan tugatilmaydi, balki u butun kasbiy xayoti mobaynida davom etadi. Ushbu konsepsiyaning muxim jixati shundaki, bunda kasbiy anglash taxliliga tizimli yondoshuv qullaniladi, ammo tadqiqot muammosining faktgina erta yoshlik yoshi bilan chegaralanishi konsepsiyasining evrestik imkoniyatlarini cheklaydi.

Shaxs kasbiy anglashni tadqiq etib, N.S.Pryajnikov uning quyidagi mazmunli - prosessual modelini asoslab berdi:

- 1. Ijtimoiy foydali mehnatning qadr-qimmatini va kasbiy tayyorgarligining zaruriyatini anglashning qadriyatli, ma'naviy asosi.*
- 2. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda o'z yo'nalishini topish va tanlanadigan faoliyatni kelajakda rivojlantira olish.*
- 3. Kasbiy mehnat olamida umumiy xolda o'z yo'nalishini aniqlay olish va kasbiy maqsadni ajrata olish.*
- 4. Yaqin oradagi kasbiy maqsadlarni keyingi maqsadga eltuvchi yo'llar va vositalari sifatida aniqlash.*
- 5. Kasbiy o'quv yurtlari va ish o'rinlariga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar xaqida ma'lumot berish.*
- 6. Kasbiy maqsadlarga erishishni murakkablashtiruvchi to'siqlar xaqida tasavvurga ega bo'lish, shuningdek, mo'ljallangan rejalarini amalga oshirishga yo'l beruvchi o'z fazilatlarini bilish.*

7. *Anglashning asosiy varianta bo'yicha muvafaqqiyatsizlikka uchragan xolda, tanlov zaxira variantlarining mavjudligi.*

8. *Shaxs kasbiy istiqbollarining amaliy yuritilishini boshlanishi va mo'ljallangan rejalarni doimiy ravishda korrektirovka etish.*

1. Ma'lum bir mehnat vazifada anglash. Bu anglash turi bajarilayotgan faoliyat doirasida o'zini namoyon eta olishini nazarda tutadi. Ishchi o'z faoliyat mazmunini ayrim mehnat vazifalarini sifatli bajarishda ko'radi (masalan, konveyrda ishlash paytida). Tanlash erkinligi va inson xarakterlarining diapazoni minimal darajada aks etishi bilan belgilanadi. Ko'p ishchilarga bu bir xil va bir maromda ishlash yomon ta'sir etadi. Shuning uchun ishlab chikarish tashkilotlari bunday ishlarni bajariladigan ishlar turini almashtirish xisobiga ko'shimcha vazifalar bilan boyitishga xarakat qiladilar. Ammo shuni xam ta'kidlash lozimki, ayrim kishilar bunday mehnatdan roxatlanadilar.

2. Ish o'rnida o'zini anglash turli xil vazifalar bajarishni nazarda tutadi. Ish urni ma'lum xukuklar va topshiriklar mehnat vositalarini o'z ichiga oluvchi cheklangan ishlab chikish muhiti bilan belgilanadi. Anik ish joyini almashinuvi mehnat sifati va samaradorligiga yomon ta'sir etadi va ishchining konikmasligini keltirib chikaradi.

3. Mutaxassislik bosqichida o'zini anglash turli ish urinlarini sezilarsiz almashinuvini nazarda tutadi va shu ma'noda shaxsning o'zini namoyon eta olish imkoniyatini kengaytiradi. Masalan, avtotransport xaydovchisi avtomashinalarning turli rusumini boshqara oladi.

4. Kasbda o'zini anglash turi buyicha ishchi mehnat faoliyatida bir - biriga yakin kasblarni o'zlashtira olish i nazarda tutiladi. Ma'lumki, kasb bir kancha bir - biriga yakin mutaxassislarni birlashtiradi. Shuning uchun avval anglash turiga nisbatan bunda ishchi nafaqat ish o'rnini, balki mutaxassisliklarni xam tanlaydi.

5. Xayotni o'zini o'zi anglash turi kasbiy faoliyatdan tashkari o'zini xordiq chikarishi, majburiy ishsizlik va xokazolar. Mazmun jixatdan bunday fikr insonning xayot tarzini tanlashi haqida bormoqda. Ta'kidlash kerakki, ko'p kishilar xayot mazmunini kasbdan tashkaridagi faoliyatda kurishadi. Xayotni anglash nafaqat insonning u yoki bu ijtimoiy rollarini bajarishini balki xayot tarzini tanlashini xam nazarda tutadi. Bunday xolda kasb ma'lum xayot tarzini yuritish vositasi bo'lishi mumkin.

6. Murakkab tur - shaxs o'zini anglashi. Bu tur xayotda o'zini anglashning oliy kurinishi bo'lib, bunda inson vaziyat va o'z xayotining egasi bo'ladi. Bunday xollarda shaxs kasb va ijtimoiy rollardan k>pgarilib turadi. Inson ijtimoiy rolni egallabgina kolmay, balki yangi rollarni yaratadi va kaysidir ma'noda xattoki ijtimoiy - psixologik mezon yaratish bilan shugullanadi va atrofdagi odamlar u haqida yaxshi muxandis, shifokor, pedagog deb gapirib kolmasdan, balki takrorlanmas shaxs deb ta'riflashadi. Aytish mumkinki, shaxs o'zini anglashi bu o'ziga xos "Men tarzini" topishidir doimo shuni rivojlantirib atrofdagi odamlar orasida tasdiklashdan iboratdir.

7. Nihoyat eng murakkab tur - shaxsning madaniyatda o'zini anglashi (shaxs o'zini anglashning oliy k\$finishi sifatida). Bunda kaysidir ma'noda insonning ijtimoiy abadiyligi tugrisida gapirishga imkon beruvchi "o'zini boshqa odamlarda davom etishi"ga yunaltirilgan ichki faollik seziladi. O'zini anglashning oliy turi shaxsning keng ma'noda tushuniladigan madaniyat rivojlanishiga ko'shgan xissasida namoyon bo'ladi. (ishlab chikarish, san'at, ilm, din). Yuqorida berilgan o'zini anglashning xar bir turida muallif shartli ravishda inson o'zini namoyon etishining besh bosqichini ajratadi.

Psixologik pedagogik adabiyotlarda kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayoniga ta'sir etadigan omillarning 4 guruhi ajratiladi.

Birinchidan, ijtimoiy-iktisodiy bo'lib u tarakkiyotning turli boqichlarida jamiyat xayotiga kirib kelayotgan yoshlarga o'zlaridagi mavjud kuch va imkoniyatlarini sarflashga turli soxalarni taklif etadi.

Birinchi navbatda bu kasblar spektri ularning o'zgarishi va rivojlanish istikbollari jamiyatning u yoki bu mutaxassislarga extiyojiga daxldordir. Ijtimoiy-psixologik **omillar ikkinchi guruhni** tashkil etadi. Avvalo inson maktab ta'limigacha va keyin o'sib tarbiya olgan muxit, oila, dustlar davrasi, maktab jamoasi va shu kabilar. Ijtimoiy muxit ta'sirida shaxsning kadriyatli

yo'nalganligi kasblarning turli guruhlariga munosabati o'ziga xos ijtimoiy kutishlar ustanovka va stereotiplar shakllanadi.

Uchinchi guruh asl psixologik omillardan iborat bo'lib, bu shaxsiy qiziqish va moyilliklar umumiy va spetsifik qobiliyatlar aqliy va shaxsiy rivojlanish darajasi xotira xususiyatlari, diqqat motorikasining o'ziga xosligi va shu kabilar.

Nihoyat **to'rtinchi guruh** individual psixofiziologik xususiyatlarni o'z ichiga olib, ulardan o'rganilgani nerv tizimining asosiy xossalarini faoliyat turlariga munosabatini ta'siri masalasidir. Ular psixik jarayonlar kechishining dinamik tavsifnomalarini belgilaydi turli temperamentlar kurinishida ifodalanadi va ma'lum faoliyat turini bajarishga ko'maklashishi, yo aksincha uni qiyinlashtirishi mumkin. O'quvchi o'zini o'zi real baholashi va ijtimoiy talablarni istiqbolli baholashga psixologik jihatdan tayyormi? O'quvchining bu kabi baholashga tayyorgarligining ravshan mezonni kasb tsnlashga oid surovnomaga bo'lishi mumkin.

Istalgan mehnatga ma'lum muljallanganlikni borligi haqidagi notugri fikr keng tarqalgan. O'zini bilib olmaslik kasbiy o'zini o'zi belgilashda asosiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ayrim o'quvchilar ifodalangan qiziqish qobiliyat va moyillikka ega emasligiga ishonsa boshqalari nakadar kup qiziqish va qobiliyatga egaki tanlaydigan kasblar doirasini cheklashga kiynaladi. Uchinchilari ma'lum kasbiy maksadlarga ega biroq zarur kasbiy ifodalangan sifatlarga ega emas. O'quvchilarning aksariyat ko'pchiligi xatto ota-onalar xam ko'pincha kasb tanlashda mehnat faoliyatga asosiy e'tibor bermasdan balki ta'lim muassasasini yoki o'quv faoliyatini xisobga olib tanlashni muljallaydilar. Bu tanlov u yoki bu fanga qiziqishga asoslanadi.

O'qituvchi tomonidan ishlangan strategiyalar

Kim shaharning maktablaridan birida 6-sinflarga dars beradi. Har yili uning ko'pchilik o'quvchilari davlat testlaridan yiqilishadi. U o'zining til madaniyati va sosiologiya sinfidan Kim oddiy dars ishlanmalari va odatiy qo'llanmalaridan foydalanar edi. Ularni baholash ham xuddi shu tarzda amalga oshiladi. Kim yozgi motivatsiya kursiga borganda „Afrikalik Amerika talabalarini qo'llab quvvatlash va o'qitish usullari“ deb atalgan maqolani o'qib qoladi va kuzda o'z o'qitish va baholash usullarini o'zgartirishga qaror qildi. Birinchidan, u to'rtinchi o'quvchilar kriteriyani tushunmagunlarigacha takrorlashga qo'yib beradi. Ikkinchidan, u o'quvchilarga erkin mavzular beradi. Uchinchidan, u o'quvchilarini dars paytida turli xil videolarni ko'rishni va qog'ozlarni o'zlatishni so'rash orqali ularni yordam beradi. To'rtinchidan, u shu yer aholisi tarixida iz qoldirgan odamlar hayoti haqida o'qitish orqali ularga manan madad beradi. Uning aytishicha o'zgarishlar katta, o'quvchilar g'ayratliroq va zavq bilan ishlashmoqda. Yil oxirida o'kan yilga qaraganda 2 barobar ko'proq o'quvchilari davlat imtihonlarini topshirishibdi. U xuddi shu hududda joylashgan noshqa 6-sinf o'quvchilariga yuqoridagi usul bo'yicha dars beradi. O'quvchilar o'qish darajasi oshgan bo'lsada, maktabni yopishdi, chunki ortach ko'rsatkich juda past edi. Kim doktor darajasini oldi va kechki kurslarda o'qituvchilarga Psixologiyadan dars beradi.

Kim bilan bo'lgan holat biz o'rganmoqchi bo'layotgan 11- O'qituvchi tomonidan ishlangan strategiyalar va 12-Standartlashtirilgan testlar bo'limi uchun juda misol sifatida qo'l keladi. Birinchidan, sinfda baholashning maqul yo'lini tanlash instruksiyaviy amaliyotga, motivatsiya haqidagi qarashlarga va standartlashtirilgan testlarning hajmiga bog'liq. Ikkinchidan bazi bir O'qituvchi tomonidan ishlangan baholash o'quvchilar tomonidan qabul qilinadi, bazilari esa yo'q. Uchinchidan, bu baholash jarayonda rivojlantirilishi mumkin. Bu esa o'z ichiga muammolarni topish (motivatsiya yetishmasligi, maqsadning aniqsizligi), alternative yondashuvni topish (adabiyotlar o'qish), yangi yondashuvlarni aniqlash, natijalarni tahlil qilish (test va talabalar harakati) va strategiyani yanada mukammallashtirishni oladi.

Talabalarni baxolashdagi amaliyotlar bu baxolashni so'ngi 20 yilda juda katta o'zarishga olib keldi. 1970-yillarda Rosemary matematika o'qituvchisiligidagi, u talabalarni bilimini baxolamas edi, u faqat talabalardan o'tgan mavzulari bo'yicha faqat test olar edi. Har bir talaba uchun tayyorlangan testlarni ular yechishar edi. Ko'plab o'qituvchilar, shu jumladan matematika fani bo'yicha, o'quvchilarning bilimini baxolashda turli usullardan foydalanishadi va shu jarayonda baxolash natijalaridan o'z instruksiyalarida foydalanishadi. bu bo'limda biz asosiy e'tiborimizni sinf baxolashini talabalarining bilimlarini oshirishiga qaratamiz va asosiy tushunchalar bilan

boshlayman.

Baholash bu talabalar o'zlashtirish haqida muhim ma'lumotlarni to'plash va ularning qay darajada o'sganliklarini ko'satish demakdir (Linn & Miller, 2005). Talabalar bilimining o'sishi haqida biz turli manbalar orqali malumot olishimiz mumkin, masalan loyihalar, portfoliyalar, chiqishlar, kuzatishlar va testlar. Bu ma'lumotlar lo'pinch turli xil ballar yoki darajalarda ko'rsatiladi, bu o'lehov birligi hisoblanadi. O'lehov birligi "Qancha?" degan savolga javob bo'lib quyidagicha belgilanadi, 28/30 biologiyadan, 90/100 ilmiy loyihadan. Baxo berish esa bu malumotlar asosidagi so'ngi qaror hisoblanadi (Airasia, 2005). Bu qarorlar ma'lum talabalarga, baholash metodiga va kimningdir o'qitishga tegishli bo'lishi mumkin. Birinchi o'rindagi maqsad bu o'qishni baholash va baholash strategiyalarini talabalar bilimini oshirishdagi o'rniga qaratildi. O'qishni baholash ko'pincha formativ baholash hisoblanib, o'qituvchilar o'qitishini takrorlash va talabalar tomonidan o'z bilimlarini oshirish uchun instruksiya kursi vaqtida ma'lumotlar yetkazish orqali olib boriladi. (Black, Harrison, Leye, Marshall & Wiliam, 2004). Formative baholash o'z ichiga formal bo'lmagan baholashni (sistemalashtirilmagan talabalar hulqini kuzatish) va formal baholash (rejalashtirilgan va sistemalashtirilgan ma'lumotlar yig'ish)ni oladi. O'qishni baholash formal baholash hisoblanib, talaba bilimlarini mustahkamlash va ularning bo'sh tomonlarini to'ldirishni o'z ichiga oladi va asosan keying bo'lim mavzusi sanalsada, shu bo'limda qisman ko'rib o'tiladi. O'qishni baholash yakunlovchi holatdir, ya'ni u imtihon yakunlangandan so'ng amalga oshiriladi. Xulosaviy baholashlar talabalarning darsni qanday o'zlashtirganligi, keyingi mavzuga o'tishga layoqati va qanday ballarga ega bo'lishi haqidagi ma'lumotlarni beradi.

O'qishni baholash; jarayonning qisqacha talqini

Talabalar bilimini oshirish maqsadidagi baholash bu baholashni nafaqat bir jarayon sifatida ko'rib chiqishni, balkim, o'qitishning barcha fazalarini (rejalashtirish, xona tekshiruvlari, ota-onalar bilan suhbat va boshqalarni) talab etadi (Stiggins, 2002). Baxolashdagi dastlabki qadamlar;

1-qadam. Aniq instruksional maqsadlarga ega bo'lish va buni talabalarga yetkazish

Avvalgi bo'limlarimizda o'qituvchilar har bir bo'limni puxta rejalashtirish haqida so'zlagan edik. Bu o'qitishni endi boshlagan o'qituvchilar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Masalan, Vanessa (o'rta maktab ijtimoiy fanlar o'qituvchisi) u o'quvchilarga keying mavzu haqida quidagich izoh berishi mumkin: „Talabalar bugun Fuqarolik jamiyati haqida o'rganamiz . Aslida u maqsadni aniqroq qo'yishi ya'ni jamiyatning aynan qaysi tomonlari haqida gapirmoqchi ekanini aniqlashtirishi zarur edi.

O'qitish samaradorligi uchun ham u talabalardan aynan nima talab etilayotganligini tushuntirishi lozim . O'qituvchi tomonidan qanday mukammal rejalashtirilgan o'qish bo'lmasin, agar ular aynan nimani o'zlashtirish talab etilayotganini bilishmasa, samaradorlik kutilgandek yuqori bo'lmaydi.

Samarador

2-qadam. Qulay baholash texnikalarini tanlash

baxolash uchun baxolashning qulay usullaridan foydalanish juda muhim hisoblanadi. Auditoriya salohiyati, talaba xarakteri va mavzu mazmuniga qarab baxolashning optimal variantini tanlash ham juda katta ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda ular ma'lumotlar ishonchliligini roli baxolash texnikalarini tanlash va qo'llashning ahamiyati ham juda muhim.

3-qadam. Ota-onalar bilan suhbat.

Talabalarning bilimlarini oshirish bir tarafdin o'qituvchining ota-onalar bilan ishlash mahoratiga ham bog'liq. O'qituvchilar ota-onalar bilan xatlar, telefon, yuzma-yuz suhbat, elektron manzil va maktab electron saytlari orqali muloqot qilishadi. Effektiv muloqot o'qituvchilarni talabalarga qoyilgan talabni aniq va ravshan tarzda yetqazib berishiga bog'liq. Bu esa o'qituvchidan muloqot qilish ko'nikmalarini talb etadi.

Kasb tanlash o'quvchida ikki turdagi axborotning mavjud bo'lishini talab qiladi. Bular: 1. Umuman kasb dunyosi haqida va ular dan xar birining talab imkoniyatlari to'grisida. 2. O'z haqida o'zining qobiliyatlari va qiziqishlari haqida. O'spirinlarda xar ikkala turdagi axborot xam yetishmaydi. Sosiolog V.N.Shubkin utkazgan tadqiqotlarining ko'rsatishicha 17 yoshdagi o'spirinlarning kasblar dunyosiga bo'lgan munosabatlari ota-onalari, tanish www.ziyouz.com

kutubxonasi bilishlari, dustlari, tengdoshlari, kitob, kinofilm, teleko'rsatuvlaridan olingan tajribalari xamda ma'lumotlari asosida shakllanadi.

O'zini o'zi anglashning rbbli-katta o'quvchi shaxsining xarakterli xususiyati o'smirlikning o'spirinlikdan o'z "Meni"ga qiziqishning ortishi xisobiga farqlaydi. Bu sharoitni xisobga olish o'quvchilar kasbiy tiklanishini tashkil etishda nihoyatda muhim zero kasbni ongli va ishonch bilan tanlay olish bu yoshda nisbatan barkaror "Men" kabi psixologik sifatining ya'ni o'zi haqida yaxlit tasavvurning shaqllanishi bilan uzviy boglik. "Men" obrazi (ba'zan "Men" tushunchasi "Men" konsepsiyasi deb xam yuritiladi) - murakkab psixologik xodisa u shunchaki o'z sifatlarini anglash yoki o'zini o'zi baholash yigindisi emas. "Men kimman?" degan savol o'zini tavsiflash emas, kuprok o'zini o'zi belgilashni ko'zda tutadi: "Men kim bo'lishim mumkin?" va "kim bo'lishim kerak, imkoniyatlarim, istikbollarim kanday, men xayotda nimalar kila oldim va yana qila olaman?". "Men" obrazi - shaxsning o'zi haqida faoliyat subyekti sifatida tasavvurlar tizimi bo'lib uch asosiy tarkibiy kismga ega: - kognitiv o'z individual psixologik xususiyatlari haqidagi bilimlar yigindisi; - emosional o'ziga nisbatan ma'lum baholovchi munosabat mavjudligi; - boshqaruv o'z xulqini boshqarish imkoniyati. "Men" obrazi shaqllanganligining mezonlari: - kognitiv rejada o'z psixofiziologik va psixologik zaxiralari haqidagi bilimlar tulikligi, tizimliliigi, farqlanganligi; - emosional rejada o'zini o'zi baholash va o'zini qabul kilish adekvatligi. Shunday kilib "Men" obrazi shaxsning yetakchi motivlari jumladan kasb tanlash motivlari shaqllanadigan yadro bo'lib xizmat qiladi. "Men" obrazi shaqllanganligi turli kasb talablari bilan nisbatlash shartlaridan biri sifatida va o'zining psixologik va qat'iy potensialini bo'lg'usi kasbiy faoliyatda o'zaro ayrboshlashda samaradorligiga ko'maklashadi. O'quvchilar kasbiy tiklashishi xususiyatlarini baholashda "Men" obrazining xar bir komponenta xolati uch yo'nalishda o'zini o'zi taxdil kilish, kasbiy faoliyat tahlili, kasbiy sinovlarda baholanadi. Men obrazining kognitiv komponenta shaxsiy, psixologik komponentlik darajasi, psixologik bilimlardan atrofdagi vokealarni anglash o'z xulqi, individual psixologik xususiyatlari bilan belgilanishi mumkin. Komponent to'liqligi adekvatligi insonning mehnat va kasblar dunyosi haqidagi bilimlari bilan xam belgilanadi. Kognitiv komponent rivojlanganligi ko'rsatkichi bo'lib kasbiy sinovlarning tayyorlov bosqichini muvaffaqiyatli egallash xam xizmat qiladi. "Men" obrazining emosional-baholash komponenta o'quvchining o'zi uchun xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni baholay olishda tanlangan kasb uchun namoyon bo'ladi. Bu komponent kasbiy sinov mazmuni va murakkabligi darajasini tanlash kasbiy faoliyatning aniq sinov doirasida turli soxalariga munosabatda namoyon bo'ladi. "Men" obrazining xulq-atvor komponenta shaxsning o'zini o'zi tarbiyalash va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish dasturida uning murakkablik darajasi yunalganligi tanlangan kasb talablariga nisbatlanganda namoyon bo'ladi. U shaxsiy kasbiy shaqllanishini, shuningdek, o'quvchining kasbiy sinovlar jarayonida kasbiy faoliyat turlarida o'zini kayta tiklay olishini belgilaydi va unda tegishlisini aks ettiradi. I.S.Konning aytishicha "Usmirlarda o'zini o'zi anglash va o'z "Men"iga qiziqish o'zining psixologiyada biogenetik maktab vakillari ta'kidlaganidek, faqat jinsiy yetilish bilan bog'lik emas. Bola o'sadi o'zgaradi kuch yig'adi va shunga qaramay bu unda interospeksiyaga tortishni keltirib chiqaradi. Bu o'spirinlik yoshida ro'y bersa, endi avvalo shundaki jismoniy yetilish ayni paytda ijtimoiy simptom ulg'ayishi alomati sanaladiki, unga e'tibor berishadi, uni boshqalar kattalar va tengdoshlari ko'zatisadi. O'spirin xolati ziddiyatliligi, uning ijtimoiy rollari, intilishlar darajasining o'zgarishi aynan ular birinchi galda "Men kimman?" degan savolni dolzarblashtiradi. Bu davrda tashki boshqaruvdan o'zini o'zi boshqarishga o'tiladi. Biroq kanday boshqaruv ob'yekt haqida axborot mavjudligini kuzda tutadi. Shundan ozini o'zi boshqarishda subyektning o'zi haqidagi axborot ya'ni o'zini o'zi anglash bo'lishi shart. Kasbiy ong rivojlanishi ya'ni kasbiy tiklanishga nisbatan o'zini o'zi belgilanishi ya'ni o'z subyektligini anglash refleksiyasining aniqlangan roli bosh qobiliyat insonning professional sifatida o'zini o'zi rivojlantirishning asl mexanizmi sanaladi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, kasbiy o'zlikni anglash jarayonida shaxsning o'zini o'zi anglash baholash shaxs xususiyatlari muhim aspekt sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Reja.

Reja:

1. Qayta kasbga yo'llashning psixologik mohiyati
3. Reoriyentasiyada o'quvchilarning salomatligi, jinsiy xususiyatlari va yoshi.
4. Reoriyentasiyada –ziddiyatlar va ularning o'rganilishi.

Psixologiya fanida kasb tanlashga yo'llash (proforiyentasiya) atamasi qadim zamondan qo'llanib kelinadi. Lekin ijtimoiy hayotning keyingi davrlarida boshqa bir atama fanimizga kirib keldi, u reoriyentasiya (qayta yo'llash) deb atalib, insonni yangi bir moslashmaga (ko'nikmaga) kasbga yo'naltirishni bildirib keladi.

Ishlab chiqarishga avtomat qurilmalarning (elektron moslamalarning, robotlarning) kirib kelishi ish o'rinlarining qisqarishiga olib keladi. Muassasa, tashkilot, korxonalar rentabelligining pasayishi ham xodimlarga nisbatan ehtiyojning kamayishini keltirib chiqaradi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti raqobatga asoslanadi, shuning uchun testlarga bardosh beruvchi, yuqori malakali, mahoratli, bilimdon, komil insongina sinovlardan muvaffaqiyatli o'ta oladi, xolos. O'rtamiyona darajadagi mutaxassislar

● *Reoriyentasiya bu- Qayta kasbga yo'llash (reoriyentasiya) o'ta insonparvarlik (gumanistik) g'oyasida o'z kasbini o'zgartiruvchi yoki ishsiz qolgan shaxs ruhiyatiga singdirishni anglatadigan jarayon.*

Ishsizlik, ish o'rnini yo'qotish ayollarda o'kinchili (ayanchli) his – tuyg'ular qobig'ida o'ta murakkab kechadi, go'yoki tragediya, halokat, judolik vujudga kelganda ham ekstravertlik, ham introvertlik xususiyatlari uyg'unlashganday yuz beradi.

Erkaklar esa bunday vaziyatlarga matonat bilan, iloji boricha hissiyotlarga berilmasdan, aql – zakovat maromlariga tortilganlik tuyg'usi ustuvorligida namoyon bo'ladi. Erkaklarda achinish, xafaxonlik kechinmalari tarzida hukm surishi, asta – sekin uning ta'sir kuchi pasayishi kuzatiladi.

Hozirgi zamon mehnat birjalarida reoriyentasiya (qayta kasbga yo'llash) ishlari olib borilishi markazlashtirilgan. Maxsus xodimlar kompyuter xotirasiga joylashtirilgan shahar, tuman bo'yicha ixtisoslar bo'yicha yoki ixtisoslararo mutaxassislar ro'yhati (zaruriyati, ehtiyoji, talabi) bilan ish izlab kelgan muhtoj shaxs tanishtiriladi. Aksariyat mehnat birjalarida psixologlar yetishmaganligi tufayli ish bilan ta'minlash, bo'sh o'rinlarni to'ldirish bilan shug'ullaniladi 17

- *Bu xizmat qator omillarni tekshirish, o'rganishni taqozo etadi:*
- *Shaxsning fazilatlarini, xarakterologik xislatlarini.*
- *Hissiy jabhalari va irodaviy sifatlarini.*
- *Insonning kognitiv va regulyativ imkoniyatlarini.*
- *Ehtiyoji, motivi, motivasiyasi, motivirovkasi.*
- *Kasbiy mayli, qiziqishi, layoqati.*
- *Professiogramma talablariga mosligi, kasbiy yarog'ligi.*
- *Iqtidori (iste'dodi), qobiliyati, salohiyati.*
- *Kasbiy bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, mahorati.*
- *Umumiy saviyasi, dunyoqarashi, maslagi (e'tiqodi).*

¹⁷ Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 42-bet

- *Salomatligi, jinsiy xususiyatlari, yoshi.*
- *Izlanuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari, innovasiyaga nisbatan munosabati.*
- *Ijtimoiy yetukligi, tashkilotchilik qobiliyati.*
- *Ekstrovertligi va introvertligi.*
- *Yuksak insoniy tuyg'ularga (axloqiy, aqliy, nafasat, praksik) egaligi.*
- *Fidoiylilik, altristik, vatanparvarlik fazilatlari usutvorligi va boshq.*

Reoriyentasiya (qayta kasbga yo'llash) gumanistik psixologiya tamoyillarini turmushga tatbiq etishga zarur shart – sharoit yaratadi. Inson omilini qadrlashga, butun imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, ezgu niyat, orzu havas, istak – xohish ushalishga negiz vujudga keltiradi. Ko'p profilli kasb – hunar egalari safini kengaytirishga xizmat qiladi, komillikka intilish tuyg'usini jonlantiradi, zarur bilimlar, malakalar bilan qurollantirishga turtki beradi.

Reorientasiya inson imkoniyatini qaytadan sinashning manbai xisoblanib, o'z o'zini o'zi kashf qilishi o'zini-o'zi boshqarishi, o'zini-o'zi tashkillashtirish, o'zini-o'zi baholash, o'zini-o'zini refleksiya qilish, o'zini-o'zini identifikatsiyalash kabi shaxs fazilatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi¹

V.A.Bodrov va M.A Ratnikova bilan xamkorlikda kasbiy faoliyatni o'zgartirishning psixologik xususiyatlari va qayta kasbga yo'naltirish vaziyatining xarakteri xamda mexnat subyekting individual-psixologik xususiyatlariga bog'lik xolda kasbiy faoliyatga moslashishni o'rganish maqsadida tadqiqot ishi olib borilgan.

Qayta yo'naltirishning muvaffaqiyati yangi faoliyatga kasbiy, ijtimoiy va psixologik moslashganlik darajasi bilan tavsiflangan. Bunda majburiy qayta yo'naltirishni, ya'ni ishdan xaydalish, tashkilotning inkirozga uchrashi vaziyatlarini boshidan o'tkazgan xodim sinov muddati (6 oy) davomida kasbiy faoliyatga moslasha olgan (93%, 68% va 33% vaziyatlarda moslashish turiga muvofiq), 84%, 63% va 58% vaziyatlarda esa ixtiyoriy qayta yo'naltirishni yoki qo'shimcha kasbiy faoliyatga, qolaversa, majburiy qayta yo'naltirishni boshidan kechirayotgan xodimlarning yangi kasbiy faoliyatga psixologik www.ziyouz.com kutubxonasi moslashishida ko'pgina qiyinchiliklarga uchragan.

Kasbiy faoliyatga moslashish jarayonining tezligi shaxsning eksternallik xarakterlariga va shaxsiy xavotirlanish darajasiga bog'likdir. Shaxs tuzilishining arxitektonik xolati va maxsus kobilyatlar, shaxs tarakkiyotida faoliyatning roli xakidagi ma'lumotlar, faoliyatning dinamik tuzilishi va mazmuni xamda bu jarayon bilan bog'lik ravishda shaxsga nisbatan kuyiladigan kasbiy talablar keyinchalik kasbiy shakllanishning va bu tizim asosida mutaxassislarni psixologik saralashning takomillashtirish jarayonining yangi kirralarini urganishni belgilab beradi. Bu karashlar eksperimental asoslangan bulib, uning negizida kasbiy yaroqlikni baxolashga nisbatan strukturaviy-dinamik yondashuv konsepsiyasi yotadi.

Reoriyentasiyada ziddiyatlar

Juda ko'p shaxslararo, jamoalararo (guruhlararo) va boshqa ziddiyatlarning uzoq davom etishi va ko'pgina salbiy oqibatlariga olib kelishiga ziddiyat qatnashchilari va atrofdagilarning ziddiyatning oqibatlari nimaga olib kelishini oldindan idrok eta olmasliklaridir.

Psixologiya fanida mavjud barcha turdagi ziddiyatlar to'rtta katta guruhga farqlanadi:

✚ Texnika bilan bog'liq ziddiyatlarga mashinalar, zavod-fabrikalardan chiqayotgan tutun va shovqin natijasida yuzaga kelayotgan “Texnika-inson” kelishmovchiligini misol tariqasida keltirsa bo'ladi. Okean va dengizlar suvining ifloslanishi, atmosferada zaharli gazlar miqdorining oshib borishi, yerning va unda o'sgan meva va sabzavotlarda har xil kimyoviy moddalar, pestisidlar miqdorining normadan bir necha baravar yuqoriligi, kundan-kun o'rmonlar va ko'kalamzorlar maydonining kamayib borayotganligini o'zaro kelishmovchilik yuqori pog'onaga ko'tarilganligi deb tushunsa bo'ladi. Inson hatto o'ziga eng yaqin yordamchi hisoblangan kompyuterlarning ongini

– intellekt manbai dasturlariga virus yuqtirib ularni majruh qila boshlaganini ham texnikaviy ziddiyatga misol sifatida keltirish mumkin. Bunday “Texnika – inson” ziddiyatlarini juda ko’p sohalarda ko’rsa bo’ladi.

✚ Tabiiy hodisalar bilan bog’liq ziddiyatlar yer, yerning magnit maydoni, suv, atmosfera va boshqa unsurlar bilan bog’liq konfliktlar bo’lib, bu hodisalar ko’pincha insonning faoliyati, xatti-harakati, ongi bilan bog’liq emas. Ammo, keyingi yillarda insonning ekologik muvozanatning buzilishiga sababchi bo’lishi bilan yuzaga kelayotgan tabiat hodisalari haqida taxminlar bildirilmoqda.

Ziddiyatning inson faoliyatiga (o’qish va mehnat) va jismoniy-ruhiy sog’ligiga qanday zarari mavjud?

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnika inqilobi va har xil sohalarda ziddiyatlarning avj olishi natijasida ruhiy va asab kasalliklarining soni ortib bormoqda.

Irsiy sabablardan tashqari, ruhiy va asab kasalliklarini keltirib chiqaradigan katta ikkita omil bor:

✚ *Shaxsning ichki (o’z-o’zi bilan) ruhiy ziddiyatlari;*

✚ *Shaxsning tashqi ijtimoiy muhit bilan ziddiyatlari.*

ziddiyatning ruhiy turg’unlikka, ruhiy taraqqiyotga, rivojlanishga salbiy ta’sirini hech narsa bilan tenglashtirib bo’lmaydi. Ziddiyatni boshdan kechirgan yoki atrofdagilar bilan kelisha olmagan shaxslarda; tez xafa bo’lish, injiqlik, arzimagan narsa uchun janjal ko’tarish, atrofdagilarga ishonmaslik hissi kuchayadi. Ba’zan buning teskarisi - o’ta passivlik, yig’loqlik, birovga suyanib qolish, hamma yerdan va hammadan himoya izlash kabi belgilar namoyon bo’ladi. Kuchli stress vaqtida va undan keyin shaxsning ongida ziddiyat va uning kechishi, sabablari tinmasdan aylanadi, ba’zan o’zini ayblasa, ba’zan “qarshi” tomonni ayblaydi. Jiddiy narsalar haqida fikrlash, diqqatni bir yerga to’plash qiyinlashadi.

Ziddiyatning inson ruhiyati va asab tizimiga juda katta salbiy ta’siri bilan birga kuchli, surunkali stress va kelishmovchiliklarning xavfli tomoni shundaki, uyda yoki ishda tez-tez bo’lib turadigan konflikt shaxsning immun tizimini susaytiradi va endokrin tizimining ishini buzadi. Fiziologiya fanidan ma’lumki, surunkali stress va ziddiyatlar vaqtida organizmda adrenalini garmoni ko’proq ajraladi. Aslida bu gormonning vazifasi stress holatidagi organizmning hayot faoliyatini yuqori darajada saqlash, ya’ni yetarli energiya va kuch bilan ta’minlash. Birov bilan janjallashib qoldingiz, yuragingizning tez urayotganini sezasiz, qon tez aylanganidan va tomirlarning torayganidan yuzingiz qizaradi, tomirlar bo’rtib chiqadi, mushtingiz o’z-o’zidan qisiladi. Siz hujum qilishga va o’zingizni himoya qilishga tayyorsiz. Bu bosh miyadan kelgan impuls (buyruqlar) natijasida qonda ko’plab adrenalini gormonining paydo bo’lishi bilan bog’liq bo’lib, u ko’pgina ichki a’zolarni (yurak, qon tomirlar va boshqalarni, hatto ba’zi birovlarning jahli chiqsa ishtahasi karnay bo’lib qancha ovqat yeganini bilmasdan qoladi, birovlarning qorni og’riydi) tez va faolroq ishlashga majbur qiladi. ¹

Pedagogik yoki auditoriyadagi ziddiyatning kelib chiqish sabablari quyidagilar:

I. Tengdoshlari va o’qituvchilari bilan kelishmovchilik kelib chiqishiga quyidagi toifadagi talabalar sabab bo’ladi:

1. Oilasi notinch, ota-onasi janjalkash bolalar ko’pincha auditoriyada jizzakilik qilib, arzimagan sabablar tufayli ham tengqurlari bilan konfliktlashadi, ularni odatda guruhdoshlari va o’qituvchilari “tarbiyasi og’ir” deb ta’riflaydilar.

2. Kamol topishida nuqsoni bo’lgan – infantil bolalarda, o’ta erka tarbiyalangan yoshlarda bilimlar bilan tizimli shug’ullanish uchun iroda yetishmaydi. Hissiy qo’zg’alish va tormozlanish jarayoni kamchiliklar ham bilimlarni egallash va auditoriya jamoasiga kirishib ketishga to’sinlik qiladi.

3. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan va aqli zaif yoshlar ham darslar va berilayotgan bilimlarni o’zlashtirishi qiyinlashgani va murakkablashib borishi natijasida bilimlarning mazmuni va ma’nosini egallashga qiynaladilar, bu holat ularda janjalkashlikka moyillikni kuchaytiradi. Chunki dars ular uchun mashaqqatli – ish, ular ilojini topsa darsga kelmaydi, kirmaydi. Janjal qiladi.

4. Iqtidorli talabalar. Ular darsda berilayotgan bilimlar darajasidan qoniqmaydi. Zerikadi. Ko'pincha auditoriyadan ajralib qoladi. O'qituvchi bilan kelisha olmaydi, shu sababli o'zlashtirishdan orqada qolayotgan tengdoshlari ham, uning talabi va istagi darajasida dars berolmayotgan pedagog bilan ham konfliktga kirishga moyil bo'lib qoladi.

5. Doimo hammadan norozi, atrofdagilarga muxolifatda bo'lganlar. Bu talabalar ota-onasiga, o'qituvchilarga va boshqa kattalarga salbiy munosabatda bo'ladilar. Ularning gapiga ishonmaydilar. Mavjud tartib-intizomga bo'ysunishni istashmaydi. Qasddan darsdan qochib ketadi, ota-onasiga azob berish uchun o'g'irlik qiladi, arzimagan narsalarga janjal ko'taradi.

6. Birovlarga taqlid natijasida yuzaga keladigan ziddiyatlar. Talabalar yoki yoshlar o'zidan katta kishilarga, ba'zan kino aktyorlarga va boshqa sevimli qahramonlarga taqlid qilib auditoriyadagi tartib-intizomga, axloq normalariga rioya qilishni istamaydilar.

II. Pedagogik jarayonda shunday holatlar ham bo'ladiki, ularning asosiy sababchisi o'qituvchi bo'lib qoladi. 3-4 bosqich talabalari orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, talabalar yoshi va taraqqiyot darajasiga muvofiq ravishda o'qituvchilarning o'z talabalaridan noroziligi oshib, ziddiyatlar kelib chiqar ekan, ya'ni, o'qituvchi-talaba munosabatlarida kelib chiqadigan ziddiyatlar kelib chiqish sababiga ko'ra farqlanadi.

Quyidagi hollarda ziddiyatga o'qituvchi sabab bo'ladi:

1. O'qituvchi doimo baqiradi, gapni oxirigacha eshitmaydi.
2. Alohida talabalarga ajratib, ularga ayri-ayri yaxshi munosabatda bo'ladi. O'qituvchining "sevimli" talabalari bor.
3. Mayda gap. Talabalarni arzimagan narsa uchun ham jazolaydi.
4. Dars va darsdan tashqari jarayonlarda ham talabalarga mustaqillik bermaydi. Hamma narsa o'z aytganidek bo'lishini talab qiladi.
5. "Gunohkor"larning aybini hammaning oldida aytib, tengdoshlar oldida uning obro'yini tushiradi.
6. Kichkina bolalar bilan muomala qilgandek, muomala qiladi.
7. Talabalar shaxsini hurmat qilmaydi, qo'pol ohangda gapiradi.
8. Agar talabalar sirini bilib qolsa, uni hammaga aytadi.
9. Qiyinchiliklarda, qiynalganda tushunmaydi – yordam bermaydi.
10. Jahli tez.

Talabalar orasida yoki talaba-o'qituvchi orasidagi ziddiyat ikki kishi bilan chegaralanib qolmasdan, atrofdagilarning kayfiyatiga ham salbiy ta'sir etadi. Bu jarayon quyidagicha kechishi mumkin:

1) Auditoriya jamoasida 2 yoki bir necha talaba orasidagi konflikt darsning samaradorligiga salbiy ta'sir etadi. O'qituvchi va talabalar ancha vaqti konfliktning muhokamasi bilan o'tadi.

2) ziddiyat natijasida auditoriyani boshqarish kundan-kunga qiyinlashib boradi. Agar auditoriyada konflikt chuqurlashsa, o'qituvchining auditoriyani nazorat qilishi va boshqarish izdan chiqadi.

3) Ziddiyat natijasida auditoriyada hamjihatlik, hamkorlik, do'stlik munosabatlari sustlashib boradi.

Jamoadagi (auditoriya jamoasi, mehnat jamoasi va boshqalar) har xil mavqyedagi shaxslar o'rtasidagi kelishmovchiliklar ancha murakkab kechadi. Jamoaning rasmiy va norasmiy yetakchilari va ayrim tengdoshlar orasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklarda, agar jismonan kuchli bo'lsa, salbiy xulq-atvori va xatti-harakati bilan o'z atrofiga o'ziga o'xshagan "mushtumzo'rlar"ni to'plagan bo'lsa, auditoriyadagi jismonan kuchsiz, *xavotirlanish* darajasi yuqori, qo'rqqoq, o'ziga ishonchsiz talabalarni ta'qib qilishi, zo'rlik bilan o'ziga bo'ysundirishi, ularni yomon yo'llarga boshlashi mumkin.

Amerikalik psixolog Jeffri Yang odamovi, kamgap va yakkalikni yoqtiradigan shaxslarning hissiyoti, hulq-atvori va kognitiv (bilimga intilish)⁴ holatlarining 12 ta belgilar majmuasini

(sindromlarini) farqlaydi.

1. *Yakkalikdan qo'rquvchilar.* Bundaylar yakka qolib, o'zini yo'qotib qo'yadi, nima qilishni bilmaydi, zerikadi.

2. *O'ziga o'ta past baho berish natijasida kelib chiqadigan ichki ruhiy konflikt.* Bundan yosh yoki katta kishining nazarida "uni hych kim hurmat qilmaydi", "u o'ta qobiliyatsiz (omadsiz, zerikarli va hokozolar) shaxs". Shuning uchun ham u odamlar bilan muloqotdan qochadi. Bunday holat ba'zan qobiliyatli kishilarda ham bo'lishi mumkin, bunday shaxslar atrofdagi kishilar uning fikrini, holatini tushunmasliklarini his etgan holda kulgi bo'lishdan yoki "zerikarli odam" deb nom chiqarishdan qo'rqib, odamlarga ham aralashadilar.

3. *Hadiksirash, o'ziga ishonchsizlik, uyatchanlik, atrofdagilardan yomonlik kutish yoki ularning o'zini mazax qiladilar,* deb o'ylaydi. Uning fikricha, atrofdagilarga kulgi bo'lgandan, yaxshisi yakka yurgani yaxshiroq.

4. *Muloqot malaka va ko'nikmasining sustligi (yoki yo'qligi).* Murakkab shaxslararo munosabatlarda o'zini to'g'ri tutish tajribasining kamligi (konfliktli vaziyatlarda, tanishuv va boshqa hollarda).

5. *Atrofdagi odamlar uning tasavvurida hammasi ablah, egoist, yaxshilik qilishga arzimaydigan odamlar.* Atrofdagilar haqida bunday fikrdagi shaxs odamlardan faqat qochibgina qolmasdan, balki ulardan nafratlanadi (ba'zan qo'rqadi).

6. *Ichki yopiqlik, ruhiy karlik,* bunday shaxslarning his-tuyg'usi, fikri shunchalik ichkariga "yashiringanki", ularning o'zi ham ba'zan o'zining asl qiyofasini tanimasdan qoladi. Ular doimo boshqa birovlarining roli bajarib, boshqalarga o'xshashga harakat qilib yurishadi.

7. *O'ziga sherik topishga qiynaluvchilar,* bundaylar "haqiqiy do'st, haqiqiy sevgili, haqiqiy sherik" topa olmaydilar. Ular "u yaxshi kishi-yu, ammo menga yoqmaydi", u ajoyib inson, ammo qiliqlari yoqimsiz va hokozolar bilan o'zlarini oqlaydilar.

Bunday holatning yuzaga kelishiga asosiy sabab, shaxsning atrofdagilar bilan yaqin, intim munosabat o'rnatishni istamasligi yoki shunday tajribaning yo'qligi. Ammo, shundaylar ham borki, tinmasdan sherik axtaradilar, ammo u topilmaydi. Natijada shaxs o'zini baxtsiz va qobiliyatsiz, deb hisoblaydi.

8. *O'quv faoliyatida, shaxsiy hayotdagi muvaffaqiyatsizlik* natijasida paydo bo'lgan salbiy tajribaning o'smir va yoshlarning keyingi faoliyatiga ta'siri.

Ko'p yillik kuzatishlarimiz natijasida fikrimizcha, bunday o'z kuchiga ishonchsizlikni keltirib chiqaradigan bir nechta omillar bor:

a) Talabada o'zining bilim va tajribasiga ichki tuyg'u (intilish, qiziqish va irodaning sustligi) natijasida kelib chiqadigan o'ziga past baho berish va ishonchsizlik.

b) Ko'pchilik talabalarga xos (ayniqsa, o'g'il bolalarga) erinchoqlik, ishyoqmaslik natijasida shakllangan iroda sustligidan kelib chiqadigan o'ziga past baho berish va ishonchsizlik.

v) Oilada ota-ona va boshqa kattalarning "sening qo'lingdan hych narsa kelmaydi", "sen hech narsaga yaramaysan" va shunga o'xshash shaxsda o'ziga ishonchsizlik tug'diradigan gaplarning doimo takrorlanib turishi natijasida shakllanadigan o'ziga past baho berish va ishonchsizlik.

g) Maktabda o'qituvchilar va tengdoshlari tomonidan doimo salbiy fikr bildirilib turishi natijasida (masalan, "ikkidan" boshing chiqmaydi, "sen o'qib kim bo'larding?" va hokozolar) bolada paydo bo'ladigan o'zining kuchi, imkoniyatlari haqidagi turg'un salbiy fikr.

Yuqorida keltirilgan omillarning o'smir va yoshlar uchun yana bir xavfli tomoni mavjudki, u ham bo'lsa bolalikda va yoshlikda o'zi haqida doimo salbiy fikr eshitish bilan uning ong ostida bu olingan axborot doimiy ravishda shaxsning faoliyatiga, hulqiga, xatti-harakatlariga doimo ta'sir etuvchi mustahkam markaz paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa o'smir va yoshlar faoliyatining hamma sohasiga, hatto kelajakdagi hayotiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

9. *O'zining tashqi ko'rinishi haqida noto'g'ri fikr shakllanishi.* "Men beo'xshovman", "Men chiroyli emasman", "Menga qizlar (yigitlar) qaramaydi" va boshqa fikrlar asta-sekin shaxsga ta'sir etib, ichki konfliktni keltirib chiqaradi. Seksopotologlarning fikricha, shunday shaxslar katta

kishi bo'lib yetishganda ham yoshligidagi o'z ko'rinishi haqidagi salbiy fikr ta'sir etib, o'z seksual kuchiga ishonchsizlikni, o'zining yaxshi xotin (yer) bo'lishga qobiliyatsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

10. *Hissiy yaqinlikdan qo'rqish.* Shaxs boshqa tengdoshlari bilan juda yaqinlashib ketishdan qo'rqishiga sabab, go'yoki uning fikricha, do'stlarida uning haqida salbiy fikr shakllanishi mumkin. Yoki yosh qiz (yigit) o'zining ichki dunyosini boshqalarga ochishga qo'rqadi. Natijada shaxsda doimo o'zining sirlarini "ochib" qo'yishdan qo'rqish ichki konfliktni keltirib chiqarishi mumkin.

11. *Doimiy ikkilanish.* "Men o'zim ham nima qilishni bilmayman" deb javob beradi. Tashabbussizlik, qat'iyatsizlik psixiatrlarning fikricha, ikkilanish har xil asab va ruhiy nuqsonlar, kasalliklarga olib kelishi mumkin.

12. *Tengdoshlarga, sheriklarga (katta kishilarda turmush o'rtog'iga haddan tashqari katta talab qo'yish)* albatta, bunday xatti-harakat oxiri shaxslararo konfliktga sabab bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash yana bir xususiyat, atrofdagi tengdoshlar, yaqinlarini o'ziga o'xshash o'zgartirishga urinish, atrofdagilarning shaxsiy "men"ligini e'tiborga olmaslik natijasida kelib chiqadigan ziddiyatlar.¹⁸

Yosh davrlari va ziddiyatlar

Krizis davrlari yoki yoshlari asosan 3, 7, va 12-15 deb farqlanadi. Shu yoshlarda bolalar va o'smirlar o'z-o'zidan injiq, qaysar, janjalkash bo'lib qoladi. Ota-onasi va yaqinlari bilan tez-tez kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Arzimagan narsaga xarxasha qiladi. Ba'zan kattalarning ota-ona, tarbiyachi va o'qituvchilarning aytganini qilmasdan o'jarlik qiladi.

1) 3 yoshdagi krizis. Asosan shu yoshda bola organizmida yuz beradigan jismoniy va garmonal o'zgarishlardan tashqari bolaning ruhiy tizimida "men"lik paydo bo'lib, o'z mustaqilligini kattalarga ko'rsatishga harakat qiladi. Shu vaqtgacha uning oyoq kiyimini kiydirib qo'ysangiz yoki ovqat yodirib qo'ysangiz "rahmat" aytar edi, endi sizni nariga itarib "men o'zim" deb o'jarlik qilmoqda, chunki kichik insonda "o'zlik" paydo bo'lib, shakllanmoqda.

2) 7 yoshdagi krizis. Asosan bolaning hayot tarzida yuz bergan yangilik, maktab sharoitiga moslashish bilan bog'liq bo'lib bola auditoriyadagi tartib-intizomga, o'qituvchining talablariga o'rganishi zarur bo'ladi. Bundan tashqari, bolaga uyda ham "dars tayyorlash", "o'z vaqtida uxlash va ma'lum vaqtda ertalab turish" deya talablarni qo'yishadi. Bu o'zgarishlarga agar oila bolani tayyorlab borgan bo'lsa yoki bolaning o'zi jismonan va ruhan tayyor bo'lsa, bu jarayon yengil kechadi. Bordi-yu, bolaning asab va ruhiy tizimida qandaydir nuqsonlar bo'lsa, bola maktabda ta'lim olishga tayyor bo'lmasa, uyda uni maktabda zarur bo'ladigan qoida-qonunlar, tartib-intizomga o'rgatmagan bo'lsalar (40 minut davomida tinch o'tirish, boshqalarga halaqit bermaslik, o'qituvchining topshiriq va vazifalarini bajarish va boshqalar) o'qituvchi yoki tengdoshlari bilan konflikt kelib chiqishi muqarrar.

3) O'smirlik yoshidagi (12-15 yosh) krizis. Talabalarda intellektual imkoniyatlarining va shaxsiy-ijtimoiy tajribaning oshishi, dunyoqarash va bilimlar doirasining kengayishi kuzatiladi. O'smirda "men"lik his-tuyg'usi kuchayib, o'zini o'ta kuchli, bilimli, mustaqil his eta boshlaydi.¹⁹

Lekin bu yoshdagi krizisning asosiy aybdori – bu shu yoshda jinsiy his-tuyg'ular, qarama-qarshi jinsga qiziqish kuchayadi. Tengdoshlar bilan muloqot va o'zaro muloqot ehtiyoji ortib borib, ba'zan tengdoshlarning fikri va maslahatlarini ota-ona va o'qituvchilarning fikridan yuqori qo'yadi. Bu ham bir mustaqillik (yemansipasiya) belgisi bo'lib, agar o'smir o'z istak va orzularini amalga oshirishning yo'lini topa olmasa, kundan-kun oshib borayotgan jismoniy va psixologik energiyani kuchni sarf qilishga joy topa olmasa, unda u noto'g'ri yo'llarga kirib ketishi mumkin. 15-17 yoshlarda yanada orzu-havas va muammolar ko'payib boradi. Kelajakda qanday kasb-hunar tanlash, jamiyatda o'z o'rnini topish, o'zining hayot yo'lini belgilashdek murakkab vazifalar paydo bo'ladi. Shu yoshlarda o'smirlar va yoshlarni har xil ijtimoiy xavfli to'da va oqimlardan saqlash,

¹⁸ Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 48-6er

¹⁹ Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 50 6er

uning kasb tanlashida, kelajagini, hayot yo'nalishini to'g'ri belgilashda ota-ona va o'qituvchilarni xizmati katta bo'ladi.

4) Talabalar psixologiyasi. Professor E.G'oziyevning ta'kidlashicha, "...o'quv yili boshida talabadagi ko'tarinki kayfiyat, oliy o'quv yurtiga kirganidan zavq-shavq tuyg'usi kuzatilsa, ta'limning shart-sharoiti, mazmuni, mohiyati, kun tartibi, muayyan qonun va qoidalari bilan yaqindan tanishish natijasida uning ruhiyatida keskin tushkunlik ro'y beradi, ...uning ruhiy dunyosida umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, ya'ni istiqbolga ishonchsizlik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his-tuyg'ular namoyon bo'ladi"²⁰. Natijada talabalarda ichki, shaxslararo va "talaba – o'qituvchi" konfliktlari kelib chiqadi. E.G'oziyev va o'z kuzatishlarimizda shu narsa aniqlandiki, yuqorida bayon etilgan holat uzoq davom etmaydi, 3-6 oy davomida talabalarining ko'pchilik qismi oliy maktab sharoitiga moslashadilar.

Yana bir konflikt manbai, bu ham bo'lsa yuqori kurslarda (3-4 kurslarda) talabalarining (ayniqsa, ba'zi bir yigitlarning) "endi yuqori kursda o'qiyapman, o'qimasam ham bo'ladi" deb bo'shshib qolishlari bilan bog'liq. Bundaylarning ba'zilari universitetdan haydalayotganda vaziyatning nihoyatda jiddiyiligini tushunib qoladilar.

Oiladagi ziddiyatlar

"Qush uyasida ko'rganini qiladi". Bu maqol hamma davrlarda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Farzandlar ota-onaga o'xshashga harakat qiladilar, ota-onalar esa o'zlari bilib yoki bilmasdan o'z xarakter xususiyatlarini, orzu-havaslarini farzandlariga singdirib boradilar.

Bolalar-chi, ular ota-onalaridan nimalarni oladilar va uni qanday oladilar?

Amerikalik psixolog, psixoterapevt Erix Bernning fikricha, individ olamga kelib o'sib, rivojlanar ekan, u atrofda, ayniqsa, oiladagi ijtimoiy munosabatlarni diqqat bilan kuzatadi (har kuni ko'z oldida yurgan kishilarni kuzatmasdan iloji ham yo'q), bola atrofda gildardan, ayniqsa, qiz bola onasidan, o'g'il bola otasidan hayot tarzini, o'zaro munosabat va muloqot tajribasini to'plab boradi. Yaqin odamlari: otasi va onasining xatti-harakati, gap-so'zi, hulq-atvori, oiladagi va atrofda gildagi kishilar bilan munosabatlari o'sib rivojlanayotgan bolaning, o'smirning, yigitning (qizning) ongida, ong ostida mustahkamlanib boradi.

Oilada shakllangan odatlar, hayotiy tasavvurlar – "hayot stenariysi" shaxsning ong ostida mustahkamlanib, uning keyingi hayotidagi xatti-harakatida, xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Oilada to'plangan ijtimoiy tajriba va bilimlarning shaxsning keyingi hayotidagi o'rnini juda katta, ammo ba'zi bir ilmiy-tadqiqotlar va shaxsiy kuzatuvlarimizga asoslanib shuni aytish mumkin, axloqiy va psixologik muhit salbiy oilalardan ham odobli, mehnatsevar, do'stlariga sodiq va bolajon insonlar yetishib chiqqani haqida ma'lumotlar ko'p.

Psixokorreksiya

Shaxslararo, oilaviy kelishmovchiliklar, konfliktlarni kuzatish shuni ko'rsatdiki, aholida psixologik yordamga nisbatan o'ziga xos yondashish – to'siq bor ekanki, buni yengish uchun psixologik yordamga muhtoj kishilar, eng avvalo psixologlarning psixolog tashviqot sohasida ter to'kib xizmat qilishlariga to'g'ri keladi.

Juda ko'p odamlar o'z sog'lig'iga ozgina beparvo bo'lib, agar kasal bo'lsa zo'rg'a shifokorning oldiga boradi. Lekin, shifokorning aytganini qilishga unda toqat yo'q.

Psixolog yordamiga muhtoj insonlarga ayrim tavsiyalar:

1. Psixologik yordamda avvalambor psixologning oldiga kelgan kishining o'zida kuchli istak bo'lishi kerak (davolash).
2. Psixologga ishonish kerak.
3. Sabr-toqatli bo'lishi kerak. Nima uchun? Chunki jismoniy kasallikni davolash oson, u yuza qismda joylashgan.

Psixologik kasalliklar esa juda chuqur va uzoq vaqt davomida to'plangan, ya'ni insonning ongi, ongosti va eng nozik joy – qalbida o'rnashgandir.

Endi shu narsani (agar bu narsa uzoq vaqtdan buyon davom etayotgan bo'lsa, yanada uni uzoq davolash zarur bo'ladi) tozalash qancha qiyin bo'ladi. Bu yerda bir o'xshatish keltirganimiz ma'qul. Agar kiyim uzoq vaqt davomida juda yomon iflos narsalar bilan bulg'angan bo'lsa, uni yuvish, tozalash ham shuncha qiyin bo'ladi, hatto tozalash uchun qo'shimcha vositalardan ham foydalanishga to'g'ri keladi. Insonning onggi, ong osti (qalbi) ham shunday, biz uni uzoq vaqt (yillar davomida) zaharladik, qoraytirdik, endi biz uni ikki kunda davolamoqchimiz, yo'q u tozalanish – forig' bo'ish jarayoni bunchalik tez amalga oshmaydi.

4. Eng asosiy qiyinchilik, jarrohning oldida yotgan bemor biladi, uning og'riyotgan a'zosini olib tashlashadi va buning uchun u hatto barmoqlarini ham qimirlatishi shart emas. Qanday ajoyib, u kasalxonadan sog'lom bo'lib chiqib ketadi, undan talab qilingan narsa, tinch yotish va aytilgan parhyezga qat'iy amal qilish edi. Psixologik yordamda bunday bo'lmaydi. Bu yerda eng asosiy zahmatkash uning o'zi, psixolog esa unga tozalanish, davolanish yo'lini ko'rsatadi yoki shu yo'lni shaxsning o'zi topishiga imkon beradi, yordam beradi. Dunyoda eng og'ir va qiyin ish bu insonning xulq-atvorini, yomon odatlarini, xarakterini o'zgartirishdir. Chunki, buni tabletka, ukol yoki jarrohlik yo'li bilan davolab bo'lmaydi. Shaxsning bu kamchiliklarini o'zi sezmasligi mumkin, u ko'zga ham ko'rinmaydi. Agar insonning o'zi istamasa, o'zi iroda, hissiyotini, ruhiy va jismoniy kuchini to'plab psixologga va o'ziga yordam bermasa psixolog yordami amalga oshmasdan qoladi.

1-mavzu Kasbiy tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Reja:

1. Psixologik tanlov va uning tarixiy ahamiyati.
2. Kasbiy tanlovda mutaxassisning kasbiy va shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olish.
3. Kasbiy tanlov xulosasi va uning ahamiyati.

Mutaxassisni tanlash (baholash) fikri bugungi kundagi kashfiyot emas. Zamonaviy tanlov tarixi asrlar davomida shakllanib kelgan. A.A.Bodalyov va V.V.Stolinning fikricha, u turli qobiliyatlar, bilim, ko'nikma va malakalarni sinash bilan bog'liq. Eramizgacha 3 ming yillik o'rtalarida qadim Vavilondagi bitiruvchilarda sinovlar o'tkazilgan. Qadim Misrda din peshvolarida bir qator sinovlardan o'tkazishgan. Suhbat olib borish ko'nikmalari, tashki ko'rinishi, mehnat qilish ko'nikmalari, tinglash, olov, suv bilan sinashdan iborat bo'lgan. Bu sinovlar o'zida ishonchi bo'lmagan, ta'limning uzok muddatiga dosh bera olmaydiganlarni xatto o'ldirish bilan qo'rqitishardi. Shuning uchun xar bir nomzodga ibodatxonaga kirishdan avval yaxshilab o'ylab ko'rish tavsiya etilgan. Bu sinovlar tizimini buyuk olim Pifagor yengib o'tgan. Gresiyaga (Yunonistonga) qaytib o'zi yengib o'tgan qiyinchiliklarga o'xshash sinovlardan o'ta oladigan kishilarni o'zi asos solgan maktabga qo'ygan. Pifagor intellektual qobiliyatlariga katta e'tibor bergan. Shuningdek, u yoshlarning kulishi va yurishiga e'tibor bergan.

Eramizgacha 2200 yil avval qadimgi Xitoyda xukumatning mansabdor lavozimini egallashni hohlovchi kishilar qobiliyatini tekshirish tizimi mavjud bo'lgan. Musiqa, kamondan otish, otda yurish, yozish, xisoblash, marosimlarni o'tkazish bo'yicha har 3 yilda amaldorlar shaxsan imperatorlar sinovidan o'tishgan. Davlat uchun imtixonlar tizimi eng qobiliyatli, iqtidorli kishilarni tanlash vositasi edi.

O'rta asrlar davomida ham turli imtixonlar jo'tkazilgan. Vetnam davlatida atigi ikki yil davomida (1370-1372) barcha xarbiy va fuqarolik amaldorlarining qayta attestasiyasi o'tkazildi. Bu butun mamlakat bo'yicha davlat apparatlarini tekshirishdan o'tkazish imkonini berdi. Natijada Vetnam yanada kuchli feodal mamlakatga aylandi.

XV asrda sinovlar tartibga solindi. Ular bosqichlar va tur buyicha o'tkazilardi. Imtihonda oliy darajalarga erishish hurmatga sazovor bo'lish xisoblanardi. Bugungi kunda tanlov davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining ishchilarini faoliyat ma'sulligini, professionalizmi, malaka darajasini belgilash uchun o'tkaziladi. Birinchi navbatda tanlov mutaxassisning egallab turgan lavozimiga kasbiy muvofiqligini aniklashga qaratilgan.

Faoliyat muvaffaqiyatini prognozlash psixologik ko'rsatkichlar asosida olib boriladi. U faoliyatda o'rgatish jarayonini optimallashtirish uchun muhim o'quv guruhlarini tuzishda, individual yondashishni tashkil etishda va boshqa hollarda qo'llaniladi.

Ko'pincha faoliyat muvaffaqiyatini prognozlash insonning u yoki bu faoliyatga to'g'ri kelishi psixologik tanlov o'tkazish yo'li orqali amalga oshiriladi. Psixologik tanlov professional tanlovning komponentlaridan biri bo'lib, u o'z ichiga tibbiy, ta'lim, bilim darajasi bo'yicha tanlovlarni o'z ichiga oladi. Aniq faoliyat turida inson qobilyatlarni son va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baholash eng oddiy, ammo unchalik mukammal bo'lmagan usuldir.

Psixologik tanlov shundayki, bugungi qabul qilgan qarorlarimiz kelajakdagi tanlovlarimiz uchun asos bo'lishi mumkin. Insonlar ko'p hollarda allaqachon qilingan tanlovlarga amal qilishda davom etishadi. Siz studentlik paytingizdan boshlab sotib olgan tish pastaning savdo belgisi sizning butun hayotingiz mobaynida siz tanlaydigan brend bo'lishi osonroq. Bu yerda siz haliyam o'sha savdo belgisini tanlayotganingizning bir nechta sababi bor. Birinchidan, siz o'sha mahsulotni avval iste'mol qilib ko'rgansiz, bu sizni o'sha mahsulot uchun yana qo'shimcha xarajat qilishga undaydi. Ikkinchidan, brendlarning foydalilik darajasi o'rtasidagi farq judayam kam. Shu sababli, siz aynan nimani tanlayotganingizni ahamiyati yo'q va iloji boricha avval sinovdan o'tgan

mahsulotni tanlash samaraliroq .21

Yosh mutaxassislarni tanlovdan o'tkazish 2-3 yildan keyin amalga oshiriladi. Bunda yosh mutaxassisning egallab turgan lavozimiga mosligi va uning kasbiy rivojlanishini istiqbolli rejalari nazarda tutiladi. Mutaxassisning egallab turgan lavozimiga mosligini aniqlash zaruriyati shuningdek, ish stajiga ega bo'lgan talab ishchining shaxsiga nisbatan ham kelib chikishi mumkin. Haq to'lash shartlari mehnat xarakteri va mazmunining o'zgarishi yangi texnikaning kirib kelishi, yangi texnologiyalarga o'tish, egallab turgan lavozimiga muvofiqqligini tasdiqlash uchun kerak bo'ladi. Nixoyat, yoshdagi o'zgarishlar va kasbiy deformatsiyalar bilan bog'liklik ishchining kasbiy nomuvofikligi bo'lishi mumkin.

Tanloving keyingi muxim aspekti mutaxassis faoliyatining samaradorligini aniqlaydi. Albatta, tanlov ob'yektiv xarakterga ega bo'lishi lozim. Tanlovda ishchi kasbiy faoliyatining ma'naviy tomonini hisobga olish lozim. Har bir kasbda xulq etikasi va korporativ ahloq mezonlari mavjud. Ularga rioya etish tashkilot va muassasalarning rahbarlari uchun muxim ahamiyatga ega. Kasbiy ahloq qarorning ijtimoiy asoslanishiga, maxsulot sifatiga, rahbar kadrlar siyosatiga, jamoadagi ijtimoiy - psixologik muhitga ta'sir etadi. Nixoyat, tanlov mutaxassisning o'z ishiga va kasbga bo'lgan subyektiv munosabatini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, asosiy qobiliyat tarkibidan tashqari, tanlov istalmagan kasbiy sifatlar bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs deformatsiyalari va albatta, ularning tashxis usullarini aniqlab berishlari lozim. Asosiy qobiliyatlar va istalmagan kasbiy sifatlar tashxisi natijalari mutaxassisning kasbiy rivojlanishini va malakasini oshishini aniqlab berishi kerak.²²

Tanlov maqsadlari - bu malaka professionalizmining o'sishini tezlatish boshqaruvli mehnat sermaksulligi, ijodiy tashabbuskorlikning rivojlanishi bozor iktisodiyoti sharoitida mehnatga haq to'lashni differensiasiya yo'li bilan ishchilarni ijtimoiy himoyalash kabilardir. Mutaxassisning egallab turgan lavozimi va talab etayotgan malaka toifasiga mosligini o'rganish, ishchini kelgusidagi kasbiy malakalari o'sishiga imkon beradi. Shuningdek, tanlovning noxush masalaridan biri - shtatlarni qisqartirish, rahbarni ishi koniktirmaydigan ishchilardan qutilishi. Kasbiy tanlov tashkilotda ma'lum tanglikni yaratadi chunki, u subyektiv va xato bo'lishi mumkin bo'lgan baholash jarayonlari bilan bog'liq. Chunki tanlov natijalariga ko'ra shaxs uchun juda muhim bo'lgan xulosalar chiqariladi. Shuning uchun kasbiy tanlovni o'tkazish uchun ishchining professionalizm darajasini, mehnat samaradorligini va kasbiy potensialini to'g'ri baholay oladigan professionallar jalb etiladi.

U.S. Jumayevning fikriga ko'ra, bugungi kunga kelib, shaxsni kasb tanlashga yo'naltirish muammosiga o'ziga xos ijtimoiy-psixologik tamoyillar asosida yondashish tendensiyasi ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, olimlar tomonidan «kasbga yo'naltirish uchburchagi» (1-rasmga qarang) tavsiya etilgan va uning birinchi tomoni – turli kasblarning insonga qo'yadigan talablarini puxta bilishdir. Ikkinchi tomoni – ijtimoiy kutilmaning mehnat bozorini, jamiyat (tor ma'noda – hudud)ning u yoki bu mutaxassisga nisbatan ehtiyojini o'rganishdir... Kasbga yo'naltirishning uchinchi tomoni va bunga oid barcha ishlarning asosi shaxs xususiyatlarini, eng avvalo, kasbga yo'naltirilayotgan insonning qobiliyati va istagini oilaviy muhit sharoitida aniqlashni o'z ichiga oladi.²³

Ilmiy psixologik adabiyotlarda bu hodisa mazmunini ifodalovchi turli atamalar: «oilaning ijtimoiy-psixologik muhiti», «oilaning ma'naviy-psixologik muhiti», «oiladagi psixologik kayfiyat», «oilaviy psixologik muhit», «oiladagi ijtimoiy-psixologik vaziyat» va boshqalar ishlatiladi.

Bizningcha, hodisaning nomi haqida bahslashishdan ko'ra, uning mohiyatiga, qarashlarning


²¹ Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 52- bet

²² Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 53- bet

²³Жумаев У.С. Ўсмирларда касб танлашга муносабат тизими шаклланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: психол. фан. ном. ... дис. автореферати. – Т., 2004. – 8-бет.

birligiga erishish muhim sanaladi va bunda «oilaviy meros»ni izlanishlar predmeti sifatida ko'rmq maqsadga muvofiqdir. Fanda genetik axborotlar bir avlod organizmidan boshqa avlod organizmiga o'tishi natijasida ularning rivojlanish jarayonini *biologik tadqiqotlar* o'rganadigan bo'lsa (masalan, I.Ravich-Shyerbo, 2000), «oilaviy meros»ning genetik mohiyati sifatida ajdodlarga munosib vorislikni tanlagan kasbiy sulolalar davomiyligini tushunishda *ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar* muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan biz, shaxsning «biologik meros» tushunchasiga daxlsiz ravishda «meros» atamasidan oilaviy muhit ta'sirida shakllanadigan yoki avloddan-avlodga o'tadigan shaxsiy-kasbiy sifatlarni izohlashda qiyosiy tushuncha o'rnida foydalanamiz.

Kasbiy tanlov natijasi - ishchiga malaka toifasini berishdir. Shaxs faoliyati va xulqiga kishi hayotining birinchi kunidanoq baho beriladi. Atrofdagilar uni anglagan yoki anglamagan, tizimli, tizimsiz baholashadi. Baholash bizning kundalik aloqalar odamlar bilan muloqatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu



baholashdan farqli ravishda tanlov tashkilot a'zolarining (baxolovchi) shu tashkilot a'zolarini (tanlovdan o'tuvchilar) standartlashgan baholash shaklidir. Bunday farq baholash shaklidir. Kadrlarni baholash masalalari bo'yicha adabiyotlar tahlili asosida barcha tanlov usullarini ikki guruxga bo'lish mumkin: erkin va parametrlari berilgan guruh tanlov jarayoni muhim ahamiyatga ega. Rahbar tanlovdan avval ishchilarni ularni tanlovdan o'tishi haqida ma'lum qilishi lozim: toifa talablari, baholash usullari, tanlovning o'tish muddati va x.k.

Tanlov natijalari bo'yicha suhbat o'tkazish xam muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun rahbarlarni tanlov yuzasidan suhbat olib borishga o'rgatish lozim. Tanlov shaxsning qaysi asosiy muhim kasbiy sifatlari hisobga olinadi? Buning uchun tanlov so'rovnomasidan namuna keltiramiz. Bu so'rovnomaning rahbar to'ldiradi.

Xizmat faoliyatiga munosabati va uning natijalari:

A) Ishga qiziqqanligi, tashabbuskorligi, mustaqilligi. Mehnatkash – ishga tegishli bo'lgan masalalarni o'zi yechishga kirishib ketadi - ishga to'liq berilib ketgan - ijodiy yondashadi - o'z rejalarini tuzadi va fikrlar bildiradi - topshiriqlarni bajarishda mustaqil faol, yoki uning aksi – tashabbuskorlikni namoyon qilmaydi - o'z fikriga ega emas – tashqi ko'rishidan kuzgatish qiyin - befarq - passiv. B) Bardoshli va qatiyatli. Charchoqni bilmaydi - o'ta kuchli zo'riqishda ham ishga bo'lgan layoqatini yo'kotmaydi - qatiyatli hammasiga ulguradi - ishga noroziliklari yo'q, ishdagi o'zgarishlari - o'rta darajada, ammo undan pasaymayapti – aniq emas; yoki tartibli emas parishon, ishni tez ammo sifatsiz bajaradi, ko'p xatoga yo'l qo'yadi - umuman olganda faoliyatda past ko'rsatkichni tashkil kiladi.

Aqliy qobiliyatlar:

A) tahliliy fikrlash qobiliyati, tez faxmlay olish, topqirlik. Ishni ko'zini bilish, aqliy qaror qabul qilishda cheklangan moxiyatni tushunmay, ayrim detallarni anglash, fikrlashning bir xil emasligi, sekinlashgan fikrlash, tushunib olishdagi qiyinchiliklar. B) fikrlashda ishonch va aniqlik Aniq - bosiq - obyektiv - muhimni muhimsizdan ajrata olish - o'ylab ish ko'rish - ishonchsizlik - noaniklik - o'z fikrining yo'qligi. B) o'z fikrini bayon eta olish, og'zaki chiqish, juda anik va ishonchli - ko'rgazmali - qisqa - chalkash - tutilib gapirish. Yozma ravishda: juda moxirona - to'liq, tartibli - bog'liqsiz - anikliqning mavjud emasligi, ifodalarning o'xshovsizligi. G) salohiyat kuchli - xar tomonlama - mos, cheklangan - bo'shliklar mavjud: D) Tashkilotchilik qobiliyati Tashkilotchilik qobiliyatining mavjudligi, rejalashtirishning aniqligi, rejani aniq amalga oshirish, tajribasizlik - uquvsizlik, umumiy tasavvurning yo'qligi.

Shaxsiy tavsifnoma :

A) Xarakterning umumiy holatlari: samimiylik - o'zini qo'lga olishi - tolerantlik - kamtarlik - bosiqlik - xazilga moyilligi, o'ziga tanqidiy baho berish - kirishimli emas - yashirincha ish tutish - yuzakilik - xisobli - egoizm, o'zini ushlab tura olmasligi, manmanlik, erkalik. B) Mas'uliyat, burch tuyg'ulari - mas'uliyat - majburiylik - ishonchlik - befarqlik B) Irodaviy tavsiflari- ishni oxirigacha olib boradi - mustaqil qaror qabul qiladi - qaror qabul qilishda xato qiladi - o'ziga nisbatan ishonchi yo'q, faqat ko'rsatma bilan ish tutadi. G) O'zini tutishi-ishonch-odobli, majburiylik-erkin-korrektiv- tortinchoq, odobsiz-ishonchsizlik-manmanlik. D) xizmatdagi xulq-atvori raxbariyat bilan munosabatda samimiy konstruktiv va pozitiv xodimlarning tanqid va maslahatlarga quloq soladi, ishbilarmon, raxbariyat xurmat bilan qaraydi, oson boshqariladi, tanqidga xafa bo'lmaydi, rahbariyatni chetlab o'tishga xarakat kiladi, buyruq berishlarini yoqtirmaydi, samimiy emas, ishonch qozonishga harakat qiladi, o'zini yomon tutadi. Kasbdoshlari bilan munosabatda boshqalar bilan chiqishadi, kasbdoshlar ishonchini qozongan, o'rtoqlik tuyg'usi rivojlangan, jamoaga kirishib ketadi, muxabbat qozongan, yordamga kelishga tayyor, ziddiyatli vaziyatlar sababchisi bo'ladi, bir o'zi yuradi, jaxldor o'rtoklik hissi mavjud emas.

Mutaxassisning tanlovi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa sifatlarni ham ko'rib chiqamiz:

A) chet — tillarini bilish darajasi? Kaysi tillarni biladi? Kanday darajada va qayerda o'rgangan? Mamlakatda yoki chet elda?

B) malaka oshirishi, malaka oshirish kurslarida yoki boshqarish akademiyasida o'qigan.

Mutaxassisning umumiy bahosi tanlov mazmunidan kelib chiqishi lozim, u quyidagi baxolardan iborat: Juda yaxshi, eng yaxshi umumiy baho bo'lib, u ishga shak - shubhasiz layoqatga, o'ta kuchli qobiliyatlar va xizmat majburiyatlarini a'lo bajarishga mos keladi. Bunday bahoga shunday mutaxassislar loyiqlik, ish bo'yicha xam, shaxsiy fazilatlariga ko'ra xam “Yaxshi” baxosini olgan ishchilardan ustun turishadi. “Juda yaxshi” bahosi kamdan- kam beriladi. **Yaxshi baho** olish uchun ishga layokat bilan yondashadigan yukori qobiliyat va kasbiy majburiyatlarni aniq bajarish bilan ajralib turadigan ishchilar tekshiriladi. Bu bahoni faqat chuqur bilimga ega bo'lgan o'z ish-

joyida qiyinchiliklarni yenga oladigan, qobiliyatli va salohiyatli mutaxassislar bo'lishi mumkin. **Qoniqarli baho:** bu baho o'z shaxsiy sifatleri, qobiliyatlari va kasbiy faoliyatini "yaxshi" baxosini darajasiga yetarlicha javob bermaydigan shaxslarga beriladi. Qobiliyatlar va kasbiy majburiyatlarni bajarishda kamchiliklari mavjud ishchilarga qo'yiladigan baho. Bu xodimlarning kamchiliklarini bartaraf etishga umidi mavjud. Ishchilarga attestasiyada beriladigan eng yomon baxo. Bu ishchilar kasbga nisbatan layoqat qobiliyatlari va mehnat majburiyatlarini bajarish borasida talabga javob bermaydilar, chunki elementar bilimlarida bo'shliqlar mavjudligi tufaylidir. Bu kamchiliklarni bartaraf etib bo'lmaydi, bo'lgandayam xodimdan shunday kuch talab etadiki, kutilmagan xolday qabul qilinadi. U o'z lavozimiga loyiq emas xisoblanadi.

Tanlov xulosasi- bu mutaxassislariga ular kasbiy darajalariga muvofik malaka toifalarini berish to'g'risidagi qarorni qabul qilishdir. Toifa berish- fikrimizcha, tanlovning maqsadlaridan biri xolos. Yodda tutish kerakki, tanlov nafaqat mutaxassisning dolzarb malaka darajasini baxolash kerak, balki uning kasbiy o'sishini, uning malakasini oshirish yo'llarini shuningdek, karyera istikbollarini aniqlab berish lozim. Tanlov bir marotabalik xodisa yoki navbatdagi kompaniya sifatida ko'rilmaligi kerak. Shu koidaga tayanib, biz mutaxassisni baxolash uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan mutaxassisning kasbiy toifa pasportini ishlab chikdik. Pasport ikki qismdan iborat. Birinchisida biografik ma'lumotlar bo'lib, kasbiy o'zgarishlarda bu o'zgarishsiz qoladi. Ikkinchi qismi xar kaysi attestasiya jarayonida to'ldiriladi. Shunday kasbiy toifa pasportiga ega bo'lib, muassasa raxbari obyektiv ravishda xech kanday qiyinchiliklarsiz xodimini ishlatish mumkin, mutaxassisning o'zi esa o'z kasbiy o'sishini nazorat qilishi, o'z vaqtida kasbiy faoliyatga kerakli o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Tanlovning asosiy tamoyillariga rioya etishni ta'minlash uchun- yana bir bor tanlov o'tkazishning ayrim muammolarida to'xtalib o'tamiz. Eng asosiysi odamga yunaltirilganlik mutaxassisga uning toifasidan qat'iy nazar unga qiziqish, xodimga yaxshi munosabatda bo'lish, undan kutiladigan emas, balki uning kasbiy o'sishini doim nazarda tutish kerak. Bu muammolarni xal etishda real imkoniyatlarni sanab o'tamiz: Tanlovda o'g'uvchini metodikasini barcha materiallari bilan tanishtirish. Mutaxassis faoliyatining tekshiruvini o'tkazishda tanlovdan o'tuvchi tayinlangan materiallar bilan tanishtirilishi lozim. Qaysidir nomzoddan norozilik xollarda u ekspertni chetlatishga xakki mavjud. Imtixon komissiyasi taklif etgan variantlardan imtixon shaklini tanlash tanlovdan o'tuvchilarga bog'liq. Tanlovni o'tkazishda attestasiyadan o'tuvchilarning individual, jins, yosh xususiyatlarini xisobga olishi lozim. Tanlovda yul qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarga to'xtalib o'tamiz. Tanlovda yosh endi faoliyatini boshlagan xizmatchilar faoliyati tajribasizlik, mas'uliyatsizlik bilan belgilanadi. Ko'p yillik stajga ega bo'lgan mutaxassislariga esa kasbiy ishonch, ammo shu bilan birga konservatizm va yangiliklarga o'rgana olmaslik xos bo'ladi. Tanlovning obyektivligiga attestasiya komissiyasi a'zolarining ishchilarga bo'lgan simpatiya va antipatnyalari ta'sir etadi. Shuning uchun kimlargadir baholar ko'tarilib qo'yadi, kimgadir pasaytirib qo'yiladi. Tanlov natijalariga rahbarlar tomonidan ekspertlarga berilgan xulosalar ta'sir etadi. Tanlov natijalari bo'yicha mutaxassislariga oshirilgan yoki aksincha pasaytirilgan og'zaki tavsiflar beriladi.

1.Mavzu: Kasbiy psixologiyaning nazariy va konseptual asoslari

1.1. Mashg'ulot maqsadi:

Kasbiy psixologiyaning nazariy va konseptual asoslari haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.

1. Seminar mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

<i>Vaqt:</i> 4 soat.	<i>Talabalar soni:</i> 25 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg'ulot
<i>Seminar mashg'ulot rejasi</i>	1.Kasbiy psixologiyaning tabiiy ilmiy asoslari. 2. Psixik taraqqiyotning nerv-fiziologik asoslari. 3.Psixika va ong rivojlanishining nazariy va konseptual asoslari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i>	Kasbiy psixologiyaning predmeti, psixika va uning namoyon bo'lish shakllari haqida umumiy tasavvurni mustahkamlash va chuqurlashtirish.
<i>Pedagogik vazifa:</i> 1.Kasbiy psixologiyaning tabiiy ilmiy asoslarini yoritib beradi, bilimlarni mustahkamlaydi; 2.Psixik taraqqiyotning nerv-fiziologik asoslarini o'rganishga doir topshiriq uyushtiradi; 3. Psixika va ong rivojlanishining nazariy va konseptual asoslari to'g'risidagi bilimlarni tizimlashtirishga yo'naltiradi;	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> • Kasbiy psixologiyaning tabiiy ilmiy asoslarini mohiyatini asoslab beradilar. • Psixik taraqqiyotning nerv-fiziologik asoslarini taxlil qilib beradilar. • Psixika va ong rivojlanishining nazariy va konseptual asoslari haqidagi bilimlarni tizimlashtiradilar.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Amaliy mashg'ulot, bir-biridan o'rganish usuli; klaster, BBB
<i>O'qitish vositalari</i>	Darslik, komp'yuter texnologiyasi, slaydlar, yozma ishlar
<i>O'qitish shakli</i>	«guruxlarda juftlik yoki kichik guruxlarga bo'linib ishlash».
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.
<i>Baholash</i>	Kuzatish, og'zaki nazorat, yozma nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq.

2. Seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi

№	Bosqichi	Vaqt (daq)	Ta'lim beruvchi faoliyati	Ta'lim oluvchi faoliyati	Ta'lim vositalari	Ta'lim metodlari
1	Motivasiya	10	Darsning tashkiliy tomonlari: Talabalar bilan salomlashish; Tahsil oluvchilar davomatini aniqlash (yo'qlama	Tinglaydilar. Savollar bilan murojaat qilishadi	Kichik guruhlarda ishlash qoidasi	Aqliy hujum , bir-biridan o'rganish usuli;

			<p>qilish); Tahsil oluvchilarning darsga tayyorgarligin i tekshirish</p> <p>1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini e'lon qiladi.</p> <p>1.2. "Kasbiy psixologiyaning nazariy va konseptual asoslari" mavzusi bo'yicha talabalarning bilimlarini faollashtirish maqsadida blisso'rov o'tkazadi.</p> <p>(1).Psixiy taraqqiyotning nerv-fiziologik asoslari nima?</p> <p>(2). Kasbiy psixologiyaning tabiiy ilmiy asoslari qanday?</p> <p>Javoblarni aniqlashtiradi, xatolarni to'g'rilaydi, xulosalaydi.va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.</p>	Yozib oladilar.		
2	Kichik guruhlarga ajratish	5	Kichik guruhlarni shakllantirish va topshiriqlar berish, ishlash qoidalari bilan tanishtirish. (1-ilova) Mavzuni	Kichik guruhlarga bo'linadilar, o'zaro hamkorlikda ishlaydilar.	Ta'lim usullari qoidalari, marker vatman skotch	Amaliy metod , bir-biridan o'rganish usuli; klaster, BBB

			mustahkamlash uchun “Klaster” texnologiyasi bilan ishlaydilar. Kichik guruhlar shakllantiriladi.			
3	Kichik guruhlarda muammoning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va oqibatlari to'g'risida fikr yuritish	20	“Kasbiy psixologiyaning nazariy va konseptual asoslari” to'g'risida ma'lumot yig'adilar. Tarqatma materillardan foydalandilar va o'qituvchi ko'rsatmalar beradi va yo'naltiradi	Har bir kichik guruh muammoning kelib chiqish sabablarini tahlil qiladilar, oqibatlari to'g'risida fikr yuritadilar va karotochkalarga yozadilar	Topshiriqlik kartochkalar. Marker.	Munozara
4	Kichik guruhlarda muammo yechimi bo'yicha ishlar	20	“Klaster” texnologiyasi bilan ishni tugatish va uni asoslash uchun konseptual jadvalni to'ldirish so'raladi. Konseptual jadvalni to'ldirish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	“Konseptual jadvalni to'ldiradilar	Talabalarning ishlanmalari	Klaster
5	Kichik guruhlar taqdimoti	15	Har bir guruh tarqatma materillar asosida va yig'gan ma'lumotlari asosida o'z taqdimotini qilishadi.	Tinglaydilar. Kuzatadilar. Kamchiliklar o'rganiladi.	Taqdimot	Namoyish , Kuzatish BBB
6	Kichik guruhlar	5	Guruhlar tayyorlagan	Kichik guruhlar o'z	Baholash mezonlari	Og'zaki nazorat

	ishini baholash		materiallari bo'yicha baholanadilar va o'zaro baholash ham inobatga olinadi (2-ilovalar)	ishlarini himoya qiladilar		
7	Yakuniy qism	5	Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi. Talabalarga topshiriq beradi: O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi. (3-ilovalar)	Savollar beradi. Mustaqil ish topshiriqlarini yozib oladilar.	Jurnal, nazorat savollari.	Yozma nazorat.

1-topshiriq. "Kasbiy psixologiyaning nazariy va konseptual asoslari".

Guruhni to'rtta guruxchaga bo'lib, klaster tuzish taklif etiladi. Klasterga o'rganilayotgan "Kasbiy psixologiyaning nazariy va konseptual asoslari" mavzusiga aloqador termin va tushunchalar kiritiladi.

Psixika haqida ta'limotlar:

1. *Aflotun* – jonning tarkibiy qismlari: 1) aql -idrok, 2) jasorat, va 3) orzu-istak deb tan oladi
2. *Aristotel* – ruh tanani boshqaradi, ya'ni tana har doim ruhga bo'ysunadi.
3. *Dekart*- psixika xulq-atvorning hayriixtiyoriy tabiatga ega ekanligini kashf etadi.
4. *Spinoza*- ongni katta ko'lamga ega bo'lgan materiadan qolishmaydigan voqyelik, yaqqol narsa deb tushuntiradi.
5. *Qadimiy ajdodlarimiz*-ruh tanani ma'lum sabablarga tark etadi, o'lim hayotning oxirgi bosqichidir.
6. *I.M. Sechenov*- psixikaning fiziologik asoslari, mexanizmlari, bosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Psixikani o'rganish

Psixikani o'rganish lotincha "reflxus" o'zining ruhiy holatini tahlil qilish demakdir. O'z-o'zini o'rganish demakdir. O'z-o'zini o'rganmasdan turib o'zgalarga baho baho bera olmaydilar. V.Vundt.

Mustaqil o'rganish uchun mavzular

- Psixika haqidagi ta'limotlarni o'rganish.
- Psixik taraqqiyot bosqichlarining ahamiyati.
- Psixik jarayonlarning darajalarini o'rganish.

2 – seminar mashg'uloti

Mavzu: Kasbiy psixologiya faniga kirish

2.1. Mashg'ulot maqsadi:

Kasbiy psixologiya fani haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.

1. Seminar mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

<i>Vaqt:</i> 4 soat.	<i>Talabalar soni:</i> 25 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg'ulot
<i>Seminar mashg'ulot rejasi</i>	1.Kasbiy psixologiya fanining paydo bo'lish tarixi. 2.Kasbiy psixologiyada yondoshuvlar. 3. Kasbiy psixologiyaning hozirgi kundagi ahvoli..
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i>	Kasbiy psixologiya faniga kirish haqidgia umumiy tasavvurni mustaxkamlash va chuqurlashtirish.
<i>Pedagogik vazifa:</i> 1. Kasbiy psixologiya fanining paydo bo'lish tarixining mohiyati yoritiladi, bilimlar mustaxkamlanadi; 2. Kasbiy psixologiyada yondoshuvlar o'rganishga doir topshiriq uyushtiradi; 3. Kasbiy psixologiyaning hozirgi kundagi ahvoli to'g'risidagi bilimlarni tizimlashtiradi;	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> • Kasbiy psixologiya fanining paydo bo'lish tarixiga ta'rif bera oladi, uning shakllarini mohiyatini isbotlaydilar. • Kasbiy psixologiyada yondoshuvlarni taxlil qilib beradilar. • Kasbiy psixologiyaning hozirgi kundagi ahvolini tushuntirib beradilar va tizimlashtiradilar.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Amaliy mashg'ulot, bir-biridan o'rganish usuli; BBB, klasster.
<i>O'qitish vositalari</i>	Darslik, komp'yuter texnologiyasi, slaydlar, yozma ishlar
<i>O'qitish shakli</i>	«guruxlarda juftlik yoki kichik guruxlarga bo'linib ishlash».
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.

Baholash	Kuzatish, og'zaki nazorat, yozma nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq.
----------	--

2. Seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi

№	Bosqichi	Vaqt (daq)	Ta'lim beruvchi faoliyati	Ta'lim oluvchi faoliyati	Ta'lim vositalari	Ta'lim metodlari
1	Motivasiya	10	Darsning tashkiliy tomonlari: Talabalar bilan salomlashish; Tahsil oluvchilar davomatini aniqlash (yo'qlama qilish); Tahsil oluvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini e'lon qiladi. 1.2. "Kasbiy psixologiyaning dolzarb muammolari" mavzusi bo'yicha talabalarning bilimlarini faollashtirish maqsadida blis-so'rov o'tkazadi. Javoblarni aniqlashtiradi, xatolarni to'g'rilaydi, xulosalaydi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Tinglaydilar. Savollar bilan murojaat qilishadi Yozib oladilar.	Kichik guruhlarda ishlash qoidasi	Aqliy hujum, bir-biridan o'rganish usuli
2	Kichik guruhlariga ajratish	5	Kichik guruhlarini shakllantirish va topshiriqlar berish, ishlash qoidalari bilan tanishtirish. (1- ilova) Mavzuni mustahkamlash uchun "FSMU" texnologiyasi bilan ishlaydilar. Kichik guruhlar shakllantiriladi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar, o'zaro hamkorlikda ishlaydilar.	Ta'lim usullari qoidalari, marker vatman skotch	Amaliy metod, bir-biridan o'rganish usuli; klaster
3	Kichik guruhlarda muammoning kelib chiqish	20	Kasbiy psixologiyaning dolzarb muammolari to'g'risida ma'lumot yig'adilar. Tarqatma materillardan	Har bir kichik guruh muammoning kelib chiqish sabablarini tahlil	Topshiriqlikaro'chkalari. Marker.	klaster

	sabablarini tahlil qilish va oqibatlarini to'g'risida fikr yuritish		foydalandilar va o'qituvchi ko'rsatmalar beradi va yo'naltiradi	qiladilar, oqibatlarini to'g'risida fikr yuritadilar va karotochkalarga yozadilar		
4	Kichik guruhlarda muammo yechimi bo'yicha ishlar	20	“BBB” texnologiyasi bilan ishni tugatish va uni asoslash uchun konseptual jadvalni to'ldirish so'raladi. Konseptual jadvalni to'ldirish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	“Konseptual jadvalni to'ldiradilar	Talabalarning ishlanmalari	BBB
5	Kichik guruhlar taqdimoti	15	Har bir guruh tarqatma materiallar asosida va yig'gan ma'lumotlari asosida o'z taqdimotini qilishadi.	Tinglaydilar. Kuzatadilar. Kamchiliklar o'rganiladi.	Taqdimot	Namoyish, Kuzatish
6	Kichik guruhlar ishini baholash	5	Guruhlar tayyorlagan materiallari bo'yicha baholanadilar va o'zaro baholash ham inobatga olinadi	Kichik guruhlar o'z ishlarini himoya qiladilar	Baholash mezonlari	Og'zaki nazorat
7	Yakuniy qism	5	Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi. Talabalarga topshiriq beradi: O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi .	Savollar beradi. Mustaqil ish topshiriqlarini yozib oladilar.	Jurnal, nazorat savollari.	Yozma nazorat.

3 – seminar mashg'uloti

Mavzu: “Kasbiy psixologiyaning metodlari va prinsiplari”

3.1. Mashg'ulot maqsadi:

“Kasbiy psixologiyaning metodlari va prinsiplari” haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.

1. Seminar mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt: 4 soat	Talabalar soni: 25 ta
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg'uloti
Seminar mashg'ulot rejas	1.Kasbiy psixologiyaning asosiy va amaliy metodlari. 2.Psixologiyaning asosiy prinsiplariga ta'rif. 3.Psixologiyaning amaliy sohalarini hozirgi kundagi ahvoli.
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Psixologiyaning asosiy metodlari va prinsiplari hamda psixologiyaning amaliy sohalar haqida umumiy tasavvurni berish, mustahkamlash va chuqurlashtirish.
Pedagogik vazifa: 1.Kasbiy psixologiyaning metodlariga oid bilimlarni mustahkamlaydi; 2.Psichologiyaning asosiy prinsiplarini o'rganishga doir topshiriq uyushtiradi; 3. Amaliy sohalar bog'liq bilimlarni solishtiradi;	O'quv faoliyatining natijasi: • Kasbiy psixologiyaning asosiy metodlariga ta'rif bera oladi, tahlil qila oladilar. • Psichologiyaning asosiy prinsiplarini taxlil qiladilar. • Amaliy sohalarini tushuntirib beradi, taqqoslaydi va tizimlashtiradilar.
O'qitish usullari va texnika	Amaliy mashg'ulot, bir-biridan o'rganish usuli; “SWOT” tahlil, “Venn”diagrammasi, toifalash jadvali
O'qitish vositalari	Darslik, komp'yuter texnologiyasi, slaydlar, grafikli organayzer
O'qitish shakli	«guruxlarda juftlik yoki kichik guruxlarga bo'linib ishlash».
O'qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.
Baholash	Kuzatish, og'zaki nazorat, yozma nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq, test.

2. Seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi

№	Bosqichi	Vaqt (daq)	Ta'lim beruvchi faoliyati	Ta'lim oluvchi faoliyati	Ta'lim vositalari	Ta'lim metodlari
1	Motivasiya	10	Darsning tashkiliy tomonlari: Talabalar bilan salomlashish; Tahsil oluvchilar davomatini aniqlash (yo'qlama qilish);	Tinglaydilar. Savollar bilan murojaat qilishadi	Kichik guruhlarda ishlash qoidasi	Aqliy hujum , bir-biridan o'rganish usuli;

			<p>Tahsil oluvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish</p> <p>11.1.O'quv mashg'ulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini e'lon qiladi.</p> <p>1.2. "Kasbiy psixologiyaning asosiy metodlari va prinsiplari" mavzusi bo'yicha talabalarning bilimlarini faollashtirish maqsadida blisso'rov o'tkazadi.</p> <p>(1). Metodlarning ishonchliligi deganda nimani nazarda tutiladi?</p> <p>(2).Metodlarning validligi deganda nimani tushunasiz?</p> <p>(3).Prinsiplarning xususiyatlarini bilasizmi?</p> <p>Javoblarni aniqlashtiradi, xatolarni to'g'rilaydi, xulosalaydi.va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.</p>	Yozib oladilar.		
2	Kichik guruhlariga ajratish	5	<p>Kichik guruhlarini shakllantirish va topshiriqlar berish, ishlash qoidalari bilan tanishtirish.</p> <p>(1- ilova)</p> <p>Mavzuni mustahkamlash uchun "SWOT" tahlil texnologiyasi bilan ishlaydilar.</p> <p>Kichik guruhlar shakllantiriladi.</p>	Kichik guruhlariga bo'linadilar, o'zaro hamkorlikda ishlaydilar.	Ta'lim usullari qoidalari, marker vatman skotch	Amaliy metod , bir-biridan o'rganish usuli;
3	Kichik	20	"Kasbiy	Har bir kichik	Topshiriqlikartochkal	Munozara,

	guruhlarda muammoni kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va oqibatlari to'g'risida fikr yuritish		psixologiyaning asosiy metodlari va prinsiplari"to'g'risida ma'lumot yig'adilar. Tarqatma materillardan foydalandilar va o'qituvchi ko'rsatmalar beradi va yo'naltiradi	guruh muammoning kelib chiqish sabablarini tahlil qiladilar, oqibatlari to'g'risida fikr yuritadilar va karotochkalar ga yozadilar	ar. Marker.	"SWOT" tahlil, Venn diagrammasi
4	Kichik guruhlarda muammo yechimi bo'yicha ishlar	20	"SWOT" tahlil texnologiyasi bilan ishni tugatish va uni asoslash uchun konseptual jadvalni to'ldirish so'raladi. Konseptual jadvalni to'ldirish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	"Konseptual jadvalni to'ldiradilar	Talabalarning ishlanmalari	"SWOT" tahlil Konseptual jadval, Venn diagrammasi
5	Kichik guruhlar taqdimoti	15	Har bir guruh tarqatma materillar asosida va yig'gan ma'lumotlari asosida o'z taqdimotini qilishadi.	Tinglaydilar. Kuzatadilar. Kamchiliklar o'rganiladi.	Taqdimot	Namoyish, Kuzatish
6	Kichik guruhlar ishini baholash	5	Guruhlar tayyorlagan materiallari bo'yicha baholanadilar va o'zaro baholash ham inobatga olinadi	Kichik guruhlar o'z ishlarini himoya qiladilar	Baholash mezonlari	Og'zaki nazorat
7	Yakuniy qism	5	Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi. Talabalarga topshiriq beradi: O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi	Savollar beradi. Mustaqil ish topshiriqlarini yozib oladilar.	Jurnal, nazorat savollari.	Yozma nazorat.

Kasbiy psixologiyaning asosiy metodlari

ASOSIY METODLAR	Asosiy metodlarning variantlari
KUZATISH METODI	
SO'ROQ METODLARI	
TESTLAR METODI	
EKSPERIMENT	
MODELLASHTIRISH	

4– seminar mashg’uloti

Mavzu: “Kasbga o’qitishning psixologik asoslari”

4.1. Mashg’ulot maqsadi:

“Kasbga o’qitishning psixologik asoslari” haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.

1. Seminar mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi

Vaqt: 4 soat	Talabalar soni: 25 ta
O’quv mashg’ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg’uloti
Seminar mashg’ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none">1. Kasbga o’qitishning rivojlanish tarixi.2. Farobiy pedagogik faoliyat xususida.3. O’quv faoliyati motivlari nazariyalarining tahlili.4. Kasbga o’qitishning psixologik asoslari.
O’quv mashg’ulotining maqsadi	Kasbiy psixologiyaning klassifikatsiyasi va ularni tanlash haqida umumiy tasavvurni berish, mustahkamlash va chuqurlashtirish.
<i>Pedagogik vazifa:</i> 1. Kasbga o’qitishning rivojlanish tarixiga oid bilimlarni mustahkamlaydi; 2. Farobiyning pedagogik faoliyat xususidagi nazariyalari bilan bog’liq bilimlarni solishtiradi; 3. O’quv faoliyati motivlari nazariyalarining “SWOT” tahlilini amalga oshiradi; 3. Kasbga o’qitishning psixologik asoslari o’rganishga doir topshiriq uyushtiradi;	<i>O’quv faoliyatining natijasi:</i> • Kasbga o’qitishning rivojlanish tarixiga ta’rif bera oladi, tahlil qila oladilar. • Farobiyning pedagogik faoliyat xususidagi nazariyalarga oid bilimlarni tushuntirib beradi, taqqoslaydi va tizimlashtiradilar. • O’quv faoliyati motivlari nazariyalarining “SWOT” tahlilini amalga oshiradilar; • Kasbga o’qitishning psixologik asoslari o’rganishga doir topshiriqni bajaradilar;
O’qitish usullari va texnika	Amaliy mashg’ulot, bir-biridan o’rganish usuli; “SWOT” tahlil, “Venn” diagrammasi, toifalash jadvali
O’qitish vositalari	Darslik, komp’yuter texnologiyasi, slaydlar, grafikli organayzer
O’qitish shakli	«guruxlarda juftlik yoki kichik guruxlarga bo’linib ishlash».
O’qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalar bilan ta’minlangan, o’qitish usullarini qo’llash mumkin bo’lgan o’quv xona.
Baholash	Kuzatish, og’zaki nazorat, yozma nazorat, savol-javobli so’rov, o’quv topshiriq, test.

3. Seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi

№	Bosqichi	Vaqt (daq)	Ta'lim beruvchi faoliyati	Ta'lim oluvchi faoliyati	Ta'lim vositalari	Ta'lim metodlari
1	Motivasiya	10	<p>Darsning tashkiliy tomonlari: Talabalar bilan salomlashish; Tahsil oluvchilar davomatini aniqlash (yo'qlama qilish); Tahsil oluvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini e'lon qiladi. 1.2. "Kasbga o'qitishning psixologik asoslari" bo'yicha talabalarning bilimlarini faollashtirish maqsadida blisso'rov o'tkazadi. (1). O'quv faoliyati motivlari deganda nimani nazarda tutiladi? Javoblarni aniqlashtiradi, xatolarni to'g'rilaydi, xulosalaydi. va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.</p>	<p>Tinglaydilar. Savollar bilan murojaat qilishadi</p> <p>Yozib oladilar.</p>	Kichik guruhlarda ishlash qoidasi	Aqliy hujum, bir-biridan o'rganish usuli;

2	Kichik guruhlarga ajratish	5	Kichik guruhlarni shakllantirish va topshiriqlar berish, ishlash qoidalari bilan tanishtirish. (1-ilova) Mavzuni mustahkamlash uchun “SWOT” tahlil texnologiyasi bilan ishlaydilar. Kichik guruhlar shakllantiriladi.	Kichik guruhlarga bo’linadilar, o’zaro hamkorlikda ishlaydilar.	Ta’lim usullari qoidalari, marker vatman skotch	Amaliy metod, bir-biridan o’rganish usuli;
